

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 494.3:894.3

XUSHMURODOVA CHAROS

ABDUGANI QIZI

**MUHAMMAD ALINING “SHOHRUX MIRZO” TARIXIY ROMANIDA
LEKSIK VOSITALARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI**

Ixtisoslik: 5A. 120.102 – Lingvistika (o‘zbek tili)

O‘zbek tilshunosligi bo‘yicha magistr

darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

B.YO‘LDOSHEV U.SANAQULOV,
SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Samarqand - 2017

MUNDARIJA

KIRISH

1. TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI.....	3
2. YOZUVCHI MUHAMMAD ALINING FAOLIYATI.....	11

BIRINCHI BOB

“SHOHRUX MIRZO” ROMANIDA KO‘P MA’NOLI, KO‘CHMA MA’NOLI SO‘ZLAR, O‘XSHATISHLAR, SINONIM VA ANTONIMLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI	15
I. 1. “Shohrux Mirzo” romanida ko‘p ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi haqida.....	15
I. 2. “Shohrux Mirzo” romanida metafora va metonomiyaning qo‘llanishi haqida.....	21
I. 3. “Shohrux Mirzo” romanida o‘xshatishlarning qo‘llanish xususiyatlari.....	28
I. 4. “Shohrux Mirzo” romanida sinonimlarning qo‘llanish xususiyatlari	41
I. 5. “Shohrux Mirzo” romanida antonimlarning qo‘llanish xususiyatlari	45
I. 6. Bobning qisqacha xulosasi.....	48

IKKINCHI BOB

“SHOHRUX MIRZO” ROMANIDA FUNKSIONAL CHEGARALANGAN LEKSIK QATLAMNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI	51
II. 1. “Shohrux Mirzo” romanida arxaizm va istorizmlarning qo‘llanish xususiyatlari.....	51
II. 2. “Shohrux Mirzo” romanida dialektizm, vulgarizm va evfemizmlarning uslubiy xususiyatlari	58
II. 3. Bobning qisqacha xulosasi.....	72

UCHINCHI BOB

“SHOHRUX MIRZO” ROMANIDA TOPONIM VA ANTROPONIMLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI.....	73
III. 1. “Shohrux Mirzo” romanida toponimlarning qo‘llanish xususiyatlari.....	73
III. 2. “Shohrux Mirzo” romanida antroponimlarning qo‘llanish xususiyatlari....	80
III. 3. Bobning qisqacha xulosasi.....	90

UMUMIY XULOSALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	94
a) ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar.....	94
b) ilmiy-nazariy adabiyotlar.....	94
d) lug‘atlar.....	98
e) badiiy adabiyotlar.....	98
SHARTLI QISQARTMALAR.....	99

ILOVALAR.....

1. “Shohrux Mirzo” romanida qo‘llangan toponimlarning qisqacha alifbo ko‘rsatkichi.....	100
2. “Shohrux Mirzo” romanida qo‘llangan gidronimlarning qisqacha alifbo ko‘rsatkichi.....	113
3. “Shohrux Mirzo” romanida qo‘llangan antroponimlarning qisqacha alifbo ko‘rsatkichi.....	114

Aslan noyob ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lgan til
insonga tabiatning bebaho ehsonidir.
ma’naviyat olamini tutib turuvchi ustun xalq
hayotining oynasi, tiniq ko‘zgusidir.

Muhammad Ali.

KIRISH

1. TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Ma’lumki, har qanday “adabiy til harchand boy bo‘lmasin badiiy tilga teng kelolmaydi. Tilning xususiyatlarini o‘rganish sohasida o‘zbek badiiy nutq uslubi fani keyingi yillarda salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”¹. Shuning uchun ham tilga, undagi asrlar davomida barcha boyliklar aks etib kelgan badiiy asar tiliga ham e’tiborsizlik insoniyatning o‘zligiga e’tiborsizlikdir. Xalqimiz doimo til boyliklarini chuqur o‘rganishga, uni amalda to‘g‘ri, oqilona qo‘llashga alohida e’tibor berib kelgan. Ulug‘ so‘z san’atkori Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan: “Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz... Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a’zolardir. Odam – tili bilan boshqa maxluqotdan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir”², - degan purhikmat so‘zlari ham ana shu bilan izohlanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili, uslubshunoslik, nutq madaniyati sohalarining taraqqiyotiga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, mustaqillik yillarida mamlakatimizda “Badiiy adabiyotda so‘z” (1994), “Badiiy matn va lisoniy tahlil”

¹Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.

²Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент, Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 71-72.

(1995), “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” (1992, 2002), “Milliylik va badiiy nutq” (2004), “Ufq” trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari” (2006), “So‘z sehgari” (2007), “Badiiy matnning lisoniy tahlili” (2008), “Nasr va nazmda poetik nutq psixologizmi va polifonizmi” (2008), “Stilistika va pragmatika” (2010), “Til va el” (2005; 2010), “Gazeta so‘zining qudrati” (2013), “Erkin A‘zamning so‘z qo‘llash mahorati” (2015), “Badiiylik jozibasi” (2016), “Badiiy asar tili masalalari” (2016) singari qator ilmiy tadqiqotlar³ yaratildi. Ammo shu kunga qadar O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining 2007 yilda respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan “Ulug‘ saltanat” asarining til xususiyatlari, yozuvchining bu asarida badiiy til vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xos mahorati kabi bir qator muhim masalalar keng va asosli tahlil etilganicha yo‘q. Akademik M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, “Muhammad Ali bu romani (“Ulug‘ saltanat” romanining birinchi kitobi – Ch.X.)da uslub jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. U ilgarigi asarlaridagidek, syujetni, obrazlar boyligini murakkablashtirish bilan band bo‘lmadi. Voqealarni... olib, ko‘proq tanlangan qahramonlarning ichki olamiga nazar tashladi. Boshqacha qilib aytganda, o‘zini ko‘p so‘zlilik va keraksiz to‘qimachilikdan xoli tutdi. Bu jihatdan uning jumalari nasrdan ko‘ra ko‘proq nazmni eslatadi”⁴. Filologiya fanlari nomzodlari I.Yoqubov va M.Ismoilovalarning fikricha, “Asarning aksar qahramonlari tasvirida lirizm ustuvor, ayrim hodisalar bayonida esa fantastikaga moyillik kuchli. Asardagi romantik ko‘tarinkilik, syujet va xarakterlarni dalillashda subyektiv talqin, hayotiy

³ Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби. Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти. 1992. – 140 б. Ёўдошев Б., Қурбонов Т. Бадийи асар тили ва услуби масалалари (услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – 164 б. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг бадийи маҳорати. Монография. – Тошкент: - Маънавият, 2003. – 104 б. Қурбонов Т. Тарихий бадийи асар ва давр тили масалалари (Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романи асосида). Монография. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 132 б. Ёўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: - Маънавият, 2002. – 80 б. Каримов С.А. Бадийи услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – 72 б. Ёўлдошев Б., Халилов Қ. Шоир Эркин Воҳидовнинг фразеологизм қўллаш маҳорати ҳақида. (монография) – Самарқанд, СамДУ нашри, 2007. – 96 б. Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. Монография – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 191 б. Ёўлдошев М. Бадийи матн лингвopoэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. -120 б.

⁴ Қўшжонов М. Ёзувчи камолотидан далолат (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Тарихий роман. 1-китоб. Жаҳонгир Мирзо. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2003. – Б.333.

hodisalarni poetik idrok etish kabi belgilar “Ulug‘ saltanat” shoirona jo‘shqinlik bilan bitilganligini ko‘rsatadi”⁵. Professor U.Uvatov bu roman haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: “Ulug‘ saltanat” tarixiy roman-dilogiyasi o‘zining ko‘lamdorligi, tasvir uslubi, esda qolarli qahramonlari tufayli o‘zbek xalqining XV asrdagi hayoti, tariximizning mo‘tabar davri haqida yorqin tasavvur bera oladigan epik asardir”⁶. Tarixchi olimlar T.Shirinov, A.Berdimurodovlarning filologiya fanlari doktori, prof.M.Xolbekov bilan hamkorlikda yozgan “Ulug‘ saltanat shukhi” nomli taqrizida bu roman haqidagi quyidagi xulosaga kelingan: “yozuvchi Muhammad Ali sohibqiron Amir Temur faoliyatining dastlabki davri haqida haqqoniy asar yaratishga erishgan. “Ulug‘ saltanat” romani xalqimizga Amir Temurning mashaqqatlarga va zafarlarga to‘la hayoti haqida yaxshi tasavvur beradi...”⁷. “Mening nazarimda, deb yozadi taniqli adabiyotshunos olim Y.Solijonov, - Siz (yozuvchi Muhammad Ali – Ch.X.) Amir Temur obrazini juda ehtiyotkorlik bilan xolisona tasvirlagansiz. To‘g‘risini aytganda, Sohibqironning faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar va kitoblarda, o‘rta ta‘lim maktablari uchun chiqarilgan darsliklarda faqat ijobiy baho berish, ya‘ni bir yoqlama tahlil etishga moyillik sezilmoqda. Nedurki, mustaqillik bizga Amir Temur bobomizni qaytib berdi, u kishining hayotiga xolisona yondashish imkonini yaratdi deb, biroz maqtovga berilib ketdik, shekilli. Axir, bosqinchilik bilan shug‘ullangan lashkarboshi istaydimi, yo‘qmi, qon to‘kilishiga yo‘l qo‘yadi, qurol ushlaganmi, yo‘qmi, yo‘lidan chiqqan odamlarni qiradi. Siz masalaning bu tomonini ham e‘tibordan chetda qoldirmaysiz. Amir Temurning jang paytlarida o‘ta shafqatsiz va qat‘iyatli lashkarboshi bo‘lganligini ham yashirmaysiz. Bunday hol romanning bir necha epizodlarida to‘g‘ri ko‘rsatilgan”⁸. 2013 yilda “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining so‘nggi – to‘rtinchi kitobi “Shohrux Mirzo” tarixiy romani

⁵ Ёкубов И., Исмоилова М. Буюк моҳият ва муносиб ифода (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Маърифат” газетаси, 2007 йил, 16 май.

⁶ Уватов У. Улуғ салтанат талқини (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2007 йил, 6 апрель.

⁷ Ширинов Т., Холбеков М., Бердимуродов А. Улуғ салтанат шукуҳи (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2004 йил, 13 август.

⁸ Солижонов Ў. Олис тарихнинг илиқ нурлари (Муҳаммад Алига мактуб) // Солижонов Ў. Мен сиздан сабоқ олдим (адилларга мактублар). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 52.

kitobxonlar hukmiga havola qilindi⁹. Agar tetralogiyaning birinchi kitobiga o‘z vaqtida akademik M.Qo‘shjonov “Yozuvchi kamolotidan dalolat” nomli so‘ngso‘z yozgan bo‘lsa¹⁰, asarning to‘rtinchi kitobiga “Yuksak tarixiy e‘tiqodga munosib badiiy samara” nomli yaxlit so‘ngso‘zni akademik B.Nazarov yozganligi e‘tiborga molik¹¹. Bularning barchasi to‘rt kitobdan iborat “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi poetikasini, jumladan asarning to‘rtinchi kitobi – “Shohrux Mirzo” tarixiy romanining til xususiyatlarini, yozuvchining bu asardagi badiiy til sohasidagi mahoratini maxsus kuzatish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur magistrlik dissertatsiyasining o‘zbek filologiyasi, badiiy nutq uslubiyati uchun dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning obyekti va manbalari. Tadqiqotni yaratishda yozuvchi Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining to‘rtinchi kitobi – “Shohrux Mirzo” romani asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, ishda o‘rni bilan Muhammad Alining “Amir Temur chamani” nomli ilmiy publitsistik asari¹²dagi materiallardan ham qisman foydalanishga e‘tibor qaratildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida leksik vositalarning qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, romanda ko‘p ma’noli so‘zlar, sinonim, antonim, funksional chegaralangan leksika, toponim va antroponimlarning tarixiy roman tarkibidagi xilma-xil vazifalarini monografik tarzda tadqiq etishdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirishda magistrlik dissertatsiyasi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan edi:

- Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida ko‘p ma’noli so‘zlarning qo‘llanish tamoyillarini aniqlash;

⁹ Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогија. Тўртинчи китоб. Шохрух мирзо.- Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2013. – 512 б.

¹⁰ Қўшжонов М. Ёзувчи камолотидан далолат (Мухаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Тарихий роман. 1-китоб. Жаҳонгир Мирзо. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2003. – Б.328-333.

¹¹ Назаров Б. Юксак тарихий эътиқодга муносиб бадий самара // Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогија. Тўртинчи китоб. Шохрух мирзо.- Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2013. – Б. 493-510.

¹² Мухаммад Али. Амир Темур чамани.-Тошкент:“Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 216 б.

- sinonimlarning “Shohrux Mirzo” romani matnida qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etish;
- Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida antonimlarning qo‘llanish tamoyillarini tadqiq etish;
- funksional jihatdan qo‘llanishi chegaralangan istorizmlar, arxaizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar va evfemizmlarning tarixiy roman poetikasida tutgan o‘ziga xos o‘rnini “Shohrux Mirzo” romani misolida o‘rganish;
- Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romani tilining o‘rganish orqali yozuvchining badiiy til mahoratini ochib berish;
- “Shohrux Mirzo” romanida qo‘llangan toponimlarning ichki tasnifini amalga oshirish; yozuvchining mikrotoponim, oykonim, gidronim singari onomastik birliklarni qo‘llash bilan bog‘liq mahorat sirlarini ochishga harakat qilish;
- “Shohrux Mirzo” romanida kishi ismlari, laqablar va boshqa antroponimik birliklarning qo‘llanish darajasini belgilash, bunday lug‘aviy birliklarning ichki tasnifini, grammatik strukturasi, tarixiy romanlar matnida bajargan funksiyalarini tahlilga tortish va hokazo.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni yanada chuqur o‘rganish va ona tilimizning ravnaqi borasidagi qarashlari tadqiqotning metodologik asosi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, dissertatsiya oldiga qo‘yilgan masalalar tavsifiy, qiyosiy va stilistik metodlar asosida o‘rganildi, o‘rni bilan statistik-leksikografik metoddan ham foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” romanida leksik vositalarning qo‘llanish xususiyatlari o‘zbek badiiy nutq uslubiylatida birinchi marta yaxlit monografik yo‘sinda tadqiq etilib, romandagi lug‘aviy vositalar o‘z va o‘zlashma qatlamga, polisemantizm, sinonim, antonim, istorizm, arxaizm, dialektizm, vulgarizm, evfemizm, toponim, antroponim singari leksik-semantik guruhlarga ajratildi va tahlil qilindi. Shuningdek, magistrlik dissertatsiyasida quyidagi ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi:

- “Shohrux Mirzo” romanidagi lugʻaviy vositalarning qoʻllanish xususiyatlari aniqlandi;

- yozuvchi Muhammad Alining temuriylar davri hayotiga bagʻishlangan “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida til vositalaridan foydalanish mahorati ochib berildi;

- “Shohrux Mirzo” romanida koʻp maʼnoli soʻzlarning, sinonim, antonimlarning qoʻllanish xususiyatlari yoritildi;

- yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” romanida istorizm, arxaizm singari funksional doirasi chegaralangan lugʻaviy birliklardan foydalanish mahorati aniqlandi;

- “Shohrux Mirzo” romani matnida vulgarizm, dialektizm, evfemizm kabi soʻzlashuv nutqiga xos leksik birliklarning personajlar nutqini individuallashtirishdagi roli koʻrsatib berildi;

- “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida toponim, antroponim singari onomastik birliklarning shakllanishi, grammatik strukturasi, yasaliş usullari va roman matnidagi vazifalari tahlil qilindi va hokazo.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, unda oʻzbek badiiy nutq uslubi uchun muhim muammolardan biri yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanidagi lugʻaviy vositalardan foydalanish mahorati oʻziga xos sistema sifatida talqin etildi. Shuningdek, ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati yana quyidagilar bilan belgilanadi:

- yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” romanida qoʻllangan lugʻaviy vositalar ilk marta uslubshunoslikning soʻnggi yutuqlari asosida oʻrganildi;

- kelgusida tuziladigan “Shohrux Mirzo” romanida qoʻllangan toponimlar va antroponimlarning izohli lugʻati”ning leksikografik asoslari aniqlandi va b.

- ishda olingan ilmiy natijalardan oʻzbek badiiy nutq uslubi, leksikologiyasi, leksikografiyasi kabi sohalarga doir oʻquv qoʻllanmalari, maʼruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

- tadqiqot natijalari o'rta maktab, litsey va kollejlarda yozuvchi Muhammad Alining badiiy til mahoratini, "Shohrux Mirzo" tarixiy romani poetikasini o'rganishda qo'shimcha material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Modomiki, talantli yozuvchi Muhammad Alining ikki kitobdan iborat "Ulug' saltanat" romani kitobxonlarning sevimli asarlaridan biriga aylangan, 2007 yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan ekan, bunday muvaffaqiyatda adibning tildan foydalanish mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Ulug' saltanat" tetralogiyasining to'rtinchi kitobi - "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida XV asr eski o'zbek tilining leksik me'yoriy tamoyillariga to'la amal qilingan. Bu romanda polisemantizm, o'xshatishlar, sinonim, antonim, arxaizm, istorizm, vulgarizm, dialektizm, toponim, antroponim singari lug'aviy vositalar asar matnini o'qimishli, ta'sirchan qilish va obrazlilikini oshirishga xizmat qiladi.

Ishning joriylanishi. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi va rejasi SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2015 yil 15 sentyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan. Tadqiqot materiallari asosida 1) Muhammad Alining "Shohruh Mirzo" tarixiy romanini sinfdan tashqari o'qish jarayonida interfaol usullar yordamida o'rganish (Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. 3-qism, Samarqand, SamDU, 2015, 4-6-betlar); 2) Muhammad Alining "Shohruh Mirzo" tarixiy romanini sinfdan tashqari o'rganish usullari (Amaliy fanlar bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilar ijodkorligining holati va uni yanada takomillashtirish yo'llari, Samarqand, SamVXTXQTMOI, 2016, 206-208-betlar); 3) Muhammad Alining "Shohruh Mirzo" tarixiy romanida leksik vositalarning qo'llanish xususiyatlariga doir (O'zbek tilshunosligi: taraqqiyoti va istiqbollari, Toshkent, Mumtoz so'z, 2016, 394-398-betlar); 4) "Shohruh Mirzo" tarixiy romani matnida antroponimlarning funksional-semantik xususiyatlari (Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar, Samarqand, SamDCHTI, 2016, 47-48-betlar); 5) Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida o'xshatishlar muhim uslubiy vosita sifatida (Til va adabiyot muammolari. 8-chiqishi, 1-kitob,

Samarqand, SamDU, 2016, 113-116-betlar); 6) “Shohruh Mirzo” tarixiy romanida onomastik birliklarning pretsedent nomlar sifatida qo‘llanish xususiyatlari (Onomastika (ilmiy maqolalar to‘plami), 4-son, Samarqand, SamDU nashri, 2016, 86-89-betlar), 7) Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida o‘xshatishlarning qo‘llanish xususiyatlariga doir (O‘zbek tilshunosligi – XXI asrda QarDU, 2017, 108-114-betlar) nomli ilmiy maqolalar e‘lon qilingan. Ishning ayrim natijalari SamDU magistrantlarining 2015 yilgi ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlari XV konferensiyasi (2016 yil 22 aprel, Samarqand shahri), SamDU magistrantlarining 2016 yilgi ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlari bo‘yicha XVI konferensiyasi (24 aprel 2017 yil, Samarqand shahri)da ma‘ruzalar qilingan.

Ishning hajmi va tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi 125 sahifani tashkil etib, ishning umumiy tavsifi, kirish, uch bob, “Umumiy xulosalar”, “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” va “Ilova” qismlaridan iborat. “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida qo‘llangan toponimlar, gidronimlar, antroponimlarning qisqacha alifbo ko‘rsatkichi magistrlik dissertatsiyasiga ilova tarzida keltirilgan.

2. YOZUVCHI MUHAMMAD ALINING FAOLIYATI

Ma'lumki, iste'dodli adib Muhammad Ali Andijon viloyatining Bo'z tumanida 1942 yilda dunyoga kelgan, o'rta maktabni 1959 yilda Bekobod tumanida tamomlagan. 1960 yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan Moskva shahridagi M.Gorkiy nomli adabiyot institutiga o'qishga yuborilgan. U 1966 yilda institutni tamomlab Toshkentga qaytib keladi va G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida muharrir bo'lib ishlay boylaydi. Keyinchalik u O'zbekiston televideniyesida bosh muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida badiiy tarjima va adabiy aloqalar markazining boshlig'i bo'lib ishladi.

Adib Muhammad Alining birinchi she'ri o'n besh yoshida vaqtli matbuotda e'lon qilingan edi. Uning birinchi kitobi "Fazodagi hislar" nomi bilan 1967 yilda nashr etilgan. Shundan keyin Muhammad Alining "Shafaq" (1968), "O'talar yurti" (1970), "Alvon chechaklar" (1973), "Dostonlar" (1974), "Ninachi haqida ertak" (1976), "Oq nur" (1977), "Ilhom parisi" (1980), "Sevsam, sevil sam" (1983), "Sen bir gulsan" (1989), "Ona duosi" (1994) singari she'riy kitoblari birin-ketin chop etildi.

Muhammad Alining "Boqiy dunyo" she'riy romanida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib Dukchi eshon voqealari qalamga olingan. 1990 yilda adibning "Sarbadorlar" tarixiy romani e'lon qilingan edi. Bu asarda XIV asrda Movaraunnahrda keng quloch yoygan sarbadorlar harakati epik ko'lamda tasvirlangan edi. Shoirning 1966 yilda e'lon qilingan "Mashrab" dostonida isyonkor shoir Boborahim Mashrab obrazi tasvirlangan, "Gumbazdagi nur" dostoni (1967)da esa yosh Amir Temur obrazi markaziy o'rinni egallaydi. "Sarbadorlar" romanida ham Amir Temurning obrazini yaratishga alohida ahamiyat berilgan.

Muhammad Ali publitsist sifatida "O'z-o'zingni anglab yet", "Haqiqatdan chekinma, tarix" kabi bir qancha esselar yozgan. Yozuvchining "Oshiq bo'lmay, Haq diydorin ko'rsa bo'lmas" nomli kitobi (1992)da ana shunday esse va maqolalari to'plangan. Muhammad Ali ijodida badiiy tarjima ham alohida o'rin tutadi. Hind eposi "Ramayana" (1978), qoraqalpoq eposlari "Shahriyor" (1977),

“Masposhsho” (1985), shuningdek Robert Byorns (1971), Galaktion Tabidze (1982) kitoblari uning tarjimasida o‘zbek kitobxonlari qo‘liga yetib bordi. Hind eposi “Ramayana”ni ham o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Hozirgi kunga qadar Muhammad Alining asarlari jahon xalqlarining 25 dan ortiq tillariga tarjima qilingan¹³.

Muhammad Ali adabiyotimiz rivojidadagi katta xizmatlari uchun 1992 yilda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan. Hozirgi paytda Muhammad Ali Amir Temur xalqaro jamg‘armasining raisi sifatida katta jamoatchilik ishlarini ham bajarmoqda. Jumladan, bu jamg‘arma 1996 yilda Amir Temurning 660 yilligiga bag‘ishlangan “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mavzuida xalqaro anjuman o‘tkazdi, shu yili AQSHda Vashington universitetida “Amir Temur oyligi” tashkil etildi, Muhammad Alining Amir Temur haqidagi ilmiy maqolasi AQSHda ingliz tilida nashr etildi. Ana shunday ishlar o‘z navbatida Muhammad Alini Sohibqiron Amir Temurning keng qamrovli epik obrazini yaratishdek ulkan niyatini amalga oshirishda katta yordam berdi¹⁴. Yozuvchi o‘zining to‘rt kitobdan iborat “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasini nashr ettirdi. Bu asarning birinchi kitobi “Jahongir Mirzo” deb nomlanadi va u 1996-1999 yillarda AQSHning Sietl shahrida hamda Toshkentda yozilgan, 2002 yilda bu asar alohida kitob holida “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan ko‘p ming nusxada nashr etildi. Bu kitobga taniqli adabiyotshunos olim, akademik Matyoqub Qo‘shjonov “Yozuvchi kamolotidan dalolat” deb nomlangan so‘ngso‘z yozgan edi¹⁵. O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov “Ulug‘ saltanat” asarini yuksak baholab, bu asar haqida “Shoir yozgan roman” sarlavhali mazmundor taqriz yozgandi¹⁶.

¹³Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари (XX аср ўзбек адабиёти). Ўқув қўлланма. – Тошкент: - Фан, 2007. – Б. 183-185.

¹⁴Муҳаммад Али. Европа манбаларида Амир Темур тавсифи // “Амир Темурнинг миллий давлатчилик сиёсати: тарих ва ҳозирги замон” мавзuidaги Амир Темур таваллудининг 670 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 58-60; Муҳаммад Али. Амир Темур чамани. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б. 131-146.

¹⁵Қўшжонов М. Ёзувчи камолотидан далолат (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Тарихий роман. 1-китоб. Жаҳонгир Мирзо. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2003. – Б. 328-333.

¹⁶Қодиров П. Шoir ёзган роман (“Улуғ салтанат” романининг 1-китоби ҳақида) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2003 йил, 24 октябрь.

Birinchi kitob bu yil (2001 yil – Ch.X.) “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qilinadi. Uni kitob tarzida chop etish “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi rejasiga kiritilgan. Romanning ikkinchi kitobi “Umarshayx Mirzo”, uchinchi kitobi “Mironshoh Mirzo”, to’rtinchi kitobi “Shohruh Mirzo” deb nomlanadi. Albatta, nomlar ramziy ma’noda shunday qo’yilgan, bosh qahramon esa hamma kitoblarda – Amir Temur sohibqironning o’zlaridir...”¹⁷.

Mamlakatimizda yozuvchi Muhammad Ali ijodini o’rganishga oid ayrim ilmiy-tanqidiy maqolalar yaratilgan. Ayniqsa, “Ulug’ saltanat” asari 2007 yilda O’zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo’lgandan keyin bu asar haqida matbuotda bir qancha muhim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qilindi. Shular orasida Gulbahor Yusupovaning maqolasi ¹⁸, T.Shirinov, M.Xolbekov, A.Berdimurodovlarning “Ulug’ saltanat shukuhi”¹⁹, tarix fanlari doktori Ubaydulla Uvatovning “Ulug’ saltanat talqini”²⁰, filologiya fanlari doktori, prof.H.Karimovning “Ulug’ saltanat” mohiyati” nomli maqolasi²¹, fan nomzodlari Islomjon Yoqubov va Muhayyo Ismoilovalarning “Buyuk mohiyat va munosib ifoda” nomli maqolalari²², filologiya fanlari doktori Yo’ldoshali Solijonovning yozuvchi Muhammad Ali ga yozgan “Olis tarixning iliq nurlari” nomli maktubi²³, I.Yoqubovning “Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon konsepsiyasi va liro-romantik talqin” nomli monografiyasi ²⁴, dots.Adhambek Alimbekovning “Sohibqiron siymosi”, prof.Nasimxon Rahmonovning “Tarixiy davr manzarasi”, Islomjon Yoqubovning “Tarixiy haqiqat va insoniy taqdirlar jozibasi” nomli

¹⁷Муҳаммад Али. Амир Темур чамани. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б. 158-159.

¹⁸Юсупова Г. Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004. № 1. – Б. 72-74.

¹⁹Ширинов Т., Холбеков М., Бердимуродов А. Улуғ салтанат шукухи (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2004 йил, 13 август.

²⁰Уватов У. Улуғ салтанат талқини (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2007 йил, 6 апрел.

²¹Каримов Х. “Улуғ салтанат” моҳияти (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Ўзбекистон овози” газетаси, 2007 йил 26 май.

²²Ёкубов И., Исмоилова М. Буюк моҳият ва муносиб ифода (Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” романи ҳақида) // “Маърифат” газетаси, 2007 йил, 16 май.

²³Солижонов Й. Олис тарихнинг илиқ нурлари (Муҳаммад Алига мактуб) // Солижонов Й. Мен сиздан сабоқ олдим (адибларга мактублар). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 45-53.

²⁴Ёкубов И. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. – Тошкент: Фан, 2007. – 80 б.

maqolalari²⁵ alohida o‘rin tutadi. Lekin shu kunga qadar “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi, jumladan uning yakunlovchi qismi - “Shohrux Mirzo” tarixiy romanining til xususiyatlari maxsus o‘rganilganicha yo‘q. Shunga binoan biz mazkur magistrlik dissertatsiyamizda “Shohrux Mirzo” asarida leksik vositalarning qo‘llanish xususiyatlarini o‘z imkoniyatlarimiz darajasida o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik. O‘zbek uslubshnosligiga oid tadqiqotlar, ayniqsa, I.Qo‘chqortoev²⁶, E.Qilichev²⁷, R.Qo‘ng‘urov²⁸, B.Yo‘ldoshev²⁹, T.Qurbonov³⁰ larning ilmiy ishlaridagi leksik vositalarning badiiy asarlarda qo‘llanish xususiyatlariga oid fikr-mulohazalar biz uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ishimizning dastlabki bobida “Shohrux Mirzo” romanida ko‘p ma’noli so‘zlar, sinonimlar va antonimlarning qo‘llanishiga oid masalalar yoritiladi, keyingi bobda esa romanda arxaizm, istorizm va dialektizm singari nafaol lug‘aviy qatlamga oid so‘zlarning qo‘llanishi, bu sohada yozuvchi Muhammad Alining mahorati masalalari o‘rganiladi. Dissertatsiyaning uchinchi bobida “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida toponim va antroponimlarning qo‘llanish xususiyatlari tahlilga tortiladi. Magistrlik dissertatsiyasining oxirida foydalanilgan ilmiy-nazariy, badiiy adabiyotlar, lug‘atlar, ishda qo‘llangan shartli qisqatmalar ro‘yxati berilgan. “Shohrux Mirzo” romanida qo‘llanilgan toponimlar, gidronimlar va antroponimlarning qisqacha alifbo ko‘rsatkichlari ishning oxirida ilova tarzida keltirilgan.

²⁵ Алимбеков А. Соҳибқирон сиймоси “Мироншоҳ Мирзо”да яна ҳам теранроқ очилган // “Зарафшон” газетаси, 2010 йил, 8 апрел; Раҳмонов Н. Тарихий давр манзараси (Муҳаммад Алининг “Мироншоҳ Мирзо” романи ҳақида) // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2011 йил, 7 январ, 2(4089)-сон, 3-бет; Ёкубов И. Тарихий ҳақиқат ва инсоний тақдирлар жозибаси // Жаҳон адабиёти, 2011. № 4. – Б. 191-195.

²⁶ Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент: ТошДУ нашри, 1975. – 82 б.

²⁷ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари, Тошкент, Фан, 1982. – 88 б.

²⁸ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 176 б.

²⁹ Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, СамДУ нашри, 1982. – 81 б; Йўлдошев Б., Шодиев З. “Уфқ” трилогиясининг лингвопозтик таҳлили масалалари. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 128 б.; Йўлдошев Б. Бадий асар тили масалалари (услубий қўлланма). – Тошкент: - Наврўз, 2016. – 128 б.

³⁰ Қурбонов Т. Тарихий бадий асар ва давр тили масалалари (Пиримкул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романи асосида). Монография. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 132 б.; Қурбонов Т., Худойбердиева М. Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва изоҳи масаласи (Пиримкул Қодировнинг “Юлдузли тунлар. Бобур”, “Хумоюн ва Акбар” романлари материаллари асосида). Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 79 б.; Йўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадий асар тили ва услуби масалалари (услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – 164 б.

**BIRINCHI BOB. “SHOHRUX MIRZO” ROMANIDA KO‘P MA’NOLI,
KO‘CHMA MA’NOLI SO‘ZLAR, O‘XSHATISHLAR, SINONIM VA
ANTONIMLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI**

**1.1. “Shohrux Mirzo” romanida ko‘p ma’noli so‘zlarning
qo‘llanishi haqida**

Badiiy matnda so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash imkoniyatlari juda keng bo‘lib, bu orqali badiiy matnda ifodalanayotgan fikr yanada teranroq anglashiladi. Bunday imkoniyatni yuzaga chiqarishda esa polisemantik so‘zlarning o‘rni benihoya kattadir.

Bunday vositalar, adabiyotlarda aytilishicha, ko‘z oldimizda, avvalo, ona tilimizning keng jabhadagi semantik uslubiy rang-barangligini badiiy adabiyot orqali namoyish qila oladigan imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi. So‘zlar, umuman til birliklari bunda g‘ayriodatiy qurilishlarda qo‘llanilib, masalan, ma’nolar bir-biriga zid, yoki aksincha, ma’nolari bir-biriga yaqin ifodalar qarama-qarshi tarzda ishlatilib, favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratiladi.

Badiiy asar matnida ifoda tasvir vositalarining qo‘llanilishi, umuman, badiiyatdan, qolaversa, shoir yoki yozuvchining ijodiy mahoratidan kelib chiqadigan zarurat mahsuli³¹ ekanligi aytib o‘tiladi.

Darhaqiqat, tilimizda ko‘pma’nolilikning mavjudligi nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashadi. Matnga kontekstga ko‘ra ko‘p ma’noli so‘z muayyan bir nutqda o‘zining aniq bir ma’nosi bilan reallashadi, ya’ni uning ko‘p ma’noliligi fikrning yanglish anglanishiga olib kelmaydi. Aksincha, ayniqsa, badiiy nutqda ko‘p ma’nolilik o‘ziga xos ifodalilik vositasi sifatida xizmat qiladi.³² Buni esa yozuvchi Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining to‘rtinchi kitobi “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida polisemantik so‘zlarning qo‘llanilishi asosida ko‘rib chiqamiz:

*G‘animlarning kuni tug‘adi. Bari uyasidan boshini chiqarolmay yotgan
ilonday poylab turishibdi (Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Epopeya. To‘rtinchi*

³¹Каримов С.А. Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – 72 б. 64-бет.

³²Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: - Маънавият, 2002. – 80 б. 23-бет.

kitob. “Shohrux Mirzo”. 135-bet. Keyingi misollarda ushbu kitobning faqat sahifasi ko‘rsatiladi).

Bu misolda yozuvchi dushmanlarning omadi kelishini “kun” polisemantik so‘zi bilan izohlamogda. O‘TILda bu so‘zning yettitadan ortiq ma‘nolari berib o‘tiladi³³ ularning aksariyati ko‘chma ma‘nolarda ishlatiladi.

Dodxoh Amir Temurning nimadandir ko‘ngli xiraligidan taajjublandi. (206-bet). Bu misolda Amir Temurning ruhiy holatini tasvirlashda “xira” polisemantik so‘zidan ko‘chma ma‘noda foydalanilmoqda. O‘TILda “xira” so‘zining sakkizdan ortiq ma‘nolari qayd etilgan bo‘lib, ulardan to‘rttasi ko‘chma ma‘noda ekani ko‘rsatiladi.³⁴ Bu yerda xira so‘zi kishini xursand qilmaydigan, ko‘ngli g‘ash, notinch ya‘ni ravshan emas ma‘nosida ishlatilmoqda.

-Amir Sohibqiron aytadilarki, kecha qattiq jang kechdi, qirg‘inning oldini olish imkoni topilmadi, ko‘p sa‘y-ko‘shish etduk, ammo shomliklar aslo sulhga yon bermadilar, baloni o‘zlariga tilab oldilar (213-bet).

“Yon” so‘zi ham polisemantik so‘z hisoblanib, uning nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda bir necha ma‘nolarda ishlatiladi. Bu yerda esa taslim bo‘lmaslik, rozi bo‘lmaslik ma‘nolarida qo‘llaniladi. Yon bermaslik – bir tarafni mahkam tutib turish yoki bir tomonni bermaslik kabi.

Axiy Jabbor bahodir Sultoniyanadan uzoqlashib ko‘zlangan manzilga yaqinlashgani sari dardi yengillashmas, balki og‘irlashib borardi. Sababi, uning qo‘ynida o‘sha zilday yuk “maktub”! U uxlaganda ham, turganda ham uni doim yonida saqlashi, sohibiga yetkazishi kerak, u podsho maktubi!(55-bet).

Boshqa tomondan, maktubni o‘qigach, Sohibqiron Axiy Jabborga: “Hali sen, tap tortmay ko‘ngilga , izza yukini ortmoqlab, shuncha yo‘ldan shunday tavqi la‘natni ko‘tarib keldingmu? Uyalmadingmu?.... Suf senga!”- demaydirlarmu?(56-bet).

³³Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б. 428-429 бетлар.

³⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б. 399-бет.

Bu yukni ko'tarmak og'irdur... eplay olarmikanmiz, Amir Sohibqiron?... Ulug' saltanatning hayratangiz manzaralarini chizmakka qalamimiz kuchi yetarmikin? (210-bet).

Muhammad Sulton malikaning yukli ekanini nazarda tutib, ayyorona jilmaydi: Shundog'mu? Hmm... Hali chaqalog'imiz yo'q... Xudo xohlasa, eshitib ko'rg'oybiz... (92-bet).

“Yuk” polisemantizmining ko'chma ma'nosi O'TILda kishini tashvishga soladigan, urintirib qo'yadigan muammo, ish ma'nolarida qo'llanilgan³⁵ bo'lib, yozuvchi undan “maktub”ning naqadar “zalvorli yuk” ekanini, ikkinchi misolda “izza bo'lish” salbiy tuyg'usini inson uchun qanchalik og'ir “yuk” ekanini, uchinchi misolda esa, kitob yozish naqadar qiyin ish ekanligini, uning “yuki og'ir” ekanini, to'rtinchi misolda homilador ayolga nisbatan, uning “yuk”i bor ekanini ifodalash uchun foydalanmoqda. Bu polisemantik so'zning misollarda to'rt xil ko'chma ma'nosi izohlanmoqda.

Borib birma-bir nazardan o'tkazamen. Ariqlar, hovuz suvlarini yangilasunlar, xonalarni bir-bir qarab chiqsunlar, yo'laklar chinniday toza bo'lsin. Shahzodamning ko'ngillari nozik... (28-bet).

“Nozik” so'zining O'TILda o'n uch xil ma'nosi keltirilgan. Shulardan beshtasi ko'chma ma'noda qo'llanilishi aytib o'tiladi.³⁶ Badiiy matnlarda ham bu so'zning o'z ma'nosidan ko'ra ko'proq ko'chma ma'nosi ishlatiladi. Parchada bu so'z shahzodaning ko'ngli har narsani yoqtiravermaydigan, xushlamaydigan, injiq tabiatga ega ekanligini ifodalash uchun qo'llanilmoqda.

Amir Sohibqiron xayolga cho'mdi, uning ikkilangani bilindi. Chunki, oldinda Xitoy safari kutmoqda, aslidaku, Eron yurishidan keyinoq o'sha yoqqa o'tlanish mo'ljalda bor edi. Xitoy safari katta ma'raka. Katta ma'rakalar arafasida kichiklari ketga suriladi (37-bet). “Ma'raka” so'zining O'TILda to'rt xil ma'noda qo'llanilishi aytib o'tiladi. Birinchisi: motam marosimlarining yig'indisi yoki

³⁵Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 79-бет.

³⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 687 б. 49-50-бетлар.

ularning har biri, ikkinchisi: to'y, tomoshalar munosabati bilan bo'ladigan yig'in, uchinchisi: jang maydoni yoki jang, to'rtinchisi: siyosiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan biror ishni amalga oshirish uchun o'tkaziladigan yalpi harakat.³⁷ Bugungi kunda bu so'zning faqat tor doirada, ya'ni ko'proq birinchi va ikkinchi ma'nolarida qo'llanilishi ma'lum. Lekin muallif asar matnida bu so'zning arxaiklashgan to'rtinchi ma'nosini qo'llab, asarga mana shu so'z orqali ham tarixiylik bo'yoqlarini bermoqda.

- *Podsholiq chamanining guli, jahon shahzodasi valiahd Muhammad Sulton tashrif buyuradilaar! - eshikog'aning chertib-chertib aytgan so'zlari xonani jaranglatib yubordi. Amir Temur beixtiyor o'rnidan turmoqqa taraddudlandi (39-bet).* Bu misolda "gul" polisemantizmi qo'llanilgan bo'lib, bu so'zning O'TILda yettidan ortiq ma'nolari keltirilgan bo'lib, shulardan uchta ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi ayib o'tiladi. Yana uchta shu so'z bilan bog'liq iboralar ham keltirib o'tiladi. Misolda keltirilgan "guli" polisemantizmi egalik qo'shimchasi bilan birga kelib, "eng yaxshisi, sarasi" degan ma'nolarni anglatadi. Bu polisemantizmning ibora shaklida qo'llanilishi ham aytib o'tiladi.³⁸

- *Ha, saroy dunyoda o'xshashi yo'q bir bemisl saroy bo'lmoqdaki, ta'riflash mushkul. Unga boqib, faqat tomosha aylamoq, Olloh bandasining qo'li chindanda gul ekaniga takror-takror iymon keltirmoq mumkin xolos.(19-bet).* Misolda keltirilgan "qo'li gul" birikmasi mohir usta, hunarmand, mislsiz binolarni qurishga qodir kishi ma'nolarini ifodalashga xizmat qilmoqda. Yozuvchining nafaqat ko'p ma'noli so'zlar, balki bir ma'noli so'zlardan ham yangi ma'no yaratish mahorati bor ekanini asardan olingan quyidagi parcha orqali ko'rib o'tamiz:

Valiahd katta bo'lib qolganini bo'rttirish uchun o'zini beparvoroq, vazminroq tutishga tirishar, Sohibqironning esa tomog'iga nimadir tiqilib kelar, dushmanlar

³⁷Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б. 566-бет.

³⁸Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 678 б. 516-бет.

lashkarlarini titratgan sarkarda quvonch tuyg'ulari qo'shini oldida ojiz edi. (40-bet).

O'TILda "qo'shin" so'zining faqat bir ma'noda, qurolli kuchlar majmui yoki uning bir qismi sifatida tilga olinadi.³⁹ Asarda esa, bu so'zning ko'chma ma'noda qo'llanilib, uning "quvonch tuyg'ulari qo'shini"ga nisbatan ishlatilganini ko'rish mumkin. Bu esa asarning yanada ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilganini ko'rib o'tishimiz mumkin.

O'ahu... hammasi yodingizda ekan, qoyil!-ba'zo'r jilmayishga tirishdi Axiy Jabbor bahodir, "Baridan xabarim bor, jigarim. Ikkisi ham qo'limda jon berdiku!" - deyishiga oz qoldi va tezroq mavzuni o'zgartirmasa, Kaltatoy ancha o'tlab ketishi mumkinligini payqadi (60-bet). "O'tlamoq" fe'lining O'TILda faqat ikki ma'nosi borligi va shundan biri ko'chma ma'noda qo'llanilishi aytib o'tiladi.⁴⁰ Parchada ham bu so'zning ko'chma ma'nosi qo'llanilib, fikrning obrazli tarzda ifodalanishini ta'minlamoqda.

Asarning ta'sirchanligini oshirishda nafaqat polisemantik so'zlar balki, ko'chma ma'nodagi iboralar ham qo'llanilgan bo'lib, uni asardan olingan quyidagi parcha orqali ko'rib o'tamiz:

Xudo niyatimga yetkazdi, pirimning vafotlarigacha yonlaridan jilmadim, eshiklarini supurdim, bog'da ter to'kdim, yelib-yugurdim, issiq-sovuqlariga qaradim, duolarini oldim (61-bet). Misoldagi oltita ibora personaj nutqini qisqa, lo'nda va aniq ifodalash uchun xizmat qilib, ortiqcha ko'p so'zlikdan, bu orqali esa kitobxonni asar matnini o'qishdan zerikmasligini ta'minlamoqda. Quyida yana shunga o'xshash misolni ko'rib o'tamiz:

Mushtipar Xonzoda xonim eshitib qanday holga tushdilar ekan? Bechora malika! Oqqiz, malikamga bu mash'um xabarni bildirmayman, ayashim kerak, sirni yashirishim lozim, o'zlarini bir narsa qilib qo'yadilar, degandi. Lekin, ayol kishida, ko'ngli yumshoq, og'zi bo'sh, aytmalik qo'lidan kelarmikin?... (55-bet).

³⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 419-бет.

⁴⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 419-бет.

Misoldagi “yumshoq” va “bo’sh” polisemantik soʻzlari “ko’ngil” va “og’iz” soʻzlariga qo’shib yangi ko’chma ma’noli soʻz birikmasi hosil qilmoqda. “Bo’sh” soʻzining O‘TILda o’n bitta ma’nosi keltirilgan bo‘lib, shulardan uchta ko’chma ma’noda kelgani aytib o‘tiladi.⁴¹ Badiiy matnda ham bu soʻzning ko’chma ma’nolari ko‘proq ishlatilgan. “Yumshoq” soʻzining esa O‘TILda olti xil ma’nosi borligi va shundan uchta ko’chma ma’nolarda qo‘llanilishi aytib o‘tiladi.⁴² Badiiy matnda bu soʻzlarning ko’chma ma’noda qo‘llanilishi asarning ta’sirchanligini va o‘qishligini ta’minlovchi vosita sanaladi.

Xudoyidan keyin ikki do’stning gurungi xiyla davom etdi. Kaltatoy piring xislatlaridan soʻz ochdiyu suhbat qizidi (62-bet).

Hech kim tin bilmadi, askarlar qolib, beklarning oʻzlari ham zambar ko’tarib, g’ishtu loy tashidilar. Ish qizigandan qizidi (21-bet). Ikkita misolda keltirilgan “qizidi” soʻzi asosan ko’chma ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, O‘TILda bu soʻzning to‘rtta muhim ma’no guruhlariga berib o‘tiladi.⁴³ Shulardan to‘rtinchi ma’nosi bu soʻzning ko’chma ma’nosi hisoblanadi. Asarda ham bu soʻzning faqat ko’chma ma’noda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin.

Bahodirning boshi qotgandan qotdi. Xo’sh... maktubni borib Sohibqironga topshirdi ham deylik. Amir Sohibqiron maktubni o‘qiganlaridan keyin, chindan ham yo‘lni Sultoniyaga bursalar kerak. G‘azablanishlari aniq! Bunga aslo shubha yo‘q! Keyin... keyin... U yog‘ini, yaxshisi, o‘ylamagan ma’qul... Olam ostin-ustin bo‘ladi, tamom, vassalom! (63-bet). Asardan olingan ushbu parchada ikkita ko’chma ma’noda qo‘llanilgan birikma mavjud bo‘lib, ularning O‘TILda quyidagicha ta’rifi beriladi: “qotmoq” soʻzining o’n xil ma’nosi bo‘lib, shulardan beshtasi ko’chma ma’noda qo‘llaniladi.⁴⁴ “Ostin-ustin” soʻzining esa ikkita

⁴¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 678 б. 421-422-бетлар.

⁴² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 85-бет.

⁴³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 278-бет.

⁴⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 347-348-бетлар.

ma'nosi bo'lib, ularning biri ko'chma ma'noda qo'llanilishi aytib o'tiladi.⁴⁵ Ko'rinadiki, yozuvchi bu so'zlarning ko'chma ma'nosida qo'llagan va asarning ta'sirchanligini oshirgan.

Kitob sodda bitilsun. So'zlari shaffof, mazmuni tiniq chiqsun. Ravon o'qilsun. (209-bet).

Nogahon uning shuuri tiniq tortdi! U tushida ilonni burdalayapman deb, qo'ynidagi Mironshoh Mirzoning Amir Temurga yozgan, o'sha Sultoniyanning Bog'i Eramidagi ziyofatda kalta soqolli munshiy horg'in ovozda o'qib bergan, hammani lol etib qo'ygan naychasimon maktubni yirtib-yirtib tashlagan ekan...(66-bet). "Shaffof" so'zi O'TILda asosan shisha buyumlarning xususiyatini izohlash, uning toza va tiniq ekanligini ifodalash uchun ishlatilishi ko'rsatilgan.⁴⁶ Lekin yozuvchi uni kontekstda yangi ma'no qirrasini ochib, unda "so'z"ning xususiyatlarini ochishga harakat qilmoqda. "Tiniq" so'zi ham xuddi shunday O'TILda xiralikdan, chang va g'ubordan holi ma'nosidan tashqari "aniq ifodali, ravshan" ma'nolarida ham ishlatilishi aytib o'tiladi.⁴⁷ Misolda ham Bahodirning shuuri aniq tortgani, barcha narsa unga ma'lum bo'lganini shu polisemantizm orqali ifodalanmoqda.

Vodarig'! Agar shakkok amirzodaning o'z xatosini tan olganini eshitsa, bahodir mayli, hamma jazoga, sharmisorliklarga chidashga, tavqi la'natlarni o'z bo'yniga ilishga rozi edi!(69-bet). "Ilmoq" so'zining ham O'TILda bir necha xil ma'nolari bo'lib, ular asosan o'z ma'nosida qo'llanilishi ko'rsatilgan.⁴⁸ Misolda esa bu so'zning ko'chma ma'nosi qo'llanilib, Bahodirning ruhiy holati va ichki kechinmalari yorqinroq tarzda berilmoqda.

1.2. "Shohruh Mirzo" romanida metafora va metonomiya tasviriy vositalarning qo'llanish xususiyatlari.

⁴⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 3-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 687 б. 149-бет.

⁴⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 4-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б. 556-бет.

⁴⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 4-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б. 101-бет.

⁴⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 2-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б. 196-бет.

Ma'lumki, tilshunoslikda metafora bo'yicha anchagina tadqiqotlar olib borilgan. Biz yozuvchi Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida qo'llanilgan metaforalar tahliliga o'tishdan oldin, ularning qisqacha talqinini berib o'tamiz.

Manbalarda yozilishicha, nutqqa obrazlilik va emotsiya (turli his-tuyg'ular) berish uchun narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan holda, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda qo'llanilishiga metafora deyiladi.⁴⁹ Metafora – yunoncha so'z bo'lib ko'chish, ko'chirish degan ma'noni anglatadi. Bir predmetdagi tashqi belgining boshqa bir predmetdagi belgiga o'xshashligiga ko'ra so'z ma'nosining ko'chirilishi *metafora usulida ma'no ko'chishi* deyiladi. Masalan, odam, hayvon va boshqa turli jonvorlarning ko'rish a'zosi *ko'z* so'zi orqali ifodalanib, u tashqi belgilariga ko'ra aylana shakldaligi, yaltiroqligi bilan xarakterlanadi. Shunga qiyosan boshqa narsa va predmetlarda tashqi shakli va belgisi jihatidan shunga o'xshash shakl va belgilar bo'lsa, shu narsa yo uning biror qismi shu nom bilan ifodalanadi: *buloqning ko'zi, uzukning ko'zi, ignaning ko'zi* va shu kabilar. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, metafora usulida ma'noning o'zgarishida "ko'rish" tushunchasi tasavvur qilinmaydi, balki faqat tashqi belgilar asos qilib olinadi.⁵⁰

Metaforalar haqida professor R. Qo'ng'urovning "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida shunday yoziladi: "Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Lekin u oddiy o'xshatishdan farq qiladi. Agar jddiy qiyos ham doim asosiy ikki qismdan tashkil topsa (ya'ni nima qiyos qilinadi, nima bilan qiyos qilinadi – qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi a'zo – o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushiriladi, lekin u kontekstdan ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan narsa yoki hodisa ana shu ikkinchi qism orqali idrok qilinadi".⁵¹

⁴⁹Матжанов И. Юристнинг нутқ маданияти. Маърузалар матни. -Қорақалпоғистон: Қорақалпоқ ДУ, 2009. 66 б. 31-32-бетлар.

⁵⁰Омонтурдыев А., Раймназарова Н. Ҳозирги о'zbek адабий тили. -Termiz: TerDU, 2010. - 136 б. 84-85-бетлар.

⁵¹Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: - Маънавият, 2002. – 80 б. 68-69-бетлар.

Metaforaning nutqda qay darajada uslubiy vazifa bajarishi bevosita shu ko‘chim uchun asos bo‘layotgan o‘xshashlikning mohiyati bilan ham bog‘liqdir. Metaforalar ochiq o‘xshatish natijasida vujudga kelsa, u asosan, nominativ vazifani bajaradi. Shuningdek, metaforalar nutqda leksik vositalarni tejash vazifasini bajaradi. Masalan, ohu ko‘z, marmar bilak metaforik birikmalari ohu ko‘ziday chiroyli ko‘z, marmarday oppoq bilak ma’nolarini ifodalaydi. Demak, ushbu ma’nolarni metaforik ifodalash natijasida ko‘ziday, chiroyli, oppoq so‘zlarining qo‘llanilmasligi sababli ma’lum miqdorda nutqning ta’sirchanligini kuchaytirganligini sezish mumkin.⁵²

Metaforalar yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romani matnida ham uchraydi. Xususan, asardan olingan ushbu parchaga e’tibor qarataylik:

Malikalar Xalil Sultonning xursandchiligi boisi baytda shama qilingan “turki pari”ga ulanganini tuydilar, ammo kim ekanini bilolmadilar, chunki Xalil Sulton ortiq yorilmadi (371-bet). Misolda keltirilgan “turki pari” metaforasi tarixiy asar matniga mos istorik metafora deyish mumkin. Bu yerda Amirzoda Xalil Sultonning xursandchiligi aslida “turki paridek go‘zal qiz”ga ulangani haqida fikr yuritilmoqda. Bu xususiy-muallif metaforasi badiiy asar matnida estetik qimmatga ega ekani bilan ahamiyatlidir. Asarda uchraydigan yana bir shunday matnni tahlil qilamiz: “...birov boqsa tanimas darvish qiyofasida, (o‘xshash kiyingan Muhammad Churog‘a dodxoh uzoqdan kuzatib yurardi) pinhona uch kun Samarqand bozorlarini aylandi, charchadim demadi. “Bozor - bir ko‘zgu, - derdi Sohibqiron. Unga boqib, el-ulus turmushini aniq bilib olg‘aymen.” “Darvishlar” ko‘p narsalarni taftishdan o‘tkazdilar, narx-navo bilan qiziqdilar (496-bet)”. Parchada keltirilgan “darvishlar” metaforasi ham xususiy-muallif metaforalari sirasiga kirib, tarixiy-badiiy asar matniga istorik koloritni berish uchun muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Qolaversa, yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu

⁵²Матжанов И. Юристинг нутқ маданияти. Маърузалар матни. -Қорақалпоғистон: Қорақалпоқ ДУ, 2009. 66 б. 31-32-бетлар.

metafora leksik vositalarni tejash uchun ham ishlatilmoqda. Chunki bu yerda “darvish**day** **kiyingan** **kishilar**” ma’nosi anglashiladi.

Badiiy matnda xususiy-muallif metaforalarining qo‘llanilishi asosan estetik maqsad, ya’ni borliqni tasvirlashda o‘zining subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda narsa va hodisalarni nomlash asosida yuzaga keladi.

Asarda nafaqat xususiy-muallif metaforalari, balki, an’anaviy metaforalardan ham unumli foydalanilgan bo‘lib, ularni asardan olingan quyidagi parchalar orqali ko‘rib, tahlil qilamiz:

Amir Temur hech yon bermas edi. Saroymulixonim nahotki o‘ylab qo‘ygan so‘nggi chorasini qo‘llasa? Sohibqiron farzand desa, jonini fido etishga tayyor zotdurlar, farzandlarga asru shafqatlari beqiyosdur, shu fazilatlaridan foydalanishim joiz. Mana, asov otni sovutishga munosib chora! Boshqa iloj yo‘q... (494-bet). Misolda qo‘llanilgan “asov ot” metaforasi an’anaviy bo‘lsa-da, undan muallif mohirona foydalangan holda kontekstdagi boshqa so‘zlarning yangi ma’no nozikliklarini ochishga xizmat qilmoqda. Ya’ni Sohibqiron o‘z xatti-harakatlari bilan xuddi asov otdek Saroymulxonimga yon bermayotgani metaforik tarzda ifodalab berilmoqda.

-Burgut – Amir Sohibqiron, lochinlar esa dushmanlardir. Dushmanlar hamisha mana shu lochinlarday qochib jon saqlaganlar (503-bet). Bu misolda ham an’anaviy metaforalar qo‘llanilgan bo‘lib, muallif ularni bir gapda bir-biriga zid qo‘llash orqali ham obrazlarning yaqqol farqini ajratib, asarning emotsional-ekspressivligini oshirishga erishgan.

-Shundog‘, shundog‘! Ha-ha, xudoning buyurg‘oniga qanoat etmay, bir-birini chaqishga moyil juda ko‘p ilonu chayonlar ildizini ayovsiz qurutdim! Qo‘ymadimkim, biron bechora zolimning zulmidan ozor yesun (520-bet). Bu parchadagi “ilonu chayonlar” metaforasi ham an’anaviy, lekin bundan ham muallif kontekstda o‘ziga xos ekspressivlikni ta’minlovchi vosita sifatida foydalana olgan. Bundan tashqari, bu metafora parchadagi leksik vositalarning tejalishiga, fikrning qisqa, lo‘nda, aniq ifodalanishiga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan an'anaviy metaforalar orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqin aks etmoqda. Ya'ni, parchada ot, ilon, chayon kabi hayvonlarning nomlari bilan bog'liq bo'lgan ot leksemalar borki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda qo'llanilib, otning baquvvat va bo'ysunmasligi, ilon va chayonning zahri borligi va u inson hayoti uchun o'ta xavfliligi kabi tipik xususiyatlari boshqa shaxs va narsalarga nisbatan metaforik usulda ko'chirilgan, natijada konnotativ ma'no yuzaga kelgan hamda matnning ta'sirchanligini oshirgan. Xuddi shunday an'anaviy metaforalarning tahlilini ko'rishda davom etamiz:

Lekin vaqtlar kelib, yaxshilikka qaytgan yomonlikdek, o'zi qutqarib qolgan kanizak uning, nafaqat uning, balki ulug' saltanatning boshiga ham qora kunlar solishini zinhor o'ylamasdi (495-bet). Parchadagi an'anaviy "qora kunlar" metaforasi ilgaridan ko'p ishlatilib kelingan bo'lsa-da, kontekstdagi boshqa so'zlarning ma'nosini kitobxonga to'liqroq, aniqroq yetkizish uchun qo'llanilmoqda va shu orqali tarixiy asar matniga emotsional-ekspressiv bo'yoqlarni bermoqda.

Ajabtovur bejamali zardo'zi kashta osilgan, munaqqash qubbali baland eshigi tepasida zarhal uch halqasi yarqiragan saltanat bayrog'i mag'rur hilpiraydi (502-bet). Bu parchadagi "mag'rur" metaforasi asar matnida o'ziga xos subyektni ifodalayotgani bilan ahamiyatlidir hamda gapdagi ortiqcha leksik vositalarning qo'llanilishi va kitobxonni asardan zerikishi kabi holatlarni, ko'p bayonchilikni bartaraf etish funksiyasini bajarmoqda.

-Qutlaymiz! - dedi Sohibqiron Shohrux Mirzoga. – Siz Xurosonda suyanchig'imsiz, o'g'lim, o'zim Hirotdan jilmasligingizni buyurdim, o'zim! Zero Tabrizdagi, Sherozdagi, Bag'doddagi amirzodalar sizning qudratingiz taftidan bahra olib tururlar... (513-bet). Bunda "suyanchiq" metaforasi orqali Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzo nazarda tutilmoqda. Bu orqali esa matnda "suyanchiqdek o'g'limsiz" degan ma'no ifodalanmoqda. Bu metafora ham asar matniga mos tushgan.

Falak naqqoshi qosh emas, balki o‘z qalamini ehtiyotkorona ikki bor yuritib, ikki hilolni hadya etgan (45-bet). Bu misolda “hilol” metaforasi orqali ayollarning qoshi (hilolday qosh) nazarda tutilmoqdaki, bu matnda tushunchani ham obrazli ifodalab, ham bir so‘zni noo‘rin qaytarishini cheklamoqda.

Ha, rost aytasiz, tilla yigit, yigitlarning tillasiydi. Ollohning buyurgani shu ekanda, jannatdan joy ato etsin! Axiy Jabborning dili uvishdi (59-bet). “Tilla” metaforasi orqali kishiga nisbat berilib, uni yigitlarning eng yaxshi, eng sarasi, bebahosi ekanini mana shu birgina so‘z orqali obrazli tarzda berilib o‘tilmoqda. Bunda predmetning sifat jihati asos qilib olingan.

Lekin padari buzrukvoriga nisbatan shuncha zahar-zaqqumni ichida saqlab yurgani, oxiri chiday olmay oshkora maktubga to‘kib solgani, loaqal yozdirayotganda munshiydan izo tortmagani unga qattiq botdi (54-bet). Misolda “zahar-zaqqum” metaforasi orqali so‘z nazarda tutilmoqda, ya’ni Mironshoh Mirzo otasiga nisbatan ichida “zahar-zaqqumday so‘zlarni” saqlab yurgani nazarda tutilmoqda. Bu metafora orqali asar matniga obrazdagi salbiy bo‘yoqdorlikni berish uchun foydalanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida qo‘llanilgan metaforalar asar matniga emotsional-ekspressivlik berib, uning ta’sirchanligini oshirgan. Asarda xususiy-muallif metaforalaridan, qolaversa, an’anaviy metaforalardan ham unumli foydalanilgan.

Ma’no ko‘chishining turlaridan yana biri bu metonomiyadir. Metonomiyaga adabiyotlarda quyidagicha ta’rif beriladi: Metonomiya grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘zgacha nomlash”, “boshqa narsa orqali atash” degan ma’nolarni anglatib, bu usulda ma’no ko‘chganida narsa-hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.⁵³ Qolaversa, metonimiya usulida so‘z ma’nosining ko‘chishida faqat narsalar qayta nomlanib qolmasdan, narsalar haqidagi tushunchalar ham o‘zgarishi mumkin ekan. Shu jihatiga ko‘ra ham metonimiya metaforadan farqlanadiki, metaforada *odamning qulog‘i* va *dutorning qulog‘i* birikmalaridagi quloq so‘zi ham shakl, ham tushuncha holida saqlanadi. *Bu auditoriya ancha faol* gapida auditoriya (xona) –

⁵³Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Маърузалар матни. -Андижон: АНДУ, 2000. 139 б. 43-45-бетлар.

shu xonadagi talabalar bilan (qiyoslang: auditoriya – talabalar), ya’ni xona (predmetlik) tushunchasi talabalar (shaxs) tushunchasi bilan almashadi – qayta nomlanadi.⁵⁴ “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari” kitobida esa metonomiya hodisasi haqida shunday fikrlar bildiriladi: “Garchi grekcha soʻz boʻlgan “metonimiya”ning asl mazmuni boshqacha nom berish degan ma’noni bildirsa-da, bu hodisa nutq jarayonida qaysidir bir a’zoning, ammo eng muhim a’zoning tushib qolishi asosiy xususiyatday seziladi. Biroq, muhimi shundaki, bu tushib qolgan soʻzning ma’nosi nutqda u bilan yonma-yon kelgan soʻzga koʻchadi va undan bimalol anglashilaveradi.”⁵⁵

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda bu hodisa haqida quyidagicha xulosa chiqaramiz: metonomiya yangi nom qoʻyish, nomini oʻzgartirish, qayta nomlash degani ekan, unda soʻz ma’nolarining narsa va hodisalarning ichki va tashqi oʻxshashlik belgilariga koʻra emas, balki yuqorida aytganimizdek, ularning oʻrin va paytga, zamon va makonga hamda boshqa munosabatlarga koʻra oʻzgarishi va soʻz ma’nosining koʻchishi *metonimiya usulida ma’no koʻchishidir*.⁵⁶ Metonomiya asosida ma’no koʻchishi yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida ham uchraydi. Ularning ayrimlarini koʻrib oʻtamiz:

Axiy Jabbor bahodir tishining oqini koʻrsatardiyu ichini it timdalardi, zalvorli yuk yelkasidan ezib kelar, uni dast otib yuborishning esa hech imkoni topilmasdi (62-bet). Bu misolda qoʻllanilgan metonomiya Axiy Jabborning ichki kechinmalari va ruhiy holatini yanada aniqroq tasvirlash uchun qoʻllanilmoqda. Ya’ni “tishining oqini koʻrsatmoq” birikmasidan “kulmoq”, “jilmaymoq” soʻzlari ma’nosining salbiy boʻyoqdorlikka ega boʻlgan varianti sifatida foydalanilmoqda.

Ikkinchi oshyonadagi katta koʻrinishxona tomonga oʻtayotganlarida hovlining chapidagi daraxtlar tagida soʻrida oʻltirgan mashshoqlar mehmonlar sharafiga “Ushshoq”ni boshlab yubordilar (92-bet).

⁵⁴ Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. -Termiz: TerDU, 2010. 136 b. 83-88-betlar.

⁵⁵ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – 72 б. 28-бет.

⁵⁶ Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. -Termiz: TerDU, 2010. 136 b. 83-88-betlar.

Haligi “Fotihiy zarb”ni bastalag‘on Xoja Marog‘iymu?.. - so‘radi Amir Temur kelinining so‘zini kesib (119-bet).

Bu parchalarda “Ushshoq” va “Fotihiy zarb”, ya’ni, kuyning nomlari metonomiya bo‘lib kelmoqda. “Ushshoq” **kuyini** boshlab yubordi” emas, “Ushshoq”ni boshladi. Metonomiya ham xuddi metaforalar kabi nutqda ortiqchalikni, ko‘p so‘zlilikni cheklaydigan uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Qolaversa, oldindan ma’lum narsalarning nomlariga qo‘shib ta’rif berish ham kitobxonni zeriktirib qo‘yishi tabiiy. Bunday paytda esa metonomiyadan foydalanish yozuvchi uchun ham, kitobxon uchun ham ayni muddao deb aytish mumkin. Lekin shunday holatlar borki, asarda laqablar ham metonomiya hodisasi sifatida kelib, salbiy bo‘yoqlarni ifodalash uchun qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin:

Sultonning bir davrada o‘z yaqinlariga aytgan: «Men bu oqsoqdan qo‘rqmayman, chunki barcha podshohlar unga qarshi meni qo‘llab-quvvatlaydurlar (113-bet). Bu misoldagi “oqsoq” metonomiyasi Misr azizi sulton Barquqning Sohibqiron jangda oyog‘idan qattiq lat yeb, bu narsa uning sog‘lig‘iga biroz salbiy ta’sir etganidan foydalanib, Amir Temur ismini qayta nomlaganidir. Yana bir parchaga e’tibor qaratamiz:

Uning nolalarini nainki Sohibqiron, katta malika, Samarqand, Xorazm, balki jumla jahon eshitmog‘i kerak aslida! (114-bet). Bu misolda joy nomlari orqali ma’no ko‘chish hodisasi ro‘y bermoqda. Ya’ni bunda, Xonzoda xonim ovozini “Samarqand, Xorazm va butun jahondagi **odamlar** eshitmog‘i kerak” degan mazmun anglashilmoqda. Bu metonomiyani qo‘llash orqali esa asarning ta’sirchanlik doirasi yanada oshganini ko‘rishimiz mumkin. Chunki “butun jahon” deganda faqat unda yashovchi insonlar emas, balki, butun mavjudotlarni tushunish mumkin. Bu esa Xonzoda xonimning ichi qanchalik dard, alam va iztiroblarga to‘la ekanidan dalolat beradi.

Misollar tahlilidan ma’lumki, badiiy matnda metonomiya hodisasi metaforaga nisbatan kam qo‘llaniladigan hodisa bo‘lib, u ham xuddi metafora singari nutqning ta’sirchan va ixcham bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

1.3. “Shohrux Mirzo” romanida o‘xshatishlarning qo‘llanish xususiyatlari

Ma’lumki, o‘xshatishlar ham eng qadimgi tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta’minlashda foydalanib kelinadi.

O‘xshatish deb ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalashga aytiladi.

Qadimdan o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilgan va o‘xshatishning muntazam to‘rt unsuridan tarkib topishi ta’kidlangan, ya’ni: 1) o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt, 2) unga o‘xshash bo‘lgan narsa yoki obyekt, 3) o‘xshatish belgisi yoki o‘xshatish asosi va 4) o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi. O‘zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo‘lgani kabi, o‘xshatishlar to‘rt unsuridan tarkib topadi va biz ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliiy ko‘rsatkichi, deb nomlaymiz.⁵⁷

Biroq, M. Yoqubbekova o‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida o‘xshatishning yana bir unsuri “o‘xshatish maqsadi” ham mavjudligini ta’kidlagan.⁵⁸

O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtai nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar

⁵⁷Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. – 320 б. 5-бет.

⁵⁸Қурбонова М. “Матн тилшунослиги” - Тошкент. “Университет” нашриёти – 2014. 80 б.

kutilmagani, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi.⁵⁹

Serqirra ijodkor Muhammad Alining ijodiga nazar tashlasak, unda o'xshatishlardan juda o'rinli foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, "Ulug' saltanat" tetralogiyasining oxirgi qismi "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida shunday o'xshatishlar keltirilganiga guvoh bo'lamiz:

"Olam shundoq: tog'lar, o'rmonlar, cho'llar, dengizlar, daryolar, yurtlar, shaharlar, qal'alar, bog'lar, hodisalar, urushlar, isyonlar, razilliklar, xiyonatlar, farog'atlar, mashaqqatlar, muhabbatlar, nafratlar, orzular, armonlar to'lib toshgan, Yeru Osmon orasiga joylashtirilgan bahaybat kosa..."

"... O. nechog'lik omonat va nopoyidor bu buqalamun dunyo!" (353-bet.)

"... G'aroyib qismati, nopok odamlar qo'lida o'zi bilmagan holda qo'g'irchoqqa aylangani, jondan alqagan bobolar yurti boshiga falokatni o'zi olib kelgani, o'tgan kunga, ayniqsa, ertanggi kunga loqayd qaragani, nayranglarga mohir bebaqo dunyoning bir lahzada vafosiz xotinday o'zgarishga moyil ekani, zamona karvonining esa allaqachon ketib qolgani va hokazo-hokazolarni eslab chuqur o'ksindi." (361-bet.)

Yuqorida keltirilgan uchta misolda bitta subyekt uch xil etalon bilan sharhlanmoqda. Birinchi misolda keltirilgan "kosa" etaloni "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"(O'TO'IL)da uchramaydi. Demakki, bu o'xshatishni muallif o'zining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tasvirlagan. Ya'ni, muallif ta'kidlaganidek: *tog'lar, o'rmonlar, cho'llar, dengizlar, daryolar, yurtlar, shaharlar, qal'alar, bog'lar, hodisalar, urushlar, isyonlar, razilliklar, xiyonatlar, farog'atlar, mashaqqatlar, muhabbatlar, nafratlar, orzular, armonlarni* o'z ichiga sig'dira olgan, kerak bo'lsa to'lib toshgan bahaybat bir kosa bu – dunyo. Bunday o'ziga xos o'xshatishni boshqa biror joyda uchratmaymiz. Keltirilgan misolda o'xshatish asosi to'lganlik, sig'dira olganlik, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi mavjud emas, ammo u asar mazmunidan anglashilib turadi.

⁵⁹Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. –320 б. 6-бет.

Ikkinchi o'xshatish etaloni buqalamun esa, O'TO'ILda keltirilgan bo'lib, unda asosan, bu etalon kishining salbiy xususiyatlarini (turli qiyofaga kirish, tuslanish, o'z manfaatini ko'zlab, vaziyatga qarab o'zgarib turish, qat'iyatsiz odam) ochib berish uchun keltirilgan. Ya'ni insonlarni juda tez o'zgarib turuvchi fe'l-atvoriga nisbatan qo'llanilgan etalondir. Bu an'anaviy o'xshatish bo'lsa-da, muallif uni boshqa bir subyekt ya'ni dunyoni ifodalash uchun ishlatganini ko'ramiz va bu orqali asarda ifodalanayotgan fikrning to'la ochib berilishiga zamin yaratganiga guvoh bo'lamiz. Misolda o'xshatish asosi o'zgarib turish, tuslanish bo'lsa, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi mavjud emas, ammo mazmundan anglashilib turadi.

Uchinchi keltirilgan etalonda ham subyektning xususiyati yaxshi ochilgan. Xotinday etaloni ham O'TO'ILda keltirilgan bo'lib, u ham asosan, kishi (erkak kishi) xususiyatlarini ochib berishga qarata ishlatilishi keltirilgan. An'anaviy o'xshatishdan ham unumli foydalangan holda yozuvchi yangi bir o'xshatish subyektini qo'llagan. O'xshatish asosi vafosizlik, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi esa –day qo'shimchasi. Bu o'xshatish ham asar matniga mos ravishda tushgan.

Qo'stantiniya qal'asi ikki dengizga ishonibmi, hali hanuz qaysar qizday bo'y bermas, yoniga yo'latmas, Yildirim Boyazid esa tishi o'tmay kelayotganidan qattiq g'azabda edi (233-bet).

O'TO'ILda bu o'xshatish etaloni mavjud. Ammo, “qizlarga xos xususiyatlarga ega bo'lish, ularga xos harakatlarni qilish⁶⁰” o'xshatishi faqat insonlar uchun ishlatilgan bo'lsa, yozuvchi undan qal'ani, jonsiz predmetni tasvirlashda foydalanmoqda. Ya'ni bu qal'a o'z davrining eng mahobatli va metin qo'rg'on singari mustahkam ekanligini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilmoqda.

Turon sultoni Amir Temur bilan Rum Qaysari Yildirim Boyazid o'rtasidagi munosabatlar goh otayotgan musaffo tong misoli tiniqlashib qolar, bundan

⁶⁰ Махмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. –320 б. 292- бет.

ko'ngillarga nur inar, goh esa nogahonda tuman tushgan oqshomday xiralashar, dillar xuftonga aylanardi (304-bet).

Yuqoridagi kontekstda muallif ikkita o'xshatishdan ijobiy va salbiy holatni yoritishda foydalangan. Bunda o'zaro munosabatlarning yaxshilanishini otayotgan musaffo tongga, yomonlashishi va oraga sovuqchilik tushgan holatni hech narsa ko'zga ko'rinmaydigan tuman tushgan oqshomga o'xshatmoqda. Misolda o'xshatish asosi ikki shohning o'zaro munosabatidagi ijobiy va salbiy holat bo'lsa, o'xshatishlarning shakliy ko'rsatkichi *misoli* so'zi va *-day* qo'shimchasi bo'lib kelmoqda.

Yozuvchi o'xshatishlardan joy tasvirini gavdalantirishda ham foydalangan:

Samarqandi firdavsmonand, dorussaltana, kelinchaklarday yasangan Turon saltanati poytaxti hadsiz muzaffariyatlar, quvonchu shodliklar, odamni favqulodda junbushga keltiradigan ajoyib voqealar og'ushida edi (483-bet).

Bu o'xshatish orqali yozuvchi Samarqand shahrining Temuriylar davrida qanchalik gullab-yashnagan, chiroyli va obod, tinch ekanligini ko'rsata bilgan. Bundan tashqari shu birgina so'z orqali Samarqand shahrini ta'riflash, uni ko'rkini ochib berish uchun ishlatiladigan juda ko'p gaplarni mana shu birgina jumla orqali kitobxonga yetkizib bermoqda.

Bundan tashqari asarda muallif o'xshatish etaloni sifatida iboralardan ham o'rinli foydalangan. Buni bir misol tariqasida ko'rib o'tamiz:

Amir Sulaymonshoh xuddi noto'g'ri qadam tashlab qo'yib, dakki yegan boladay xijolat tortdi (20-bet).

Bu yerda Amir Sulaymonshohning qilgan chala ishi tufayli boshidan o'tkazayotgan ruhiy holati ibora orqali kitobxonga yanada tushunarliroq va obrazli tarzda yetkizib berilmoqda. Asardan olingan yana bir misolga qaraylik:

Birinchisi, o'tib bo'lmas daryolar, ikkinchisi, odam kirsada adashadigan o'rmonu changalzorlar, uchinchisi, vahshatli fillar. Eshitgan erdimki, fillar xartumi bilan odamlar boshini chavgon to'piday o'ynab, uzib tashlayverarkan...(35-bet).

Bunda, o'xshatish subyekti "odamlar boshi", o'xshatish etaloni "chavgon to'pi", o'xshatish asosi yoki belgisi deb yumaloqlik, o'xshatishning formal ko'rsatkichi deb esa -day qo'shimchasini olamiz.

Bu misolda qo'llanilgan o'xshatish asar matniga sof tarixiy bo'yoqlarni bera olgani bilan ahamiyatlidir. Chunki, bugungi kunda bu o'yin turi uchramaydi va o'sha davrdagi jangga o'rgatilgan jangovor fillar ham. Ko'rinadiki, bu o'xshatish etalonini istorik etalon sifatida olishimiz mumkin. Bu etalon O'TO'ILda uchramaydi. Uni muallif o'zining badiiy niyatidan kelib chiqqan holda qo'llagan va uni individual-muallif o'xshatishlari sirasiga bemaolol kiritish mumkin.

Yozuvchi asarda nafaqat individual-muallif o'xshatishlaridan, balki turg'un (doimiy) o'xshatishlardan ham unumli foydalana olgan. Buni asardan olingan quyidagi misollar orqali ko'rib o'tamiz:

Sohibqiron piri murshidga mamnun qarab qo'ydiyu... birdan qaysar qo'shinida katta mavqega ega, shijoatli qora totorlar qavmini Yildirim Boyaziddan ayirib, o'zimizga qaratib olish lozim, degan chaqinday fikr ko'ngliga keldi! Vaqt tig'iz, shoshilmoq lozim edi (325-bet).

Ularning chaqinday harakatlari, hayqirib suron ko'tarishlari Turon askarlarini sarosimaga sola boshladi (544-bet).

Ishoramizga sira sarkashlik qilolmaydurlar, jangovor lashkarlar chaqinday qadamimizga monelik ko'rsatolmaydurlar (181-bet).

Hali bir odamning dafi ekanu, metinday tog'larning talqonini chiqaradigan chaqmoqday yigitlaringiz bor, podshoyi olam!(227-bet).

Yuqorida ko'rib o'tgan to'rtta misolda ham chaqin, chaqmoq so'zlari orqali o'xshatishlar berilmoqda. "Chaqmoq" etaloni O'TO'ILda uch xil ma'noda kelishi aytiladi.⁶¹ Ulardan birinchisi, fikrga nisbatan bo'lib, "chaqmoqday fikr" ya'ni, miyaga tezlik bilan, kutilmaganda kelgan fikr. Ikkinchisi esa, bir yonib-o'chmoq, qisqa davom etadigan jarayon va unga boshqa narsalarni o'xshatish. Masalan, inson umrining qisqaligi va hokazo. Uchinchisi esa, harakatga nisbatan,

⁶¹ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. -320 б. 246-247-бетлар.

tananing qaysidir a'zosi juda tezlik bilan harakat qilishi nazarda tutilmoqda. Yoki umuman kishilarga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, unda ham tezlik, chaqqonlik asos qilib olinadi. Masalan, "chaqmoqday yigit" deyilganda yosh, shijoatli, harakatlari tez va ildam bo'lgan yigitni tushunamiz. Asardan olingan parchalardan ma'lumki, bu o'xshatishning birinchi va uchinchi ma'nolari ko'proq qo'llanilgan.

Bunda o'xshatish subyekti deb fikr, harakat, kishining harakati bo'lsa, o'xshatish etaloni esa "*chaqin, chaqmoq*", o'xshatish asosi tezlik, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi esa -day qo'shimchasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, asarda keltirilgan o'xshatishlarni shartli ravishda yana bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

a) hayvonlar, qushlar va hasharotlarga taqlidan olingan o'xshatishlar:

Shohrux Mirzoning diqqatini tortgan narsa ham ayni Gavharshod begimning o'sha ilonday to'lg'angan sehrli ikki o'rim sochi edi... (45-bet).

Ha, u bo'g'ma ilondur, bo'g'ma ilonday Rum saltanatini o'rab olmoqqa shaylanmoqda (307-bet).

Lashkarimiz arslonday ilg'or, askarimiz burgutday olg'ir... Jumla jahon ko'rib turibdi (188-bet).

Shu paytgacha o'zini tulkiday muloyim tutib kelayotgan otaliq bir yumalab go'yo bo'riga aylanadi ovozi iltimos ohangida emas, zalvorli buyruq tusini oldi (226-bet).

Ko'z ochibmanki, hali musichaday beozor darvishni yomon degan, undan hadiksiragan kimsani uchratganim yo'q, podshoyi olam! (227-bet).

Ioann rohib o'rta bo'yli, ochiq chehrali, yuzlari qizil, chakkasoqol qo'ygan, shopmo'ylov, iyagining uchginasida kalta soqoli popishakning tojiday to'p bo'lib alohida ko'rinib turgan, sochu soqolining oqligi o'ziga yarashgan oltmish yoshlardagi odam edi (447-bet).

- Burgut Amir Sohibqiron, lochinlar esa dushmanlardir. Dushmanlar hamisha mana shu lochinlarday qochib jon saqlaganlar (503-bet).

- Ammo uni oyoq uchida ko'rsatganday, "he" yo'q, "be" yo'q g'anim Damashqdek muazzam shahar malik ul-umarosi qolib, bulbulning qanotidekkina Halabning hokimi Temurtosh ilib ketdi. Endi donishmandlarcha hammaga aql o'rgatib o'tiribdi (198-bet).

- Kimdakim Olloh yo'liga masjid qursa, garchi u masjid o'rdak uyasidek bo'lsa ham, Olloh uning uchun jannatda bir uy bino qiladur, deb ta'kidlag'onlar risolatpanoh rasululloh janoblari (16-bet).

- Ammo baribir barcha gulga yoprilgan asalarilarday shahzoda tomon intildi. Birov otning jilovidan tutdi, kimdir omadi chopib shahzoda qo'llarini qisishga erishdi, boshqalari uzangini ushladi ot yolini siladi maqtov so'zlarini aytdi, xullas, odamlar shu taxlit o'z mehru ehtiromlarini izhor ayladilar (39-bet).

Bu asardagi eng katta o'xshatishlar guruhi bo'lib, ulardan asar matnida uchraydigan kishilar, joylar va boshqa narsalarning ma'nosini kengroq va tushunarliroq, obrazli tarzda ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu o'xshatishlarning deyarli hammasi O'TO'ILda uchraydi va ularni an'anaviy o'xshatishlar deb olishimiz mumkin. Lekin muallif an'anaviy o'xshatishlardan ham o'ziga xos subyektlarni ma'nosini ochishda foydalanganki, bu asarning ta'sirchanligini oshirib, uni o'qishligini ta'minlagan.

b) tabiat jismlari va hodisalariga taqlidan olingan o'xshatishlar:

Mansur cherikni ko'rikka chorlangiz, toki Sivas sahrosida bo'y bastini namoyon etsunlar! Qaysar elchilarini baland tepaga qo'yingizkim, qumday adadli, tog'day madadli, sha'nu shavkatli lashkarimiz shiddatiga nazar solsunar! Ha...Ular bizni bilmaydurlar, bilg'onlarida kech bo'ladur...(313-bet).

Butun saltanat junbushga keldi. Konigilda turgan lashkar bo'ronday qo'zg'olishga shay, amirzodalar, beklar harakatda, tavochilar g'izillab shaharning u yog'idan bu yog'iga chopadi, undan Ko'ksaroyga kiradi Konigilga o'tadi...(140-bet).

Qaysar chaqmoqlarga to'yingan qora bulutlardek bostirib kelayotg'on emishmu?...- samimiy so'radi Amir Temur, unda hayratlanish, quvonish yoki g'azablanish ohanglari sezilmadi (328-bet).

Qalbiz tog'lardek baland, adadimiz qumlardek behisob, mulkimiz daxlsiz, qo'shinimiz to'fondek bosqir, tulporlarimiz uchqur, qilichlarimiz keskir, nayzalarimiz uchqur...(111-bt).

Yuqorida keltirilgan misollardagi o'xshatishlar tabiat hodisalari va jismlariga taqlidan olingan o'xshatishlardir. Birinchi misoldagi “qumday” o'xshatishi O'TO'ILda uchramaydi. Bunda o'xshatish subyekti lashkarlar, o'xshatish etaloni qum, o'xshatish asosi ko'p sonlilik, sanab bo'lmalik, o'xshatishning formal ko'rsatkichi -day qo'shimchasi. Gapda ikkinchi qo'llanilgan “*tog'day*” o'xshatishi O'TO'ILda 5 xil ma'noda qo'llanilishi aytiladi.⁶² Bu misolda esa birinchi ma'nosida qo'llanilganini ko'ramiz. Ikkinchi misoldagi “*bo'ronday*” o'xshatishini muallif o'zining badiiy niyatidan kelib chiqqan holda qo'llaganini va bu o'xshatish asar matniga mos tushganini ko'ramiz. Uchinchi misolda keltirilgan “*qora bulutlarday*” o'xshatishi O'TO'ILda mavjud bo'lib, u konkret va mavhum tushunchalarga nisbatan qo'llanilishi aytib o'tiladi.⁶³ Biz ko'rgan misolda esa konkret ma'noni ifodalash uchun qo'llanilishini ko'rib o'tamiz. Ya'ni askarlarning xuddi “*chaqmoqlarga to'yingan qora bulutlardek*” bostirib, yopirilib kelishini ko'rsatmoqda.

Asarda yana bir tabiat hodisasiga taqlidan olingan “*chaqmoqday*”, “*chaqinday(-dek)*” kabi an'anaviy o'xshatishdan ham keng va unumli foydalanilgan bo'lib, uni quyidagi misollar orqali ko'rib o'tamiz:

Axir o'tgan yili Hindikush tog'larida yurgan lashkar bugun chaqmoqday yelib Gurjiston tog'larini zabt etib, Rumda Sivasni ishg'ol qilib turibdi!(187-bet).

- Chaqmoqday yigit ekana! Kim u? Qayerdan?

- Muhammad al-Keshiymi? Sohibqiron xeshlaridan deyishadi, aniq bilmayman. shivirladi amir. Lekin uning Misrda o'qib kelganidan xabarim bor (364-bet).

⁶² Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. –320 б. 220-222-бетлар.

⁶³ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. –320 б. 49-50-бетлар.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan oltita misolda ham chaqin, chaqmoq so‘zlari orqali o‘xshatishlar berilmoqda. “Chaqmoq” etaloni O‘TO‘ILda uch xil ma’noda kelishi aytiladi.⁶⁴ Ulardan birinchisi, fikrga nisbatan bo‘lib, “chaqmoqday fikr” ya’ni, miyaga tezlik bilan, kutilmaganda kelgan fikr. Ikkinchisi esa, bir yonib-o‘chmoq, qisqa. Masalan, inson umrining qisqaligi haqida. Uchinchisi esa, harakatga nisbatan, tananing qaysidir a’zosi juda tezlik bilan harakat qilishi nazarda tutilmoqda. Yoki umuman kishilarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, unda ham tezlik asos qilib olinadi. Masalan, “chaqmoqday yigit” deyilganda yosh, shijoatli, harakatlari tez va ildam bo‘lgan yigitni tushunamiz. Asardan olingan parchalardan ma’lumki, bu o‘xshatishning birinchi va uchinchi ma’nolari ko‘proq qo‘llanilgan. Garchi bu an’anaviy o‘xshatishlar sirasiga kirsada, yozuvchi undan asar voqealarini tasvirlashda o‘ziga xos mahorat bilan foydalanganini ko‘ramiz.

d) kishilarga taqlidan olingan o‘xshatishlar: *Amirzoda Xalil Sulton o‘n yetti yoshda, xushbichim, kelishgan, oq yuzli, nigohlarni o‘ziga jalb etadigan Yusufdek suyukli bejirim qop-qora, hali ustara tegmagan, zilol suvli ariq bo‘yida endigina bodrab chiqqan nafis maysalarday mayin mo‘ylabi o‘ziga yarashgan, ko‘z bilan labni onasidan olgan, keng peshona, quyuq qoshlarni, bir oz suyri iyakni otasidan ko‘chirgan didtortar yigit edi (295-bet).*

- *Jahon amirzodasi rahmatli Amir Sayfiddin neko‘zni qoralardan chiqqan Shodimulk otliq kanizagini yoqtirib qolibdilar. Majnunday qattiq oshiq bo‘libdilar. Ixtiyorlari o‘zlarida ermas emish (490-bet).*

Donishmandu zukkolar Turon sultonini qahru qasoslariga ko‘ra Zuhalg, fazilatlarini Jamshidga, qudrat va shiddatlarini Mirrixga, har ishda o‘qdek ortga qaytmasliklarini, maqsadga intilishlarini Iskandari Zulqarnaynga mos, deb hisoblaydurlar (288-bet).

Kishilarga taqlidan olingan o‘xshatishlarda mashhur tarixiy shaxslarning ayrim xususiyatlari asos qilib olinadi. Bunda, birinchi misolda Yusuf alayhissalomning tashqi xususiyatlarini, ya’ni uning xushbichim va ko‘rkamligi,

⁶⁴Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. –320 б. 246-247-бетлар.

istarali, chiroyliligini Amirzodaning tashqi xususiyatlariga o‘xshatish orqali Xalil Sultonning qiyofasi yorqin tasvirlab berilmoqda. Ko‘rinadiki, Amirzoda juda xushbichim va chiroyli yigit bo‘lgan. Ikkinchi misoldagi o‘xshatish esa, mashhur “Layli va Majnun” asari orqali yaxshi tanish bo‘lgan Majnun obraziga tegishlidir. Bu o‘xshatish orqali Amirzodaning kanizakka qay darajada oshiq bo‘lganligi ochib berilmoqda. Bu ikki o‘xshatish O‘TO‘ILda uchramasa-da, lekin xalq orasida ko‘p ishlatiladi.

Uchinchi misolda keltirilgan shoh Jamshid va Iskandar Zulqarnaynlar esa tarixda chuqur iz qoldirgan shohlar bo‘lib, Amir Temurning ayrim fazilatlarini aynan shoh Jamshidga qiyoslanmoqda. Tarixga nazar solsak, shoh Jamshid mamlakatda behad farovonlik vujudga keltirgan, sharobni ixtiro qilib, Navro‘zni yangi yil bayrami sifatida nishonlashni joriy etgan ekan. U hatto Zardushtdan ilgari Eronda mavjud bo‘lgan bir diniy mazhabga asos solgan, oyna (Jomi jam) ixtiro qilgan hamda odamlarni hayvon terisini kiyish o‘rniga gazlamadan tikilgan kiyim kiyishga o‘rgatgan, davlat tuzumini tashkil etgan.⁶⁵ Shoh Jamshid haqida Alisher Navoiy ham o‘zining asarlarida batafsil ma’lumot berib o‘tgan.⁶⁶ Ko‘rinadiki, Jamshid insoniyat hayotiga katta yangiliklar olib kirgan va ularning ijtimoiy turmush tarzi farovonligi uchun qulay imkoniyatlar yaratib bergan. Amir Temur ham o‘z xalqiga mana shunday tinch va farovon hayot tarzini yaratib bergani uchun ham uning fazilatlarini aynan shoh Jamshidga qiyos qilinmoqda.

Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy, Iskandar Maqduniy) haqida bilmagan odam bo‘lmasa kerak. U miloddan avvalgi IV asr(356-323)da yashab o‘tgan Makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi. Makedoniya taxtiga o‘tirgan paytlaridan boshlab dunyoning ko‘pgina mamlakatlariga yurish boshlaydi. Iskandar qisqa o‘ttiz uch yillik umri davomida qilgan yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan saltanat hududi Hind daryosidan Dunayga qadar cho‘zilgan bo‘lib, u qadimgi dunyoning eng yirik davlati edi.⁶⁷ Shunga qiyosan Amir Temurning ham o‘z maqsadiga erishishini aynan Iskandarning xatti-harakatlariga qiyoslaganlar. Bu

⁶⁵ Vikipediya. Ochiq onlayn ensiklopediya: Jamshid.

⁶⁶ Alisher Navoiy. Tarixi muluki ajam. 32 b. 2-bet.

⁶⁷ Vikipediya. Ochiq onlayn ensiklopediya: Aleksandr.

ikki o‘xshatish O‘TO‘ILda uchramaydi, xalq orasida ham ishlatilmaydi. Demak bu etalonlar sof tarixiy o‘xshatish etalonlari bo‘lib, ular asarga tarixiy koloritni berganligi bilan e‘tiborga molik. Bu etalonlarni yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy-muallif o‘xshatishi siftida olishimiz mumkin.

Bu o‘xshatishlar guruhida kishilar qatnashgan jarayondan ham etalon sifatida mohirona foydalanilganini quyidagi misol orqali ko‘rib o‘tamiz:

Tong yorishib, haligina atrofida g‘ujg‘on o‘ynayotgan yulduzlar xuddi onalari chaqirib qolganda yoppasiga uyiga kirib ketgan bolalarday g‘oyib bo‘lgan, osmonda oyning bir o‘zigina so‘ppayib turardi (338-bet). O‘TO‘ILda “bola(-lar)day” o‘xshatishining yetti xil ma‘nosi ko‘rsatib o‘tiladi.⁶⁸ Ammo bu misolda “bolalar” etaloni jarayon bilan birga olinmoqda va u ifodalayotgan subyekt ham osmon jismlarining harakatdagi jarayonidir. Shu sababli bu etalonni yangi ma‘no qirralarini ochish uchun ishlatilgan muallif o‘xshatishi deyishimiz mumkin. Xuddi shunga o‘xshash yana bir parchaga e‘tibor beramiz:

Amir Temur eshitib xuddi kutilmaganda orqadan qattiq musht yegan odam holiga tushdi (134-bet). Bu misolda ham yuqorida aytib o‘tganimizdek, an‘anaviy etalonni noodatiy jarayon bilan bog‘lab, kontekstda yangicha birikmali etalonni hosil qilmoqda. Shu jihatdan bu o‘xshatishni ham muallif o‘xshatishlariga kirita olamiz.

e) osmon jismlariga taqlidan o‘xshatishlar: *Ko‘rdingizki, boshqa davlatlar xuddi bulutlar panasida qisinib qolgan yulduzlarday ko‘zlardan yashirindir, Rum esa balqigan oftobday porlab olamga nur sochmoqda... (231-bet).*

Donishmandu zukkolar Turon sultonini qahru qasoslariga ko‘ra Zuhalg, fazilatlarini Jamshidga, qudrat va shiddatlarini Mirrixga, har ishda o‘qdek ortga qaytmasliklarini, maqsadga intilishlarini Iskandari Zulqarnaynga mos, deb hisoblaydurlar (288-bet).

⁶⁸Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. – 320 б. 45-47- бетлар.

-Rost, rost... Yodimdan chiqibdur... tan oldi Muhammad Sulton. -Oh, sizni, saltanat osmonining Zuhrosini maftunlik taxtiga o'tqazib, saodat Mushtariysi sifat atrofingizda parvona bo'lmak yolg'iz toleyimdur! (72-bet).

Birinchi misolda keltirilgan “yulduzlarday”, “oftobday” o'xshatishlari O'TO'ILda uchrasada, muallif undan o'ziga xos subyektlarni ifodalash uchun qo'llaganini ko'ramiz hamda bu o'xshatish o'sha davrdagi mamlakatlarning rivojlanganlik darajasini ko'rsatish uchun qo'llanilmoqda. Bu esa asar matniga mos tushganini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi va uchinchi misollardagi “Zuhal (Venera)”, “Mirrix (Mars)”, “Mushtariy (Yupiter)” o'xshatishlari esa xalqimizning qadimgi davrlarda amal qilgan e'tiqodlarining samarasi o'laroq yetib kelgan. Bu o'xshatish etalonlari O'TO'ILda uchramaydi. Demak, bu o'xshatish etalonini tarixiy asar matniga xos bo'lgan istorik etalon deb aytishimiz mumkin.

Yuqoridagi guruhlariga kirmaydigan yana shunday o'xshatishlar borki, bular asardagi turli holatlar, vaziyatlar, tabiat tasviri va boshqa shu kabi o'rinlarda ishlatilgan bo'lib, ular ham asarning tarixiy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

Oftob nayza bo'yiginaday ko'tarilgan esa-da, nuri yuzlarni kuydirar edi.(333-bet). Bu misolda keltirilgan o'xshatish etaloni qadimgi jang quroli bilan ifodalangan bo'lib, u O'TO'ILda uchramaydi. Parchada jangdan oldingi tabiat tasviri berilgan bo'lib, unda askarlar qanday sharoitda jang qilayotganligi mana shu bir jumladagi o'xshatish orqali ochib berilgan. Keyingi misolda bevosita jang tasviri gavdalantirilgan:

Qiyomat qoyim qo'pdi, o'chay degan o'choqqa yangi o'tin tashlanganda avvalgidan ham kuchliroq yonganday, hayot-mamot jangi alangalandi (350-bet). Parchada ikki tomon askarlarining jangga kirishish jarayoni aks etgan bo'lib, uni yonayotgan olovga o'xshatilmoqda. Bu o'xshatish ham asar matniga mos tushgani, holatni aynan ifodalab bergani bilan ahamiyatlidir.

Shubha yo'q, saropardalardan ko'ra balandroq, qirq ustunli, o'n ikki burchakli, xuddi boshdagi tojdek yagona, butun atrof vodiyya ko'rk bo'lib tushgan shohchodir ulkan o'rda ichida alohida ko'zga tashlanadi (501-bet). Bu

o'xshatishni ham xususiy-muallif yaratgan istorik etalon sifatida olishimiz mumkin. Chunki bu so'z O'TO'ILda uchramaydi. Bu o'xshatish etaloni ham tarixiylik bo'yoqlarini bera olgani bilan ahamiyatlidir.

Quyida kishining ruhiy holatini tasvirlash va unga izoh berishda foydalanilgan o'xshatishlarni ko'rib o'tamiz:

Nima-nima?! – o'rnidan turib ketdi Muhammad Sulton qazoday kutilmagan xabarni eshitib (81-bet).

Ko'ngli yonib turgan olovga suv sepilganday taskin topdi (164-bet).

-Oh, ko'nglimning kasbu-kori noshud kosibning yumushidek kasodga uchrag'on...- dedi Xalil Sulton (376-bet). Bu o'xshatishlarning hech biri O'TO'ILda uchramaydi. Shunga ko'ra bu o'xshatishlarni xususiy-muallif o'xshatishlariga kiritib, ularning barchasi asar matniga mos tushgani bilan, qolaversa, kishilarning ruhiy holatini obrazli tarzda ochib bergani bilan ahamiyatli ekanini aytib o'tish o'rinlidir.

Misqoli doka sallasi hamisha sholg'omday silliq muarrix Nizomiddin Shomiy ham hayrat barmog'ini tishlab qoldi. Yo parvardigor! (354-bet). Parchada keltirilgan "sholg'omday" o'xshatishi O'TO'ILda mavjud, lekin u asosan rang-tusga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, faqat bir ma'noda ishlatilishi aytib o'tiladi.⁶⁹ Ammo muallif asarda undan o'ziga xos subyektni ifodalashga xizmat qildirgan, ya'ni bunda shakl o'xshashligi asos qilib olinadi.

Quyida hech qanday o'xshatishlar guruhiga kirmagan o'xshatish etalonlarini ham tahlil qilib o'tamiz:

Dugonalar yetti oy avval ko'rishgandilar. Faqat tiqmachoqday semirib ketgan Bilqis begim bo'lmagandi xolos o'shanda (387-bet).

Oltinu-kumush tangalar bamisli xazonrezgilikda to'kilgan yaproqlarday armonsiz ularning boshlaridan sochildi (509-bet).

Gavharshod begim halinchak uchar ekan o'zini vaznsiz, garddek yengil sezar, tim qora bo'liq ikki o'rim sochi xuddi uni quvib yetolmagan ilonlardek to'lg'onar,

⁶⁹Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: - Маънавият, 2013. –320 б. 265-266-бетлар.

ortga qaytganda esa, murodi hosil bo'lganiga shukrlar qilgandek qizning qo'ymichiyu oyoqlariga bosh qo'yar, o'ralib-o'ralib jon nisor aylardi (51-bet). Parchlardagi “tiqmachoqday”, “yaproqlarday”, “garddek” kabi o'xshatish etalonlarining hammasini xususiy-muallif o'xshatishlari deb ayta olmasakda, ular asar matnida o'ziga xos o'xshatish subyektini ifodalashga xizmat qilib, uslubiy bo'yoqdorlikni yanada oshirganini ko'rishimiz mumkin.

1.4. “Shohrux Mirzo” romanida sinonimlarning qo'llanish xususiyatlari

Tilshunoslikka oid ko'plab tadqiqotlarda sinonimlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Ularda sinonimlarga shunday ta'rif beriladi: “Umumiy ma'nolari bir xil bo'lib, qo'shimcha ma'no nozikliklari, hissiy bo'yoqdorligi, uslub xususiyatlari bilan farqlanuvchi so'zlar sinonimlar deyiladi. Sinonimlar so'z ma'nosidagi belgi daraja ko'lami, hissiyligi, nutqning ma'lum biror turi uchun xoslanganligi bilan ajralib turadi. Sinonimlardagi bu xususiyat fikrning butun nozikligi bilan ifodalay olish imkoniyatini yaratadi. Ular o'z navbatida ijobiy va salbiy ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.”⁷⁰ Boshqa bir adabiyotda esa ular haqida shunday mulohazalar keltiriladi: Ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan, aytilishi va yozilishi jihatidan turli shakllarga ega bo'lgan so'zlar tizmasiga *sinonimlar* deyiladi. Sinonim aslida grekcha nomdoshlik, bir xil nomlilik demakdir. Shunga qaraganda, yuqoridagi ta'rif sinonimlarning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Shuning uchun denotativ ma'nosi bir xil, konnotativ ma'nosi (qo'shimcha ma'no ottenkasi, semantik bo'yog'i) va boshqa xususiyatlari farqli bo'lgan so'zlarga sinonimlar deyiladi.⁷¹ Demak, sinonimlarning badiiy nutqda bajaradigan vazifalaridan biri uning estetik ta'sirchanligini ta'minlashdan iboratdir. Zero, nutqning go'zalligi jummalarni ixcham, mazmunli, tushunarli va sodda holda tuzishdan boshlab, unda ishtirok etayotgan so'zlarning mantiqan birikib kelishi,

⁷⁰Матжанов И. Юристинг нутқ маданияти. Маърузалар матни. -Қорақалпоғистон: Қорақалпоқ ДУ, 2009. 66 б. 33-34-бетлар.

⁷¹Омонтурдыев А., Раймназарова Н. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Termiz: TerDU, 2010. 136 b. 89-98-betlar.

tugal bir ma'noni ifodalashga bekamu ko'st xizmat qilishi badiiy asar o'qishligini yanada oshiradi.”⁷²

Yozuvchi “Shohrux Mirzo” asarini yozishda, o'sha davr ruhini aks ettirish uchun sinonim so'zlardan ham unumli foydalangan. Uni quyidagi misollar orqali ko'rib o'tamiz:

Mashvaratdan chiqqanlardan ayrimlari shaharga yo'l olishgan, boshqalari bir kishi, ikki kishi bo'lishib chekka-chekkada turishar, mashvaratni muhokama qilishar, bahslashishar edi(139-bet).

O'TILda mashvarat so'ziga sinonim so'zlar sifatida kengash, ko'rsatma, maslahatlashish kabi so'zlar berilgan. Bugungi kunda esa yig'ilish, majlis so'zlarini qo'llaymiz. “Mashvarat” so'zi esa O'TSILda ko'rsatilishicha eskirgan arxaik so'z hisoblanadi.⁷³ Yozuvchi Muhammad Ali “Shohrux Mirzo” romanida bu so'zdan o'sha davr ruhini kitobxonga to'la anglatish uchun “mashvarat” sinonim so'zidan foydalangan.

Xuroson viloyati voliysi Shohrux Mirzo cherik yig'ib shitoban Ozarbayjon sori yuzlansun. (131-bet). “Cherik” so'zi O'TILda asli mo'g'ulcha so'z bo'lib, harbiy yurish vaqtida oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin⁷⁴ ekani qayd etilgan. Mo'g'ullar bosqinidan so'ng, yurtimizda o'sha davrlarda ko'pgina o'zgarishlar ro'y bergan. Jumladan, tilimizga mo'g'ul tilidan o'zlashgan ko'pgina so'zlar (ayniqsa harbiy atamalar) o'sha davrda faol qo'llanilgan. Yozuvchi bu so'zdan o'sha davr muhitini va ruhini kitobxon ko'z o'ngida yaqqol aks ettirishda aynan mana shu so'zdan foydalangan. Bugungi kunda esa ushbu termin arxaik so'z hisoblanadi. Uning o'rniga qo'shin, armiya, askar kabi so'zlar ishlatiladi.

-Arzinjondan chopar Tahurtanbek nomasini yetkazdi: Yildirim Boyazid hali hanuz Kemox qal'asini tortib olmoq iddaosidan kechmaydur ermish (136-bet).

⁷²Матжанов И. Юристинг нутқ маданияти. Маърузалар матни. -Қорақалпоғистон: Қорақалпоқ ДУ, 2009. 66 б. 33-34-бетлар.

⁷³Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. 308 б. 136-бет.

⁷⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б. 475-бет.

“Noma” O‘TSILda xat, maktub so‘zlarining eskirgan kitobiy varianti sifatida keltiriladi.⁷⁵ Bundan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi tarixiy romanni yozishda davr ruhini ifodalaydigan o‘ziga xos arxaiklashgan sinonim so‘zlardan foydalangan.

Butun izdihom davomida yuragini hovuchlab o‘tirgan Sharafuddin al-Ansoriy muloqotning shunchalar xayrli tugaganidan mamnun bo‘ldi, ko‘nglida ajdahoning og‘zidan omon qaytgan odamday o‘zini baxtiyor sezgan do‘sti Ibn ash-Shihnaning zukko va donishmandligidan g‘ururlandi (219-bet).

“Izdihom” so‘zi O‘TILda yig‘in, davra, odamlar to‘planadigan joy⁷⁶ ma’nolarida keladi. Bu yerda aynan izdihom sinonim so‘zidan foydalanish asar matniga to‘lig‘icha tarixiylik bo‘yog‘ini bera olgan.

Mashriq o‘rniga kutilmaganda mag‘ribga borish xabarini eshitib, o‘z xayollarida qurgan rejalari keyinga qolganidan ma’yus tortgan amirlaru sarkardalarga, Amir Temur xuddi yupatganday dedi:

-Safarimiz uzoq cho‘ziladurg‘onga o‘xshaydir. Gardankashlarni itoatga keltirib, yurtlarga dorilomonlik indirish oson ish ermas... (137-bet).

Mashriq va mag‘rib so‘zlari hozirgi kunda g‘arb va sharq deb ishlatiladi. Bu so‘zlar ham arxaiklashgan so‘z sinonimik so‘z sifatida asar matnida mos tanlangan.

Gardankash so‘zi O‘TILda isyonchi, qo‘zg‘olonchi o‘jar, qaysar ma’nolarida keladi.⁷⁷ Lekin bu so‘z ham bugungi kunda nutqimizda deyarli qo‘llanilmaydi.

Tabrizdagi besaranjomliklardan xabar topgan, bo‘ysunishni istamagan gurjilar esa birdan Ozarbayjon viloyatini g‘orat etibdilar, ko‘p joylarni vayronaga aylantirib, musulmonlarni talabdilar...(101-bet). “G‘orat” so‘zi O‘TILda “qo‘qqisdan hujum qilish, bosqinchilik qilish, talon-taroj qilish” kabi ma’nolari borligi aytib o‘tiladi.⁷⁸ O‘TSILda esa bu so‘z birorta sinonimik qatorda keltirilmaydi. Bundan ko‘rinadiki, arxaiklashgan “g‘orat” sinonimi ham asarga tarixiy koloritni bergani bilan ahamiyatlidir.

⁷⁵Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. 308 б. 212-бет.

⁷⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б. 179-бет.

⁷⁷Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 678 б. 488-бет.

⁷⁸Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 591 б. 454-бет.

Temurtoshning soʻzlari haq! Sulh tuzish murodga yaqin, sulh! (200-bet).

OʻTILda sulh soʻzi tinchlik uchun tuziladigan bitim sifatida izohlanadi. OʻTSILda sulh soʻzining sinonimlari sifatida kelishuv, bitishuv (kam qoʻllaniladi) soʻzlari berilgan.⁷⁹ Sinonimik qatordan sulh soʻzining tanlab olinishi esa romanda tarixiylik boʻyogʻini yaqqolroq koʻrsata bilgan.

- Amir Sohibqiron huzurlariga kirganda luzumsiz soʻzlarni aytishdan tiyilmoq kerak. (144-bet).

Luzumsiz soʻzi keraksiz, zarurati yoʻq, lozim boʻlmagan soʻzlarining kitobiy arxaiklashgan variantidir. Bu soʻz ham sinonimik qatordan asar matniga mos holda tanlab olingan va badiiy asar tilining boy ekanini yana bir bor koʻrsatib bergan.

- Maʼqul! Bahodir janoblari! Oʻzingiz Bogʻi Chinorga borib, xonimoyimga, jahon malikasining Samarqandga qadam ranjida aylayotgʻonlari haqidagi quvonchli mujdani yetkurgʻoysiz! (88-bet). Bu misolda “xabar” soʻzining badiiylashgan sinonimik varianti “mujda” soʻzi qoʻllanilmoqda. Bu orqali esa badiiy asar tili naqadar jozibali ekani koʻrsatib berilmoqda.

Sinonimlar matnda bir xil soʻzlarning qayta-qayta takror qoʻllanilishidan ham cheklaydi. Buni quyidagi misollar orqali koʻrib oʻtamiz:

Piri murshid mashʼum vaziyatni fahm etdi, darhol yerdan bir siqim tuproq oldi, qayta otiga minib qoʻrqinchli vajohatda dushman sari sohib yuborarkan “Yogʻiy qochdi!!!”- deya qichqirdi va oʻzi dushman sari ot qoʻydi. Ruhlangan jangchilar shu ondayoq suron solib shiddat bilan yov tomonga yuzlandilar va uni magʻlub etdilar...(24-bet).

Malika Sogʻinch xonim bilan shikorga chiqdik. Ovingiz yoningizda, allaqachon otib olgʻonlarku, deydi hazillashib malikam! (75-bet).

Birinchi misolda “dushman” sinonimi arxaiklashgan “yogʻiy” va “yov” varianti bilan birga qoʻllanilib, ikkinchi misolda “shikor” va “ov” sinonimlari ushbu parchada soʻzlarning takror qoʻllanilishini oldini olmoqda.

⁷⁹Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974.308 б. 122-бет.

Bundan tashqari asar matnida kontekstual sinonimlar ham qo'llanilgan bo'lib, ular ham asar mazmunini yanada boyitishga xizmat qilgan:

Kim u, Mironshoh Mirzo? Mutlaqo begona, yot odam... birov. Nomahram... Allaqachon uni unutib yuborgan (118-bet). Bu misolda “begona”, “yot odam” sinonimlariga kontekstda “birov” so'zi ularga ma'nodosh bo'lib kelganini ko'rish mumkin. Bunday sinonimlar ham asar matnida ko'plab uchraydi.

1.5. “Shohrux Mirzo” romanida antonimlarning qo'llanish xususiyatlari

Bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'noli bo'lgan so'zlarga *antonimlar* deyiladi. Masalan, *katta-kichik, yaxshi-yomon, do'st-dushman, uzoq-yaqin* kabi. Misollardan ko'rinadiki, antonomiya so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni antonimlik faqat bir juft so'z o'rtasida bo'ladi. U bundan ortiq so'zni o'z ko'lamiga sig'dira olmaydi.⁸⁰ Antonimlar badiiy adabiyot tilida muhim uslubiy vazifalarni bajaradi.

Yozuvchi badiiy asarda zid ma'noli so'zlardan foydalangan holda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni zidlash orqali ularni yanada ta'kidlab, urg'u berish imkoniga ega bo'ladi.⁸¹ Xususan, bunday holatni “Shohrux Mirzo” tarixiy romanidan olingan parchalar misolida ko'rib o'tamiz:

Bir hafta hordiq olsunlar, uzoq yo'lda toliqqanlar, sal charchoqlari chiqsun, rang-ro'ylari tiniqsun (105-bet). Bu yerda “hordiq olsunlar” va “toliqqanlar” so'zlari o'zaro kontekstual antonimlikni hosil qilmoqda. “Toliqqanlar” so'zi orqali “dam olsunlar” so'ziga yanada urg'u berib, ta'kidlab o'tilmoqda. Bu antonimik juftlik O'TAIL⁸²da uchramaydi.

Eron sori yurishimizda ikki foyda, bir ziyon bordur... (136-bet). Ushbu gapda foyda va ziyon so'zlari antonim so'zlar bo'lib, u yurishning yaxshi va yomon tomonlarini ochish uchun aytilmoqda.

Nizomiddin Shomiy ichida: “Johillar ekan-ku! Ana bu insofga chaqirayotganlari oqillardur!...” – deb qo'ydi (200-bet). Keltirilgan misolda

⁸⁰ Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Termiz: TerDU, 2010. 136 b. 89-98-betlar.

⁸¹ Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: - Маънавият, 2002. – 80 б. 18-бет.

⁸² Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Н. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, - 1980. 232 б.

johillar va oqillar antonimi qoʻllanilgan. Antonimlar koʻpincha ikkita ifodalanayotgan tushunchaning bir-biridan farqini yaqqolroq koʻrsatib berish uchun qoʻllaniladi. Bu arxaiklashgan antonimik juftlik asar matniga tarixiylik boʻyoqlarini bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki, bugungi kunda bu antonimik juftlikning faqat “yaxshi-yomon” dominantasi koʻproq qoʻllaniladi. Quyida xuddi shunga oʻxshash yana bir misolni koʻrib oʻtamiz:

Maxluqqa itoat qilaman deb, Xoliq oldida gunohga botdingmu? Hali qoʻrqoqlar toifasidanmusen?(56-bet). Bu antonimni ham kontekstual antonim deb olish mumkin. Chunki, bu muallifning badiiy niyatiga koʻra voqelanmoqda, qolaversa, OʻTAILda ham bunday antonimik juftlikni uchratmaymiz. Bu antonimik juftlik ham asar mazmuni toʻlaonli tushunilishi uchun xizmat qilgan.

Lekin.. bu, sulton qogʻoziga bitilgan naychasimon “duoi salomnoma” - aslida “duoi badnoma” degulik! - ichi turfa xil iddaoyu dashnomlar, kina-kuduratlarga toʻlib-toshgan maktub-chi? (56-bet). Parchada keltirilgan bu arxaiklashgan kontekstual antonimik birikmalar asar matniga tarixiylik boʻyoqlarini berish bilan birga maktubda naqadar yomon soʻzlar yozilganiga ishora qilinmoqda.

Antonimlarning uslubiy xususiyatlarini Amir Temur va Misr azizi sulton Barquqning oʻzaro yozishgan maktublarida yaqqol koʻrish mumkin:

“Bilsunlarkim, ustringizdan hukm chiqarmak huquqini tangri taolo bizga ato etgʻon... Siz uchun ulugʻ hisoblangʻon narsa biz uchun kichik, siz boshingizga qoʻyadurgʻon narsani oyogʻimiz ostida koʻrgʻoybiz... Biz sizga maktub yuborib insof yuzasidan yoʻl tutdik, ogoh etdik, Ollohning oʻzi shohiddur...”(111-bet). Maktubdagi antonimlar orqali Sohibqiron Misr azizini biroz boʻlsa-da insofga chaqirishni, oʻzining hududiga boʻlayotgan oshkora tahdidlarni tinch yoʻl bilan kamaytirmoqchi edi. Ammo sulton Barquq bu nomani yanglish tushunib, Amir Temurga quyidagi javob maktubini yoʻllaydi:

Tutumingiz ajablanarli: qandoq qilib koʻppak sherga, tulki yirtqich boʻriga, chorasiz qullar javshan kiygan jangchilarga tahdid solar ekan?(112-bet). Parchada keltirilgan arxaiklashgan kontekstual antonimlar ikki raqib tomonning oʻzaro bir-biridan

farqini yaqqolroq ifodalash uchun qo‘llanilmoqdaki, bu asar matniga to‘laonli mos tushgan deyish mumkin.

Yuqorida keltirilgan parchalardagi antonimik juftliklarning ko‘pi O‘TAILda uchramaydi. Ular muallifning g‘oyaviy-badiiy niyatidan kelib chiqqan holda asar matnida qo‘llanilgan. Aytish mumkinki, bu antonimlar asarning ta’sirchanligini yanada oshirgan. Bundan tashqari antonimlarni qo‘llanilishiga ko‘ra ham bir necha ma’noviy guruhlariga ham bo‘lib chiqish mumkin. Jumladan, ma’no xususiyatlariga ko‘ra antonimlar turlicha bo‘ladi:

1) jins xususiyatini bildiradigan antonimlar: *Nafsilamrini aytganda, Xonzoda xonimning tashrifi ham ma’qul bo‘libdi. Anchadan beri Sohibqiron qizim emas o‘g‘limsiz, deb qadrlaydigan kelinini ko‘rgani yo‘q, sog‘inib ham qolgan (100-bet). Shu paytgacha kelin hech qachon qayin otasiga kuyovidan shikoyat etgan emas (117-bet).*

2) hajm, shakl, miqdor, o‘lchov, daraja bildiradigan antonimlar: *Katta xonim darhol Muhammad Churog‘a dodxohni yo‘qlattirdi. Dodxoh Amir Temurning og‘ir-yengil gaplarini ko‘taradi, birinchi zarbani o‘ziga olib vaziyatni sal yumshatib bergani ma’qul...(103-bet).*

Qanday qilib, sizlar egilib, birovlarining xizmatini ado etishni, shunchalar xo‘rlanishni o‘z zimmangizga oldingiz? Aslida, siz ulug‘larning ham ulug‘i, qanday qilib kichiklarning ham kichigi maqomiga tushib qoldingiz?(326-bet).

Ko‘p o‘tinga hamisha ozgina olov ham kifoyaligi jumla mo‘minga ma’lumku!(113-bet).

3) rang-tus anglatadigan antonimlar: *Ehhe, Xonzoda xonimning ichi dardga to‘lib ketgan, aytmaslikning iloji yo‘q... Qo‘shib-chatmaydi, borini bor holicha so‘zlaydi, oqni oq deydi, qorani qora... Bahosini o‘zlari bersunlar (117-bet).*

4) turli xil his-tuyg‘ularni anglatadigan antonimlar: *Qissadan hissa: agar biz yashasak, baxtli kun kechirg‘oymiz, agar o‘lsak shahidlardek o‘lg‘aymiz (113-bet).*

5) turli xil munosabatlarni bildiradigan antonimlar: *Ey mulku davlat egasi Ollohim, sen istagan kishingga mulk ato qilursan va istagan kishingdan bu mulkni tortib olursan; istagan kishingni aziz qilursan va istagan kishingni xor qilursan (112-*

bet). *Yo‘q, valine‘mat* Sohibqiron adolatpesha zotlar, hamisha tarozuga toshni teng qo‘yadurlar, haqni tuhmatdan darrov farqlay oladurlar (117-bet). Zohiran Ibn Usmon birlan, botinan biz birlan birga erkoningizni hamisha yodda saqlamog‘ingiz zaruratdur... Chunki siz ham surat, ham maxraj jihatidan bizga yaqindursiz... Misollardan ko‘rinadiki, “Shohrux Mirzo” tarixiy romani matnida antonimlarning qo‘llanilishi fikrni yanada teran anglashilishi uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, asardagi antonimlarni yosh, payt, maza-ta‘m kabi xususiyatlariga ko‘ra ham bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

1.6. Bobning qisqacha xulosasi

Biz yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romani badiiy tilini tadqiq etish mobaynida asarda badiiy tasvir vositalaridan keng va unumli foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Ularning badiiy obraz yaratishda, tabiat tasviri, makon va zamon, ruhiy kechinmalar va shu kabilarni tasvirlashda emotsional-ekspressiv nozikliklarni bera oluvchi asosiy vosita ekanligini guvohi bo‘ldik.

Yozuvchi Muhammad Ali “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida polisemantik so‘zlardan ham unumli foydalangan bo‘lib, bunda so‘zlar, umuman til birliklari noodatiy qurilishlarda qo‘llanilib, asar matniga mos favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratilganiga guvoh bo‘ldik.

Asarda ma‘no ko‘chishining metafora va qo‘llanilishi kamroq bo‘lgan metonomiya vositalaridan foydalanilgan. Bu vositalar o‘z navbatida asarda keltirilgan fikrlarning qisqa, lo‘nda, aniq va tushunarli chiqishiga zamin yaratib, asrning o‘qishlilikini ta‘minlagan.

Asarda o‘xshatishlardan tabiat tasvirini berishda, kishilarning xarakter xususiyatlarini ochishda, makon va zamonning holatini aks ettirishda, asardagi jang tasvirini kitobxon ko‘z o‘ngida yorqinroq gavalantirishda, asarda berilayotgan vaziyatni to‘liq ochib berish va yetkizishda o‘ziga xos o‘xshatish etalonlaridan foydalangan. Muallifning mahorati shundaki, xususiyy-muallif o‘xshatishlaridan tashqari, an‘naviy o‘xshatishlardan ham o‘ziga xos o‘xshatish subyektining xususiyatini ochishda ulardan mohirona foydalana olgan.

Bulardan tashqari, yozuvchi sinonim va antonimlardan ham uslubiy vosita sifatida unumli foydalana olgan. Bu vositalar asarga tarixiylik bo‘yoqlarini berib, uning o‘qishlilikini ta’minlagan. Antonimlar esa, fikrning yanada aniq va boshqasidan farqli ekanini yaqqol ifodalash, ma’noni kuchaytirish va unga urg‘u berishni ta’minlagan.

Bobga qisqacha xulosa qiladigan bo‘lsak, Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romanida qo‘llanilgan polisemantik so‘zlar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, o‘xshatishlar, sinonim va antonimlar asarning yanada ta’sirchan va jozibador chiqishini, ta’minlagan. Bunda muallif an’anaviy – uslubiy leksik vositalardan hamda xususiy-muallif leksik figuralaridan juda unumli foydalangan.

Yozuvchi tarixiy davrni jonlantirish uchun nafaqat yuqorida sanab o‘tilgan vositalar, balki, funksional chegaralangan so‘zlardan ham uslubiy vosita sifatida unumli foydalanib, asarning badiiy qimmatini oshirgan. Buni keyingi bobda atroflicha ko‘rib o‘tamiz.

IKKINCHI BOB. “SHOHRUX MIRZO” ROMANIDA FUNKSIONAL CHEGARALANGAN SO‘ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

2.1. “Shohrux Mirzo” romanida arxaizm va istorizmlarning qo‘llanish xususiyatlari

Tilimizda vazifasi jihatidan cheklangan so‘zlar ham mavjud bo‘lib, ular badiiy asarlarda uslubiy vosita sifatida yozuvchilar tomonidan keng qo‘llaniladi. Bunday so‘zlar “Shohrux Mirzo” tarixiy romani matnida ham keng qo‘llanilgan bo‘lib, dastlab, bunday so‘zlarning istorizm va arxaizm deb nomlanuvchi guruhi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz.

Til taraqqiyotining ma’lum bir davrida muomalada faol qo‘llangan, lekin keyinchalik shu so‘z ifodalagan predmet, voqea yoki hodisa o‘zining hayotiy faoliyatini to‘xtatgach, uni anglatgan so‘z ham eskirsa, qo‘llanish darajasini susaytirib tarixiy so‘zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so‘zlar o‘zi atagan narsa yoki tushuncha iste’moldan chiqib ketganligi bois qo‘llanmayotgan leksik qatlamdir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi.

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur paytda nutqda qo‘llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma’nosi ko‘pincha izoh talab qiladi.

Eskirib iste’moldan chiqqan, ammo o‘z ekvivalentiga, sinonimiga ega bo‘lgan so‘zlarga *arxaizmlar* deyiladi: *ulus – xalq, tilmoch – tarjimon* kabi.⁸³

Demak, bundan ma’lumki, tilimizning eski leksik qatlamiga mansub tarixiy so‘zlar ya’ni istorizmlar va arxaizmlar o‘zbek tili leksikasining hozirgi kun tarkibida ham narsa-hodisalarning atamalari sifatida uchraydi. Ular hozirgi kunda tilimizda iste’moldan chiqqan bo‘lsa-da, ammo, tarixiy voqea-hodisalar haqidagi ma’lumotlar eslatilgan taqdirda ular ba’zan qo‘llaniladi: *javong‘or, hirovul, shiqovul, sarkarda, suvoriy, sipoh, cho‘qmor, qalqon, qamal, haram, saroparda, xotuno‘dana, jubba, bakovul, munshiy* kabilar.⁸⁴ Haqiqatdan ham istorizm va

⁸³ Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Termiz: TerDU, 2010. 136 b. 108-110-betlar.

⁸⁴ Internet sayti: Google.com. Vikipediya. Ochiq onlayn ensiklopediya.

arxaizmlarning ayniqsa, badiiy nutq tarkibida tutgan o'rnini, vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, nafaqat, fikr ifodasi, tarixiy davrni jonlantirish vositasi, balki nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabi xususiyatlarini ham namoyon qiluvchi muhim omildir.⁸⁵

Istorizm va arxaizmlar yozuvchi Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romani matnida ham keng qo'llanilgan bo'lib, ular asarda tasvirlangan voqealarda va personajlar nutqida faol qo'llanilgan, bu esa tabiiyki, asarda tasvirlangan davr muhitini yoritishda, asardagi tarixiy koloritni ochib berishda muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

"Shohrux Mirzo" tarixiy romani leksikasidagi istorizm va arxaizmlarni asosan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Mansab, unvon, lavozim nomlari: *Valiahd* (podshohning tiriklik chog'ida o'z o'rniga tayinlab qo'ygan taxt vorisi), *Dodxoh* (saroydagi yuqori martabalardan biri), *Mahdi ulyo* (Saroymulixonimning unvoni), *Xonzoda xonim* (Xorazm malikasi Sevinbeka unvoni), *bakovul* (podsho, xon saroyida xizmat qiluvchi mansabdor, lashkarga ovqat tayyorlashni tekshirib turuvchi, lashkarga ovqat taqsimlash ham ular zimmasiga yuklatilgan), *munshiy* (munshi, qadimda davlat amaldorlarining kotibi, ular oddiy kotiblardan farq qilib, amaldorlarning maxsus farmonlari va xatlarini yozishgan), *chopar* (otliq xabarchi), *mulozim* (saroydagi quyi lavozimlardan biri), *kanizak* (haramdagi xonga tegishli ayol yoki qiz), *o'nboshi*, *yuzboshi mingboshi* (qo'shin jangchilarining lavozimi) quyi lavozim nomlaridir.

2. Harbiy tushunchalarni ifodalovchi istorizm va arxaizmlar: *muhoraba* (urush, jang), *javong'or* (qo'shinning so'l qanoti), *hirovul* (qo'shinning old tomoni), *barong'or* (qo'shinning muqaddima qismi orqasidan boruvchi maxsus harbiy qism), *chopovul* (qo'shinning o'ng qanoti), *qorovul* (qo'shinning oldida boruvchi piyoda askarlar bo'linmasi), *shiqovul* (shaqavul, jangovor qanotlarning so'l qismi), *sarkarda* (lashkarboshi), *suvoriy* (otliq askar), *sipoh* (qo'shinning

⁸⁵Xudoyberdiyeva N.A. "Navoiy" romanida dialogning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. - Toshkent: O'zMU, 2014, 11-bet.

piyoda askarlari), *cho'qmor* (qo'l jangida ishlatiladigan oddiy qurol), *qalqon* (jangchining tanasini tig'li qurollar zarbidan himoya qiluvchi moslama), *qamal* (qal'ani qo'qqisdan hujum qilib olib bo'lmagan taqdirda qamaldan foydalanilgan), *dubulg'a* (jangchining temirdan yasalgan, himoyalovchi bosh kiyimi), *javshan* (simdan to'qilgan sovut, zirxli kiyim).

3. O'rin-joy ma'nosini ifodalovchi istorizm va arxaizmlar: *haram* (xonga tegishli ayollar uchun ajratib qo'yilgan hovli), *o'rdi* (xon qarorgohi va harbiy ma'muriy tashilot joyi), *saroparda* (hukmdor chodiri), *ko'shk* (odatda bog'larning o'rtasida quriladigan, ko'rkam pavilyon, qadimiy imorat turi), *saroy* (hukmdorlar yashash joyi).

4. Kiyim-kechak nomlari: *xotuno'dana* (matodan qilingan dubulg'anamo bosh kiyim), *burnus* (nozik hoshiyali cho'zinchoq bosh kiyim), *jubba* (jibba, mo'g'ulcha so'z bo'lib, 1) jangchini yoy o'qi va nayzadan saqlash uchun ingichka simdan to'qilgan maxsus urush kiyimi. 2) jubba - avra-astarning ichiga paxta solib qavilgan keng va uzun choponlar ham jubba deyilgan).

5. Kasb-hunarni ifodalovchi istorizm va arxaizmlar: *mudarris* (madrasa o'qituvchisi), *mashshoq* (mashq qiluvchi, kuyni sozda ijro etuvchi), *baqqol* (mayda savdogar), *allof* (somonfurush, g'allafurush), *mubashshir* (sevinchli xabar keltiruvchi), *chitfurush* (mato sotuvchi), *ting'chi* (ayg'oqchi) va hk.

(Asardan olingan so'zlar izohi Choriyev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug'ati. - Toshkent: Sharq, 1999. 142 b. va Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. - Toshkent: Universitet, 2008. 236 b. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. 1-tom. - Toshkent: Fan, 1993. 374 b. kitoblaridan olindi).

Bundan tashqari asarda qo'llanilgan istorizm va arxaizmlarni yana ko'plab guruhlariga, masalan, ichimlik, taomlar va boshqa nomlarni bildiruvchi istorizm va arxaizmlar guruhlariga bo'lish mumkin. Ammo asarda yuqorida keltirilgan ikki guruhga kiruvchi istorizm va arxaizmlar faol qo'llanilgan. Chunki asardagi asosiy voqealar jang tasviri bilan bog'liq bo'lganligi va aynan o'sha davrda qo'llanilgan harbiy terminlarning ko'pchiligi bugungi kunda iste'molda emasligi bois asarda ushbu vaziyat bilan bog'liq istorizm va arxaizmlar ko'p uchraydi. Asardan olingan

quyidagi parchani ko‘rib o‘tamiz: “*Amir Temur nazdida dunyoning biron-bir bo‘sh joyi qolmaganday, puchmoq-puchmoqqacha askarga to‘lib ketganday tuyuldi. Hov anovi so‘lda shiqovul, o‘ngda esa chopovul qo‘shinlari alohida ajralib turibdi. Ulardan ham oldinda hirovullarning favjlari joylashgan. Lekin chunon tikilsa ham undan naridagi qorovullarni ilg‘ab bo‘lmasdi”*(334-bet). Ushbu misolda Amir Temur qo‘shinining jang oldi tayyorgarligi tasviri berilmoqda. Askarlarning bo‘linmalarining nomlari turlicha bo‘lib, ular asosan askarlar soni va joylashish tartibiga ko‘ra shunday nomlangan. Quyida yana bir shunday misol bilan tanishamiz:

Jangda qaysi qo‘shin qayerda turishi, javong‘oru barong‘orlarning vaziyati, chag‘dovulu hirovullarning joylarini belgilash joiz. Shundan keyingina ulkan cherikning bo‘y-basti namoyon bo‘ladi (331-bet). Bu misolda ham jangga hozirlik ko‘rish tasviri ifodalangan bo‘lib, unda askarlarning jang maydonida qaysi joyda turib harakatlanishiga ko‘ra bo‘lingan qo‘shin turlarining nomi sanab o‘tilmoqda. Hozirda esa bunday qo‘shin turi mavjud emasligi bois bu istorizmlar asar matniga tarixiy koloritni to‘lig‘icha bera olgan deb aytishimiz mumkin.

Yana bir misol: “...sohibini yo‘qotgan isfahoniy qilichlar, o‘qlari sochilgan sadoqlar, yerlarga sanchilgan arabiy nayzalar, gurzilar, cho‘qmorlar uyumi qoladi...” (341-bet). Bu misolda jang tugaganidan keyingi holat tasvirlanmoqda. Unda o‘sha davrda foydalanilgan jang qurollari nomi keltirilmoqda.

Ting‘chilarim xabarlariga ko‘ra, Xitoyda yangi taxtga ming‘on fag‘fur podsho musulmonlarni xoru zor etib tashlabdi, xasga teng bilibdi (96-bet).

O‘nboshi, yuzboshi mingboshilar, barcha navkarlar bitta ham qolmay ro‘yxatdan o‘tsunlar va farmonimizni kutsunlar... (98-bet). Bu misolda esa harbiy ayg‘oqchining arxaiklashgan varianti “ting‘chi” hamda harbiy boshliqlar darajaviy lavozimlari keltirib o‘tilmoqda. Bunda eng quyi lavozim sonning kami, eng yuqorisi sonning ko‘pi bilan belgilanadi. Ya’ni, o‘nboshi – faqat o‘nta oddiy askar uchun boshliq bo‘ladi, yuzboshi – yuzta askar va ularning o‘nboshisi uchun, mingboshi – shuncha miqdorda askar, o‘nta yuzboshi va yuzta o‘nboshining ustidan nazorat olib boruvchi harbiy shaxsning lavozimi hisoblanadi.

Keyingi misolda o'sha tarixiy davrda iste'molda bo'lgan o'rin-joy nomlari keltiriladi: *Sohibqironning bemalol bir qasaba degulik muborak o'rdasi o'lanzor markazida o'rnashgan. Unda mahobatli shohchodir, hashamatli ko'shk, to'rtta so'lim saroparda ustunlari oltindan qilingan dabdabali shohona oq uylar qad ko'targan* (500-bet).

-Vey, yer ham saroparda, ko'k ham saroparda! Voy-bayov, olam-jahonni tutib ketibdi! Ko'hakdan, desang, to Shovdor tumanigacha har qadamda saroparda-yu borgohlar, hayma-yu xirgohlar... Amir Sohibqiron, hamma shahar ahli, qo'shinu askarlarga chodirlar tikilsun va askarlar o'z xotinlari, bolalari bilan borsunlar, deb buyuribdurlar! Har qaysi chodir bir shahzodaniki, yo amirniki, yo askarniki! Masofayam katta, salkam olti yig'och borov!(499-bet). Ko'rinib turibdiki, parchada keltirilgan tarixiylik bo'yog'iga ega bo'lgan bino nomlari kitobxonga "tarixiy makon" chizgilari va tasavvurini yaqqol namoyon etib bermoqda. Chunki bu turdagi binolar hozirgi kunda deyarli yo'q bo'lsa-da, avvalgi davrlarda asosiy uy-bino inshooti sifatida ulardan foydalanilgan. Quyida yana bir shunday "tarixiy makon" nomlari keltirilmoqda:

- Barcha bog'larda ham ustunlar Tabrizning oq marmaridan yasalgan, xonimoyim! - dedi Safarbergan. Bog'i Shimolning to'rt ustuni ham, Bog'i Dilkushoning o'rtasidagi uch peshtoqli ko'shk ham Tabriz oq marmaridan... Bog'i Bihisht saroyi ham... (104-bet).

Asardagi kiyim-kechak nomlari ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular orasida ayollarning o'ziga xos bosh kiyimi "xotuno'dana" o'ziga xos xususiyatlari bilan kishining diqqatini tortadi. Ularni quyidagi misollar orqali ko'rib o'tamiz: "...Mahdi ulyoning boshidagi qizil nafis matodan qilingan dubulg'anamo bosh kiyim xotuno'dana ham ajoyib edi: uning yelkaga tushib turgan turli qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan barlari to'lqin o'rgan tim qora sochlarini yashirib turardi. Tepasidagi bir tirsakka teng jig'aga zarrin iplar bilan bog'langan durlar qadalgan rang-barang patlar malika yurganda epkinda har yoqqa par-par bo'lib taralib, jilvagar manzara kasb etardi. Xotuno'danani ikki tomondan ushlashgan bir necha asilzoda oyimlar yonida baland bo'yli shukrchi kattagina oq shohi

soyabon ko'tarib olgandi." (508-bet). Ko'rinib turibdiki, "xotuno'dana" o'sha davrdagi aslzoda xonimlar kiyadigan shohona bosh kiyim bo'lib, hajmi biroz katta, unga ulangan "etak"lar ham uzun bo'lib, uni bir necha kishi ko'tarib yurishgan. Bu bosh kiyimni asosan to'ylarda, bazmlarda, bayramlarda kiyish urf bo'lgan. Bu davrda nafaqat ayollarning, balki erkaklarning ham o'ziga xos bosh kiyimlari bo'lgan. Ulardan biri "burnus" deb ataluvchi bosh kiyimi bo'lib, uni ko'proq kundalik hayotda, salla ichidan kiyiladigan bosh kiyim sifatida ko'ramiz. O'z o'rnida "burnus"ning ham o'sha davrda turli xil ko'rinishlari bo'lganligini quyidagi misol orqali ko'rib o'tamiz: "Burnus degan nozik hoshiyali cho'zinchoq bosh kiyim ustidan yengil qora salla o'radi, zarif bir suratda Qasri Ablaqqa, Amir Temur huzuriga jo'nadi." (261-bet). Qolaversa, asarda bosh kiyimlardan tashqari, ustki kiyimlarning ham o'ziga xos nomlari va turlari uchraydi: "Egniga chiroyli chechakli baxmaldan bir chakmannamo uzun kiyim kiygan, ustidan yengi kalta oq jubba tashlagan." (234-bet). "Jubba" so'zini ikki xil ma'noda tushunish mumkin: 1) ingichka simdan to'qilgan bo'lib, askarlarning urush vaqtida kiyadigan, yengi keng, kalta himoya kiyimi, 2) o'rta asrlarda urf bo'lgan, xuddi shu andozada, avra-astarning orasiga paxta solib tikilgan qulay va issiq kiyimni ham jubba deb atashgan.⁸⁶ Ammo bu atama ko'proq jang kiyimini ifodalovchi so'z sifatida adabiyotlarda tilga olinadi.⁸⁷

Mehmonxonaga mahdi ulyo Saroymulixonim bilan avra kimxob to'n kiygan, bir oz to'lishganiga qaramay xushqomatligi namoyon Xorazm malikasi qo'lini ko'ksiga qo'yganicha ta'zimda kirib keldi...(114-bet). Parchadan ma'lumki, o'sha davrda erkaklar va ayollar uchun turli xildagi chopon, to'nlarni kiyish urf bo'lgan. Bu esa o'z navbatida ularning har xil turlari ko'payishiga sabab bo'lgan. Ulardan biri Xonzoda xonim kiygan "avra kimxob to'n" hisoblanadi. Asarda bu davrda kiyilgan nafaqat ustki kiyimlar, balki, oyoq kiyimlari haqida ham ma'lumot olishimiz mumkin bo'ladi:

⁸⁶Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. - Тошкент: Шарқ, 1999. 142 б. 46-бет.

⁸⁷Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. - Тошкент: Университет, 2008. 236 б. 50-бет.

Uning oyog'idagi tovonni yeyilib, oqarib ketgan eski saxtiyon etikiga qarab uzoqdan yo'l bosib kelayotgan musofir deyish ham mumkin edi (395-bet). Misolda keltirilgan o'sha davrda urf bo'lgan oyoq kiyimining nomi "saxtiyon etik"dir. Bu nom tarixiy lug'atlarda uchramasada, asar matniga mos tushgani bilan ahamiyatlidir. Quyida bu arxaizm bilan bog'liq yana bir misolni ko'rib o'tamiz:

...Shohrux Mirzoni eslatadigan Ulug'bek Mirzo ham, undan bo'yi xiyol pastroq, g'ayratini o'ziga sig'dirolmaydigan, bir joyda turolmaydigan darajada pitrak, sho'x Ibrohim Sulton ham bir xil kiyimda edilar: oq yaktak ishtonda, boshlarida mimit yoqut qadalgan mitti toj, oyoqlarida qimmatbaho toshlar qadalgan qizil saxtiyon etikchalar...(30-bet).

Asarda uchraydigan kasb-hunar nomlari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki, ular ham tarixiy davrni aks ettirishda, unda amal qilgan siyosiy tuzum va ijtimoiy hayot tarzini to'laqonli ochib berishda katta o'rin tutadi. Buni asardan olingan parchalar orqali ko'rib o'tamiz: "Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon hazrati oliylari buyuradilar: qo'li qing'ir qassoblardan o'n kishi, baqqollardan to'qqiz kishi, alloflardan oltitasi, chitfurushlardan ikkitasi, ummolu muhassillardan yettitasi cho'bi yasoqqa yetkazilsun!" (498-bet). Parchada bir necha kasb-hunar nomlari sanab o'tilmoqda. Bu nomlar tarixiy davrga mosligi, ularning ayrimlari bugungi kunda, umuman, uchramasligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, ularga qo'llanilgan jazo turi "cho'bi yasoq" ham bugungi kunda mavjud emas. Bunday nomlarni asar matnida juda ko'plab uchratish mumkin.

Yana bir misol: "Shu palla favqulodda ikki yil avval Ko'ksaroyda Sohibqironning xos munshiy mavlono Haybatullohga qandaydir tuzukni daftarga tushirishni buyurayotgani yodiga tushdi"(33-bet). Bu misolda keltirilgan kasb nomi hozirgi kunda uchramaydi. Munshiylar hukmdorning xos kotiblari bo'lib, ular o'ta rasmiy va jiddiy ahamiyatga molik bo'lgan davlat hujjatlarini yozganlar. Bu saroyda katta nufuzga ega bo'lgan mansab hisoblangan. Bu lavozimda ishlagan munshiylar "munshiy" so'zini taxallus sifatida o'z nomlari ketidan qo'shib qo'yganlar.

Yana bir shunday nomga e'tibor qaratamiz: "Amir Temur nomani Mubashshir bahodirga tutqizib, bir jamoat dono kishilarga bosh qilib Yildirim Boyazidga yuborar ekan, savdoyi vasvasalarga muftalo Rum qaysari es-hushini o'nglab olishiga undan insof doirasida javob kelishiga aslo shubha qilmasdi, axir uni sermulohazakor, bosiq hukmdor deb eshitgan."(182-bet). Bu misolda "mubashshir" so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, uning birinchi ma'nosi "xushxabar keltiruvchi" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi "ish yurituvchi, ish boshqaruvchi"dir. Lekin, asarda bu so'z ko'pincha birinchi va ikkinchi ma'nolarida aralash holda kelganini ko'ramiz. Ammo, tahlillar shuni ko'rsatadiki, asarda so'zning ikkinchi ma'nosi ko'proq ishlatiladi. Bu so'z ham asar matniga tarixiy koloritni bera olgan deb aytish mumkin. Xuddi shunday nomlardan yana ba'zilarini tahlil qilamiz: "Yigirmaga yaqin qo'y, yaxshi bakovul, shuningdek bazmni gullatuvchi mashhur hofizu mashshoqlarni olib keldim..."(479-bet). Bu misoldagi bakovul so'zi podsho huzurida xizmat qiluvchi, uning askarlariga ovqat tayyorlovchi ishchi hamda lashkarlarga maosh va ulufa, ya'ni oziq-ovqat taqsimlash ham ularning zimmasida bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, bu ham saroydagi asosiy lavozimlardan biri sanalgan. Bu so'z ham asarning tarixiy davr bo'yoqlarini ochishda xizmat qilgan.

Xuddi shunday kasb-hunar nomlari qo'llanilgan yana bir misolni keltirib o'tamiz:

Keyin muhtaram bobosi tutumini eslab, hech kimga bildirmay, birov boqsa tanimaydigan, benom musofir qalandar yigitcha (Xalil Sulton – Ch.X.) bo'lib bozorlarni aylandi, baqqollikka bordi, g'alla kapponiga kirdi, gavjum go'sht rastalarini kezdi, kallapazlar, naddoflar, somsapazlar, mixchagarlar, chitgarlar, savatchilar, novvoylar do'konlari ham qolmadi. Muhassillar ishini pinhona kuzatdi, narx-navo bilan qiziqdi (372-bet). Bu misolda ham o'sha davrga oid kasb-hunar nomlari keltirilib, tarixiy zamon bo'yoqlari aks ettirilmoqda.

Asarda qo'llanilgan shunday istorizm va arxaizmlar borki, ularni biror guruhga kiritib bo'lmaydi. Quyida shunday so'zlarni tahlil qilib o'tamiz:

- Ko'shish qil, tezdan malikalar, nufuzli ashrof-akobirlar xotinlari, xushro'y kanizaklar Qoratepa tomonga borsunlar, Xorazm malikasi yo'liga chiqsunlar

(104-bet). Ko'shish THTLda "harakat qilish, urinish, g'ayrat ko'rsatish" ma'nolari borligi aytib o'tiladi.⁸⁸ Bu arxaiklashgan so'z hozirgi kunda nutqimizda qo'llanilmaydi. Shu jihatdan bu so'zni tarixiy asar matniga mos tushgan deyish mumkin.

"Nechuk chora qilsam? - qiynalardi ichida Xorazm malikasi. Shavharim Mironshoh Mirzo qilmishlarini birma-bir aytabersam, Amir Sohirqiron bilan xonimoyim qandoq qararkinlar?.."(117-bet). "Er, rafiq" ma'nosini ifodalaydigan "shavhar" so'zi ham bugungi kunda deyarli iste'molda emas. Demakki, bu so'z ham asarga tarixiylik chiziqlarini berishga xizmat qilmoqda.

-Qorovulning aytishicha, Sohirqiron Amir Temur Ko'ragonning muhtarama kelinlari Xonzoda xonim ug'ruqi emish!. Oldindagi tuya boshiga ana shunday tug'ro osib qo'yilibdi, o'shandan bilganmish (81-bet). "Ug'ruq" so'zining ma'nosini karvon deb olishimiz mumkin. Chunki, asarda bu so'z qo'llanilganda aynan karvonlar bilan bog'liq lavhalar ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Gurjilar o'zini g'olib hisoblab Tabrizga cherik surib yetsa, u esa chog'ir ichishdan o'zgaga yaramasa! (119-bet). Bu misolda mast qiluvchi ichimlikning arxaiklashgan nomi hamda askar so'zining ham arxaiklashgan "cherik" so'zi qo'llanilgan bo'lib, bu orqali tarixiy davrni ko'z oldimizda gavdalandirmoqda.

Ko'rinadiki, o'sha davrdagi jang qurollari, o'rin joy nomlari, kiyim-kechak va boshqa turdagi buyumlar nomidan foydalanib, asarning tarixiy davrni aks ettirish qimmatini yanada oshirilgan. Keltirilgan misollardagi istorizm va arxaizmlar asar matniga tarixiy bo'yoqlarni bera olganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida keltirilgan istorizm va arxaizmlar "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida faol qo'llanilgan bo'lib, asar voqealari tasvirlangan davr va ijtimoiy hayotning haqqoniy ifodasini ko'rsatishga xizmat qilgan. Yozuvchi o'sha davrga xos so'zlar ya'ni istorizm va arxaizmlardan o'z o'rnida foydalanib, tarixiy davr hayot haqiqatini yorqin aks ettirishga erishgan.

2.2. "Shohrux Mirzo" romanida dialektizm, vulgarizm va evfemizmlarning uslubiy xususiyatlari

⁸⁸ Дадабоев Х. Тарихий харбий терминлар луғати. - Тошкент: Университет, 2008. 236 б. 72-бет.

Ma'lumki, dialektizmlar shevaga xos so'zlar bo'lib, ular badiiy ijodda narsa, voqea va hodisaga mahalliy tus berish maqsadida qo'llanadi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo'llash tufayli dialektizmlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi. Ulardan o'rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta'sirchanligini oshiradi.⁸⁹ Qolaversa, ular badiiy asar tilining boy, jozibador va ta'sirchan bo'lishida muhim o'rin egallovchi vositalardan biri sifatida ma'lum bir ijodkor asarlarida voqelanadi.

Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo'lgan original so'zlar muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o'ziga jalb etadi. Dialektal so'zlarning o'ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy tekstda ma'lum darajada qo'llanilishi qonuniy hodisadir. Shunga ko'ra, bunday dialektal so'zlarning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materialini asosida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.⁹⁰

Adabiy tilda kam qo'llaniluvchi dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish uchun ham qo'l keladi. Deylik, o'zbek tilida so'zlashuvchilar tarqalgan hududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o'sha hudud kishilarigagina xos bo'lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va h.k.) ham mavjudki, bular birinchi navbatda sheva tilida o'z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo'yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.⁹¹ Mana shu jihatdan biz tadqiq etayotgan "Shohrux Mirzo" tarixiy romani matnida ham dialektizmlardan unumli foydalanilgan. Buni asardan olingan parchalar misolida ko'rib o'tamiz:

- *Hiroat urushining boshidayoq qattiq shikastlandim. Suron ichida qal'a devoriga chiqayotgandim, palakat bosib, narvondan pastga yiqilib ketdimku! Xudo*

⁸⁹ Vikipediya. Ochiq onlayn ensiklopediya: Dialektizm, O'zMEdan olindi.

⁹⁰ Тошхужаева Ш. Эркин Аъзам асарларида фонетик диалектизм ва унинг лингвопоэтик хусусиятлари. Филологические науки. Учений XXI века. 2015. №12. Б 66.

⁹¹ Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Маърузалар матни. -Андижон: АНДУ, 2000. 139 б. 42-бет.

bir saqladi (60-bet). Bu misolda adabiy tildagi “falokat” soʻzining shevaga oid varianti boʻlgan “palakat” soʻzi bilan ifodalanmoqda. Bu orqali esa personaj nutqining individuallashtirishini koʻrishimiz mumkin. Yana bir shunga oʻxshash parchaga eʼtibor qaratamiz:

- *Ogʻa, yodingizdamu, yaqinda Konigilda osh berdilaru Amir Sohibqiron?- dedi pahlavonkelbat yigit yonidagi oʻrta yoshlardagi gʻoʻlabirday odamga pishillagancha chelakni tuproqqa toʻldirib uzatar ekan (13-bet).*

- *Shu, deymanda, ogʻa, Sohibqironning ham armonlari bormikin? Xudo berib qoʻyganda! (14-bet).* Asardan olingan ushbu parchalar Samarqanddagi “Jomeʼ masjidi”ning qurilishi voqealari tasviridan olingan boʻlib, masjidning qurilishida ishtirok etgan Xorazmlik ustalar suhbatini bayon etilmoqda. Buni kitobxon parchadagi “aka” soʻzining shevadagi varianti “ogʻa” soʻzi qoʻllanilganidan bilib olishi mumkin.

-*Pirimiz, Amir Temur Koʻragonning ulugʻ pirlari quddisa sirruhu Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy xonaqohida bugun xudoyi. El oʻsha yerda. Qani shu yoqqa ketdik, - dedi chorpahil ekaniga qaramay harakatlari chaqqon mahalla imomi (57-bet).* Bu misoldagi “chorpahil” soʻzi “semiz”, “toʻladan kelgan” soʻzlarining shevadagi varianti hisoblanadi.

Boshqa chora yoʻqligidan qoʻshinni iyartib otlanishga mahkumu majburbiz. Bari xudodan (97-bet). Bu misolda esa adabiy tildagi “ergashtirib” soʻzining shevadagi “iyartib” varianti qoʻllanilmoqda. Bu ham personaj nutqining haqqoniy chiqishiga sabab boʻlmoqda.

Shayx Nuriddin bahodirku tanda qoʻyib shu yerda yotib olgan. Ana shunga hayronmanda...(14-bet). Bu misoldagi “tanda” soʻzi kasb-hunarga oid dialektik leksika boʻlib, u “mato toʻqish uchun uzunasiga boʻylama tortilgan ip” maʼnosini anglatadi.⁹² Bu orqali esa ishni nazorati ostiga olgan Shayx Nuriddin bahodir xuddi tandada qoʻyilgan ipdek mustahkam, hech qayerga qimirlamay turibdi degan maʼno anglashiladi. Bu dialektal leksika ham asar mazmunining emotsional-

⁹²Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдли, 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 687 б. 662-бет.

ekspressiv bo‘yoqlar bilan ta’sirchanligini oshirib, kitobxon o‘qiganda zavq bag‘ishlaydigan kayfiyatni hosil qila olgan.

Bormu g‘ayrat etagini tutgan, sovrunki zo‘rini kutgan manaman degan uloqchilar?.. Uloqqa odamning mard tushadi! Ot boqqaning uloqqa, qo‘y boqqaning qo‘noqqa...(155-bet). Bu misolda adabiy tildagi “mehmon” so‘zining o‘rniga uning shevadagi “qo‘noq” varianti qo‘llanilmoqda. Bu orqali ham tarixiy makon unga xos so‘zlar orqali ochib berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xudo yo‘l bersa, hech gapmas! - so‘zga qo‘shildi enaga Xoldona bibi. - Qo‘shsha-qo‘shsha ul ko‘ringiz! (159-bet). Bu misolda adabiy tildagi “o‘g‘il” so‘zi o‘rniga uning dialektal varianti “ul” (“u” cho‘zib aytiladi) qo‘llanilmoqdaki, bu orqali asardagi personaj - xizmatchi enaga Xoldona bibi nutqini individuallashtirishga harakat qilmoqda.

-Yildirim Boyazid majnun va telbalik jandasini egniga ilibdur! - dedi Amir Temur. U, aftidan, boshqacha javob kutgandi (309-bet). Bu misolda keltirilgan “janda” so‘zi “eski”, “yaroqsiz” so‘zlarining shevada keng qo‘llaniladigan varianti hisoblanadi. Bu so‘z birga ifodalanib kelinayotgan “majnun va telbalik” birikmasiga ham mos tushgan deb aytish mumkin.

-Xudo yetkazdi, qilichmisan qilich ekan, dastingdan ketay! - dedi salmoqlab ko‘rib. Qani, qinini ham buyoqqa cho‘z, qadriga yetish darkor, galvars! Senga endi kerak bo‘lmaydi...(170-bet). Bu parchada adabiy tildagi “ber” fe‘lining shevadagi varianti “cho‘z” so‘zi ishlatilmoqda. Bu so‘z orqali ham personaj nutqini individuallashtirilgan va asardagi vaziyatga xos nutq uslubini shakllantirilgan.

Tarixiy asar matnida makon va zamon, qahramonlar nutqini ifodalash va uni jonlantirishda uslubiy vosita sifatida nafaqat shevaga xos so‘zlardan balki, vulgarizmlardan ham unumli foydalanilgan. Asar tahliliga o‘tishdan oldin, avvalo, vulgarizmlar nima va ular asarda qanday maqsad uchun ishlatilishi haqida bilib olishimiz kerak bo‘ladi. Quyida shu savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, badiiy obraz konkretlik xususiyatiga ega. Shuning uchun asardagi personajlar aniq bir muhitda harakat qiladi. Muhitga mansublikni ifodalashda vulgarizmlarning ahamiyati katta. Muhit koloritini ifodalash bilan birga, ular personaj nutqini individuallashtirish, ruhiyatini ochish va umumiy

qiyofasini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.⁹³ Z. Abidova esa o'zining "Badiiy matnda varvarizm va vulgarizmlar lingvopoetikasi" deb nomlangan tadqiqot ishida vulgarizmlarga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: "Vulgarizmlar aslida nutqni nursizlantiruvchi, tinglovchi yoki o'quvchida salbiy munosabat uyg'otuvchi birliklar sanalsa-da, og'zaki va yozma nutqda ularning o'ziga xos o'rni mavjud. So'zlashuv nutqi bo'yicha kuzatishlar olib borgan professor B.O'rinboyev vulgarizmlarni ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra uch guruhga bo'lgan ekan: a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: esipas, lanj, latta, mazasi yo'q, xotinboz kabilar. Bunday so'zlarda so'zlovchining tinglovchiga salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati, jirkanishi kuchli ifodasini topgan; b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: ilonbosh, do'rdoq, qiyshiq, qo'tir, pataksoqol, paxmoq, surpaquloq, daroz, kabilar. Bunday vulgar so'z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o'xshatish natijasida paydo bo'ladi; v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: bachchag'ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, gumroh, xotin-taloq, galvars, kasofat, la'nati, tentak, iblis, bedavo, go'rso'xta, vaysaqi kabilar. Bunday vulgar so'z va iboralarga suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, g'azabi kuchli ifodalangan bo'ladi.⁹⁴ Bu guruhdagi vulgarizmlarni "Shohrux Mirzo" asari matnida ham ko'plab uchratish mumkin. Quyida ularning ayrimlarini tahlil qilamiz:

- *Shuncha yildan keyin uchrashib qolishganini! Voy, otangni arvoyi!.. Yigitlar taqdirning bunday sinoatidan tang qoldilar (59-bet).*

- *She'r ham zo'rda, to'qib qo'yganda o'ziyam, dastingdan ketay! - so'z qo'shdi Uchqora (58-bet).* Bu parchalarda keltirilgan o'ziga xos vulgarizmlar faqatgina asardagi personajlar nutqini individuallashtirish uchun qo'llanilgan bo'lib, "olaa, voy otangni arvoyi", vulgarizmi asarning qaysi o'rnida kelmasin, u albatta Yanaltekinga tegishli so'zlar ekanini darhol payqab olish mumkin. Ikkinchi misoldagi "dastingdan ketay" vulgarizmi ham asarning qaysi o'rnida kelmasin, u

⁹³Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. Маърузалар матни. -Андижон: АндУ, 2000. 139 б. 42-бет.

⁹⁴Abidova Z. Badiiy matnda varvarizm va vulgarizmlar lingvopoetikasi. M.D. – ToshDPU, 2011. 80 b. 44-bet.

albatta Uchqoraga tegishli soʻz ekanini payqab olamiz.

- *Maktubni yozgʻon zahoti ul betavfiqning yuziga otib yubormadingmu?...(56-bet).*

Yiroqlarda yurganingizni koʻrib battol Hovnikka bostirib kirdi, gʻaflatda qolgan Amir Atalmishni harami bilan asir olib Misr sultoni Barquqqa joʻnatdi. Xutbani ham sulton nomiga oʻqitdi badbaxt (107-bet).

Bu bilan Misr sultoniga sadoqati barobarida oʻzining kuch-qudratini ham namoyish etmoqchi. Badbaxtning tutumi sherning koʻziga tuproq sohib qochib qolgan shoqol holini eslatadi...(108-bet).

Xonzoda xonimning soʻzlari avj pardaga chiqqanda gʻazablangan Amir Temur: Esi yoʻq badbaxtni koʻringiz! - deya oʻrnidan turib ketdi (120-bet). Bu misollarda qoʻllanilgan vulgarizmlar kishining boshqa bir shaxs uchun bildirgan subyektiv munosabatini ifodalamoqda. Bunday vulgarizmlarning qoʻllanilishi orqali kitobxonga ularning qilgan nomaqbul ishlari va oʻzlarini risoladagidek tutmagani yorqinroq tasvirlab berilmoqda.

...gʻala-gʻovurda yaxshi eshitmadi chogʻi, keyin javob ham kutmay apil-tapil chelakka arqonni bogʻlarkan yuqoriga qarab qichqirdi: Anqayma! Tort!(13-bet).

-Hoy! Tuproqni chiqar!, -Xandaq tagi top-toza boʻlsin! -Hoy anqov! Arqonni tushirsangchi! - Chelakni tort! Chelakni!... - Chuqurroq kavla! (12-bet). Bu parchalarda Samarqanddagi Jomeʼ masjidining qurilish ishlari qizigan paytdagi kishilarning holati va nutqi hamda unda qoʻllanilgan varvarizmni tahlil qilar ekanmiz, koʻz oldimizda katta bino oldidagi yuzlab usta va meʼmorlar, ularning qizgʻin ish jarayoni koʻz oldimizga keladi. Bu jarayon albatta kishidan tezkorlik, epchillik va diqqatli boʻlishni talab etadi. Tabiiyki, vulgarizmlardan ham bu jarayonda foydalanish asarga yanada tabiiylik beradi.

-Nimaga buni soʻrab qolding? Polvon ishshaydi: -Sababi, bunday oyoqni uzatib aysh-ishratlarda davron surib, shirin-shirin taomlardan, devzira palovlardan yeb yotmaydilar mi bu oʻladigan dunyoda, deymanda (14-bet). Ayrim soʻzlarning salbiy maʼnosini ham vulgarizmlar deb olishimiz mumkin. Bu jihatdan

ular kishining tashqi holatini salbiy bo‘yoqlarda ifodalaydi. “Ishshaymoq” so‘zini ham xuddi shu ma’noda olishimiz mumkin.

“...qanday mukofot kutib turibdi ekan, balki, eshakka teskari mindiradilarmi, yoki soqol-mo‘ylabingni qirib, ayol libosiga burkab-chulg‘ab sazoyi qildiradilarmu, u yog‘ini xudo biladi...” - degan so‘zlar o‘tdi va eti yoqimsiz junjikdi (61-bet). Asarda arxaiklashgan vulgar birikmalardan ham keng foydalanilgan. Bu esa tarixiy asar matnini yanada to‘laqonli chiqishiga sababchi bo‘lgan. Qolaversa, bu tipdagi vulgarizmlar kitobxonni zeriktirmaydi. Qaytanga unga estetik zavq berishi bilan ajralib turadi.

-Yoshligigamas, bolaligiga, deng! Tentakligiga deng! - yozg‘irdi shahzoda (Muhammad Sulton – Ch.X.). Bu g‘irt bolaning tutumiku! (157-bet).

Betavfiq (Iskandar Mirzo – Ch. X.) ko‘rdiki, ish rasvoi jahon bo‘libdur, endi barini yumshatish uchun tuhfuni o‘ylab topib, qizlaru otlarni yuboribdur. Amir Sohibqironga ham hadya jo‘natgani–chi! Befarosatlik ham evi bilanda! Beboshvoq bola!.. (158-bet). Bu misollarda valiahd shahzoda Muhammad Sultonning o‘z inisi Iskandar Mirzoga qarata aytgan dashnomlari keltirilgan bo‘lib, bu vulgarizmlar orqali shahzodaning ruhiy kechinmalari, ayni damda inisining nomaqbul qiliqlari sababli chekayotgan alam-iztiroblari aks etgan.

- E “hmm”lamay o‘l! Ko‘rmayapsanmu? - koyib tashladi dugonasini Robiya begim. Sihhatini so‘ra... Yaxshi gaplardan gapir! (160-bet). Asarda qarg‘ish so‘zlari ham vulgarizmlar sifatida qo‘llanilib, bu ham qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini ochishga yordam bergan.

“Shahzodam, mendan xavotir olib, muborak safarlarini ham to‘xtatib ortga qaytibdurlar. Men noshud tufayli xayrli yumushlarini ado eta olmadilar...”, - deya iztirobga tushardi u (Sog‘inch xonim – Ch.X.). (162-bet). Vulgarizmlar ba‘zan asar qahramonlarining o‘ziga bergan nisbati, bahosi sifatida ham uchraydi. Buni Muhammad Sultonning sevimli rafiqasi Sog‘inch xonim nutqida ko‘rishimiz mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, Sog‘inch xonim yorini hatto o‘zidan ham ortiq yaxshi ko‘rishi, uni qiynalishi va noqulay vaziyatga tushishini hech ham xohlamaydi.

Yurganda ham o'zingni katta olmay yurgin, ovozingni past qilgin, chunki ovozlarning eng yomoni eshaklar ovozidir, deydi...(164-bet). Asarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlarni ham vulgarizmlar vositasida obrazli ifodalab berishga harakat qiladi. Bu esa aytilayotgan fikrning aniq ifoda semalari bilan tinglovchiga yetib borishini ta'minlaydi.

Axiy Jabbor bahodir Amir Tarmochuqni tanib ko'zi qinidan chiqib ketayozdi. "Voy ablah! Suv ilon! - dedi ichida Axiy Jabbor bahodir. - Hech narsani sezmaganday tutadi o'zini g'alamis! Endi mendan qutilib bo'bsan!" (167-bet). Parchada keltirilgan so'kinish vulgarizmlari orqali Axiy Jabborning Amir Tarmochuqqa nisbatan qanday munosabatda ekani, bu orqali Amir Tarmochuqning ayrim salbiy xarakter-xususiyatlari ochib berilmoqda.

-Ola!.. Voy, otangni arvoyi... - xezlanib qo'yadi Yanaltekin. Shahzodamga qo'l ko'tarmoqchi-ya! Qo'lingni uzib olaman, da'yus! Qo'lsiz qolasan! (170-bet). Bu parchada keltirilgan "da'yus" vulgarizmining salbiy ma'no bo'yodorligi kuchli bo'lganligi uchun uni valiahd shahzodani yaralamoqchi bo'lgan shaxs uchun qo'llanilmoqda.

Nutqda vulgar so'zlarni ishlatish nutq tuzuvchining tarbiyalanganlik darajasining tubanligini ko'rsatadi. Zotan, tarbiyalanganlikning mohiyati shaxsning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, madaniy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tartibotlarga so'zsiz va muntazam hurmat bilan qarashi va demakki, qat'iy amal qilishidan iboratdir.⁹⁵ Bu so'zlarning qanchalik haqiqatga yaqin ekanini quyidagi misol orqali ko'rib o'tamiz:

-Nega angrayasan? - dag'dag'a bilan qichqirdi Amir Sulaymonshoh jallodga. Boshingdan ajralmoqchimisan? No'noq! Kim seni jallodlikka qo'ydi o'zi?.. Anqaymasdan boshla! (175-bet). Bu parchadagi vulgarizmlar ham personaj xarakter xususiyatlarini ochish uchun ishlatilmoqda. Uning jallodga aytgan so'zlari orqali Amir Sulaymonshohning qanchalik bag'ritosh, diydasi qattiq, johil inson ekanini bilib olish mumkin.

⁹⁵ Abidova Z. Badiiy matnda varvarizm va vulgarizmlar lingvopoetikasi. M.D. – ToshDPU, 2011. 80 b. 44-bet.

-Yildirimni, menga qo'ysa, Bursaga eltib sulton saroyi oldida dorga osish kerak! - hapriqdi Mironshoh Mirzo katta-katta ko'zlari charaqlab. -O'zim tepasida turib osardim! Osgandayam, Sohibqironni haqorat etgani uchun, avval ichak-chavog'ini kallasiga salladay o'rab qo'yardim, keyin osardim! (355-bet). Bu parchada keltirilgan vulgarizmlar asar qahramonlaridan biri Mironshoh Mirzoning xulqi, fe'l-atvori va saviyasini ko'rsatib bermoqda. Uning nutqida qo'llanilgan bu vulgarizmlar ayni Mironshoh Mirzoning shoshqaloqligi, tezda va o'ylamasdan qaror qabul qilishi, gapirishi kabi xarakter xususiyatlarini ochib bera olgani bilan ahamiyatlidir. Yana bir shunday misolni ko'rib o'tamiz:

Bas, bizning tomonga o'tlanmog'ingiz muqarrardur! Agar kelmasangiz... xotinlaringiz uch taloq bo'lsun! Kelsangizu men (Boyazid Yildirim – Ch.X.) jangga chiqmay qochsam, u vaqtda men xotinlarimni taloq-s-salosa — uch taloq qilaman! (308-bet). Bu misolda Rum podshosi Yildirim Boyazidning yuzsizlarcha Amir Temurga yozgan javob xatida “uch taloq” vulgarizmidan foydalanib, dushman tomonni nechog'lik darajada past nazar bilan qarashini ko'rsatib berish bilan birga sulton Boyazidning kaltafahm va uzoqni ko'ra bilmaydigan, murasozlik qilish qo'lidan kelmaydigan, o'ta darajada dimog'dor va kekkaygan, birovlariga bilmasdan baho berib, ularni oyoq uchida ko'rsatadigan shaxs ekaniga ishora qilinmoqda. Chunki, uning javob maktubi o'qilganda kishilarda yuz bergan birinchi holat shunday tasvirlanadi: “Kishilar ko'nglidan: “Boshqa qasam qurib ketganmu?”, “Nega xotinlar oraga kiradi?”, “Suyaksiz til nimalar demaydi?..” qabilida afsus-nadomatlarga to'la xayollar kechdi(309-bet)”. Bu jumalalar sulton Boyazid haqidagi fikrimizni to'la tasdiqlaydi.

-Sen pandavaqini bir ko'rsin, deb chiqqanda bu yulduz, dastingdan ketay. U bo'lar bo'lmasga chiqavermaydi. Lalayib o'tirib o'tkazib yubording...

-Ola! Lalayib o'tirgan emishmana...

-Esa-chi! Mahkam dumidan ushlab olish kerak edi, xumpar. Yana qachon uchadiyu...Osmonlarni tomosha qilib olarding...

-Voy, otangni arvoyi! – xoxoladi Yanaltekin. Soddaligingga qoyile! Axir yerga tushib ketamanku, ushlab olsam, jinni! Uning dumini silliq deb eshitganman, qo'lda turmas emish... Kulgi ko'tarildi (321-bet). Bu parchada asar

qahramonlari bo‘lmish Uchqora va Yanaltekinlarning suhbat berib o‘tilmoqda. Ularning nutqida vulgarizmlarning juda ko‘p ishlatilishi orqali bir-biriga bo‘lgan munosabati, personajlarning tarbiyalanganlik darajasi ochib berilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bir-birini tanishlik, yaqinlik, munosabatlarda erkinlik darajasi ham yoritib berilmoqda. Qolaversa, ularning nutqini individuallashtirishga ham xizmat qilmoqda.

“- *Jahon Sulton begim Hazrat oyoqlariga otilib yig‘labdilar: “Bir ipirisqi ayol boyimni tortib oldi. O‘sha birovdan qolgan olqindini bizdan afzal sanadilar. Bu isnodni qanday ko‘tarib yuramen?”. Jahllari chiqqan Hazrat darhol o‘sha ayolni olib kelishlarini buyuribdilar”*. Bu misoldagi kanizak Shodimulkka nisbatan aytilgan “ipirisqi”, “birovdan qolgan olqindi” kabi vulgarizmlar tamomila salbiy ma‘no kasb etib, tinglovchida bevosita unga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otish uchun xizmat qilmoqda.

Yozuvchi asarda nafaqat qo‘pol va dag‘al so‘zlar bo‘lgan vulgarizmlardan, balki, aksincha, xuddi shunday so‘zlarni chiroyli va odob bilan aytilishini ta‘minlovchi evfemizmlardan ham unumli foydalangan. Dastlab evfemizmlarning nutqda qanday paydo bo‘lgani haqida ilmiy adabiyotlarda shunday fikr yuritiladi: evfemizm so‘zi grekcha *euphemio* so‘zidan olingan bo‘lib, “yumshoq gapiraman” degan ma‘noni anglatib, ular til taraqqiyotida shu tilda so‘zlashuvchi xalq ruhiyati bilan bog‘liq holda shakllanadigan lug‘aviy birliklardir. Evfemizmlar odatda, tilda biror aytilishi noqulay bo‘lgan so‘z yoki ibora (tabu) o‘rnida boshqa so‘z qo‘llash orqali uni yumshatish asosida yuzaga keladi. Bu, asosan, uch yo‘l bilan amalga oshiriladi: 1) ochiq aytish man qilingan, ta‘qiqlangan (tabu) so‘zlar o‘rnida boshqa so‘zlar qo‘llash; 2) nutqiy muomalada (nutqiy odob nuqtai nazaridan) aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlarning o‘rnini almashtirish; 3) ochiq aytish mumkin-u, biroq etik-estetik talabga mos kelmaydigan so‘zlarning almashtirilishi.

Ochiq aytish man etilgan yoki noqulay hisoblangan, odobsizlik axloqsizlik sanalgan, tasavvurda qo‘rqinch noxushlik uyg‘otadigan, hamma vaqt ham ochiq talaffuz qilaverish mumkin bo‘lmagan so‘z va iboralarning yashirin, beozorroq tusga kiritib aytish, mumkin qadar “pardali” tarzda bayon etish evfemizmlardir.

Shuningdek, bu kabi tilda azaldan oʻrnashib qolgan lisoniy evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq talabi bilan yuzaga keladigan kontekstual (matn ichida anglashiladigan – tagmaʼnoli) evfemizmlar ham mavjud. Evfemiya ham semantik-funksional hodisa boʻlganligidan, tilning biror sathida yashay olmaydi - u nutqda “tirik”, uning maʼno-mundariyasi muayyan nutqda reallashadi.⁹⁶ Koʻrinadiki, maʼnosi kontekstda roʻyobga chiqadigan (tagmaʼnoli) evfemik vositalar alohida olinganda hech qanday uslubiy boʻyoqqa ega boʻlmaydi.

Evfemik vositalar aytish nojoiz boʻlgan, tabulashtirilgan soʻzlar oʻrnida qoʻllaniladigan soʻz va iboralar emas, balki kishilarning kundalik turmushida eng faol qoʻllaniladigan, umumisteʼmoldagi koʻlami keng nutq birliklaridir. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, evfemik vositalar nafaqat aytish man etilgan, mumkin boʻlmagan narsa, predmet, voqea-hodisaning nomini yashirish maqsadida, balki madaniy, badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang koʻrinishlarini yaratishda xizmat qilar ekan.⁹⁷

Axloqiy va madaniy jihatdan qoʻllanilishi taʼqiqlangan yoki noqulay deb topilgan soʻzlar oʻrniga boshqa soʻz va iboralarning qoʻllanishi evfemizmlar deyilar ekan, ular, jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida dagʻal, qoʻpol, noqulay soʻzlar oʻrniga yoqimliroq, silliqroq soʻzlarni ishlatish hodisasi ham evfemizm koʻrinishlaridandir.⁹⁸ Quyida “Shohrux Mirzo” tarixiy romani matnida ham qoʻllanilgan evfemizmlarning ayrimlarini tahlilini koʻrib chiqamiz:

Toʻgʻri, ovda yurganda otdan yiqilib miyasi chayqalgan, degan gaplar yuradi. Afsuski, Axiy Jabbor bahodir bu hodisani oʻz koʻzi bilan koʻrmagan. Muolajadagi xato sababidan dimogʻida xalali voqe boʻlganmish (54-bet). Bu misoldagi arxaiklashgan “xalali voqe boʻlmoq” evfemizmi aslida ogʻir kasalga nisbatan ishlatilsada, ammo, uni yengil qilib aytish uchun ushbu birikmadan foydalanilmoqda. Quyida kasallik vaziyati bilan bogʻliq yana bir misolni koʻramiz:

-Amir Sohobqiron, bir qoshiq qonimdan kechsunlar!.. -Kechdum! Soʻzla!

⁹⁶Омонтурдиев А. Эвфемик воситаларнинг функционал услубий хусусиятлари. НДА. – Тошкент, 1997. – 26 б.

⁹⁷Омонтурдиев А., Раймнарзорова Н. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. -Termiz: TerDU, 2010. 136 b. 80-83-betlar.

⁹⁸Зокиров М., Набиева С. Tabu va evfemizm hodisasi xususida. Филологические науки. Фергана, Узбекистан. Nauchniy konferensiyi, <https://iscience.in.ua/arkhyv/26-27-ianvaria-2016/filologicheskie...5/1282-tauu-1>

- Valiahd shahzoda Muhammad Sulton janoblariga ozgina daydi shamol tegib, andak marazi voqe bo'libdur...(419-bet). Dialogda keltirilgan soʻzlardan maʼlumki, Sohibqironning eng yaxshi koʻrgan nabiralaridan biri valiahd shahzoda Muhammad Sulton hisoblanib, u haqida nojoʻya xabar yetkazish va uni kutilmaganda aytish Amir Temurga juda qattiq taʼsir qiladi. Mana shu jihatlarni hisobga olgan xabarchi valiahd shahzodaning sihhati haqida evfemik vositalardan foydalangan holda xabar yetkazadi. Bu orqali esa eshituvchida “jiddiy kasallik emas ekan” degan tushuncha paydo boʻladi va nisbatan xotirjamligini saqlab qoladi.

- Olam shahzodasining dimogʻiga buxori urib marazi sarʼa paydo boʻlibdur...
- javob qildi bosh tabib. -Yaʼni muborak nafaslari miyaga urib ketmakda, oʻsha sababli shamollash yuz beribdur (434-bet).

Ikki oycha avval *Qorabogʻda ekanlarida pirimda noxush maraz voqeʻ boʻldi, tabiblarning chandon muolajalari naf bermadi. Amir Sohibqiron bisyor iztirobda qoldilar. Soʻng pirning soʻngakini Andxoyga eltib omonat qoʻysunlar, deb amr etdilar...*(467-bet). Yuqorida keltirilgan ikkita misolda ham “kasallikka chalingan, xasta boʻlgan” soʻzlarining oʻrniga “noxush maraz voqe boʻlgan”, “muborak nafaslari miyaga urib ketgan” kabi birikmalar qoʻllanilib, nutqdagi dagʻallik ifoda semasini beruvchi birikmalar oʻrniga silliq iboralar qoʻllanilgan. Yana shunday misollarni koʻrib oʻtamiz:

- *Oʻzimni ogʻir sezamen, oyijonim... qoʻrqamen...*

- *Boʻyida bor ayol yomon narsalarni oʻylamaydur, - yupatdi Xorazm malikasi. -Yaratganning oʻzi qoʻllasun, kelinjonim. Yaxshi niyat qilingiz! (160-bet).*

Lekin ruhi tushkun shahzodani Samarqandda ham noxush hodisa kutardi. Ogʻirboʻy Sogʻinch xonimning bolasi tushib qolibdi!.. Malikaning sogʻligʻi ham uncha durust emas emish...(161-bet).

Boshga tushgan nogahon fojia kishilarni jipslashtirganday, ikkiqatlik voqeasi ham ikki yosh qalbni bir-biriga ortiq yaqinlashtirdi (243-bet). Bu parchalarda keltirilgan “boʻyida bor”, “ogʻir boʻy”, “ikkiqat” kabi evfemik soʻzlar ayol

kishining homilador (bo‘g‘oz)lik jarayonini ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Qolaversa, asar matniga uslubiy rang-baranglik berib, aytish nojoiz bo‘lgan tushunchani turli xil nomlar bilan ifodalamoqda.

Keyingi paytlarda Sohibqiron negadir o‘g‘li Jahongir Mirzo, qizi Oqa begim va nabirasi Muhammad Sultonni tez-tez eslar, esladi deguncha, ko‘zlariga yosh olib: “Erta ketgan chechaklarim...” - deb yig‘lar, ko‘nglini bo‘shatardi (517-bet). Parchada Amir Temur tilidan o‘g‘li, qizi, nabirasiga qarata aytilgan “erta ketgan chechaklarim” evfemik birikmasi “o‘lmoq” so‘zining “sinonimi” sifatida qo‘llanilmoqda.

-Saltanatning nufuzli malikasi o‘z holicha kelsalar... Hali Amir Sohibqirondan dashnomlar eshitsak hayron qolmaymen. Axir kutib olardik...(83-bet). Bunda “dashnom” so‘zi evfemik vosita sifatida kelmoqda.

-Ko‘nglimizda Xitoy kofirlariga qarshi yurishdek ko‘pdan yaproq yoza olmay yotg‘on orzumiz bor, ul mamlakatda musulmonlar holi aftoda ekani haqida xabarlar yetmakda...(95-bet). Holatlarni ifodalovchi evfemik so‘zlar qatoriga misolda keltirilgan “holi aftoda” birikmasini kiritish mumkin. Kontekst bo‘yicha qaraganda bu birikma “holi xarob”, “holi yomon” birikmalariga nisbatan evfemik birikma sanaladi.

Xonzoda xonim Mironshoh Mirzoning mash‘um maktubidan so‘z ochmoqchi bo‘ldiyu, o‘lgan ilonlarning boshini qo‘zg‘ab yuramenmu, o‘zlari bundan gapirmadilar, kengfe‘l odam, amirzodaning sarxushlikdagi bir “sho‘xligi” sifatida e‘tiborsiz qaradilar shekilli, deb o‘yladi (122-bet).

Mabodo, Sohibqiron eshitib: “O‘g‘lim shundog‘ noma‘qulchiliklarga bordimu?.. Qars ikki qo‘ldan chiqadur, o‘zingizdan ham biron ayb o‘tg‘ondir, onaqizim?”, -desalar, unda nima degan odam bo‘ladi?(117-bet).

Shunchalar ham beparvolikka (“esi yo‘q”, deyishiga oz qoldi!) boradimu odam degan! Avvaldan o‘ylash kerak edi, amirzodam! Bir ishga kirishishdan oldin chiqishni o‘ylab qo‘y, deydilar Amir Sohibqiron...(145-bet). Bu ikkala misolda ham Mironshoh Mirzoning nomaqbul ishlari, tutumi, xarakteri parda ostiga olinib

ta'rif berilmoqda. Uchinchi misolda esa, unga bo'lgan munosabat xuddi shunday parda ostiga olinib, evfemik birliklar bilan almashtirib qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari evfemizmlar asar matnida kishi tana a'zolariga nisbatan ham qo'llaniladi: *Ko'ksidagi sehrlarga to'la, yarashimli ikki anori yashiraman degani sari, do'ppayib, amirzoda aqlini o'g'irleydi (398-bet).*

Oila a'zolarining nomlari ham evfemik so'zlar vositasida voqelanadi. Ulardan yana birini ko'rib o'tamiz:

Malika, yarim yil oldin Xudoydod Husayniyning o'g'liga uzatilgan dugonasi yosh kelinchak Zubaydabonuni ham Keshga taklif qildi. "Boyinqdan ijozat bo'lurmi?"- deb so'radi. "Voy! Boyimdan ruxsat kerakmi?"- deydi kuldirib (78-bet). Parchada "boy", "boyim" so'zlari "er" so'zining kontekstdagi evfemik varianti vazifasini bajarmoqda. Bu orqali aytilishi noqulay, qo'pol bo'lgan so'z va tushunchalarni bemalol qiynalmasdan aytish imkoniga ega bo'lmoqda.

Tabib ko'rib: "Xudoning o'zi shifo bersin..."dan nari o'tmadi. Amir Allohddod og'asining boshida o'tirib yelpib chiqdi. Kechasi bilan ko'zi ilinib-ilinmagan Amir Sayfiddin neko'z tong g'ira-shirasida jon omonatini o'z egasiga topshirdi (293-bet). Bu misolda evfemik birikmalardan "xudoning o'zi shifo bersin" deyilganda, bu birikma zamiridagi "biz hamma choralarni qo'llab bo'ldik, qo'limizdan boshqa hech narsa kelmaydi", "bemorning ahvoli juda og'ir", "biz bu dardni oldida ojizmiz" kabi birikmalar parda ostiga olinganini ko'rishimiz mumkin. "O'ldi" so'zining o'rniga esa "jon omonatini o'z egasiga topshirmoq" evfemik birikmasi qo'llanilmoqda.

Qolaversa, asardagi bu evfemik vositalar asosida nutqiy-uslubiy rang-baranglik sodir bo'lmoqda va shu bilan bir qatorda nutq egalarining madaniy saviyasini ham ko'rsatib bermoqda. Bu vositalar asarda qaysidir ma'noda kontekstual sinonimlarni ham vujudga keltirmoqda. Bular esa yuqorida aytib o'tganimizdek, asardagi qahramonlar nutqi orqali amalga oshadi.

2.3. Bobning qisqacha xulosasi

Ikkinchi bob yuzasidan beriladigan xulosalar shulardan iborat:

1) tarixiy asar, umuman badiiy asar matnida uslubiy chegaralangan soʻzlardan foydalanish asarga oʻziga xos makon va zamon, ularda harakat qilayotgan qahramonlarning individual nutqini, xarakter xususiyatlarini ochib berish, ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi;

2) tarixiy asarda, ayniqsa, istorizm va arxaizmlardan uslubiy vosita sifatida foydalanish asarning haqqoniy chiqishi, tarixiy davr muhitini aniq ochib berishi, asarga sof tarixiy boʻyoqlarni bera olishi va kitobxonni bevosita koʻz oʻngida oʻsha davrning manzarasini yaqqol chizib bera olishi bilan ahamiyatlidir. Qolaversa, bu vositalar tilimizda yoʻq boʻlib borayotgan ayrim soʻzlarni qayta yodga olishimizga, ularni tamomila isteʼmoldan chiqib ketmasligiga sabab boʻladi;

3) asarda dialektizm, vulgarizm, evfemizm kabi uslubiy chegaralangan soʻzlarning ham oʻrni benihoya katta boʻlib, ular asosan personaj nutqini individuallashtirishda, makonga mansublikni ifodalashda va personajlarning murakkab ruhiy holatlari tasvirini berishda, qolaversa, nutq egalarining madaniy saviyasini ochib berishda ham keng qoʻllaniladi.

Bu vositalarning hammasi badiiy asar tiliga oʻziga xos jozibadorlik berib turadi. Tarixiy asar matniga shunday jozibadorlik berib turuvchi eng muhim vositalardan yana biri bu tarixiy onomastik birliklar sanalib, quyida ularning tahlili bilan shugʻullanamiz.

UCHINCHI BOB. “SHOHRUX MIRZO” ROMANIDA TOPONIM VA ANTROPONIMLARNING USLUBIY QO‘LLANILISHI

3.1. “Shohrux Mirzo” romanida toponimlar uslubiy vosita sifatida

“Shohrux Mirzo” tarixiy romanida qo‘llanilgan toponimlar haqida so‘z yuritishdan oldin, dastlab, toponimlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Manbalarda aytilishicha, toponimika (yun. topos - joy va onyma - ism, nom) - onomastik joy nomlari (geografik atqqli nomlar)ni, ularning paydo bo‘lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o‘zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o‘rganuvchi fan bo‘limi hisoblanadi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui - toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq saqlangan bo‘ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg‘uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.⁹⁹

Boshqa bir ilmiy adabiyotda ya’ni A. Turobovning “Samarqand etnonim va etnooykonimlari” nomli monografiyasida toponimlar va ularning turlari haqida quyidagicha ma’lumot berib o‘tiladi: Toponimlar ulkan jug‘rofiy obyektlardan tortib mayda obyektlargacha bo‘lgan joylarning nomlarini toponimlar tizimi o‘zida mujassamlashtiradi. Shu xususiyatga ko‘ra, ular makrotoponim va mikrotoponimlarga bo‘linadi. Makrotoponimlarga yirik obyekt-qit’a, mamlakat, o‘lka, okean, dengiz, daryo, tog‘, respublika, viloyat va shaharlarning nomlari kiradi: *Osiyo, Ovropa, Sultoniya, Xuroson, Jeta, Hind, Sheroz, Ashpara, Qofqoz, Orol, Sirdaryo, Zarafshon; Pomir, Turon; Vizantiya, Samarqand, Tayobod, Qandahor* kabilar.

Mikrotoponimlar esa tepalik, qir, hovuz, jilg‘a, ariq, mahalla, guzar kabilarning nomlaridir. Bu jihatdan biz tadqiq etayotgan “Shohrux Mirzo” tarixiy

⁹⁹ Vikipediya, ochiq onlayn ensiklopediya. Ad..Nikonov V. A., Vvedeniye v toponimiku, 1965; Murzayev E. M., Ocherki toponimiki, 1974.

romani matnida tarixiy davrni aks ettirishga xizmat qiluvchi qal'a (*Ashpara qal'asi, Ayntob, Baalbek, Ixtiyoriddin qal'asi, Bihishti qal'asi, Hovnik, Kemox, Nag'ar qal'asi, Qasri Ablaq*), saroy (*Al-Humro saroyi, Davlatxona saroyi, G'ozonxon saroyi*), bog' (*Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Bihisht, Bog'i Davlotobod, Bog'i Dilafro'z, Bog'i Dilkusho, Bog'i Eram, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Naqshi Jahon, Bog'i Nav, Bog'i Shahr, Bog'i Shimol, Siymin bog'*), madrasa (*Al-Azhar, Az-Zohiriya, Bibixonim, Inja Minor madrasasi, Muhammad Sulton madrasasi, Odiliya, Qamhiya, Sadr Sulaymon madrasasi*), darvoza (*Iroq, Malik, Ohanin, Qipchoq darvozasi*), minora (*Ali Asad minorasi, Arslonxon, Horiq, Shomaniyon minorasi*), qabriston (*Chokardiza, Qiydor payg'ambar qabristoni, Shohi Zinda mozori*), masjid (*Masjidi Umayya, Nuriy jome' masjidi, Quvvat ul-Islom masjidi*) va shu kabi topnimik nomlarni shartli ravishda mikrotoponimlar guruhiga kiritish mumkin.

Makrotoponimlar uzoq yashaydi, mikrotoponimlar esa tilda uzluksiz paydo bo'lishi va ayrimlari tez-tez almashinib, o'zgarib turishi bilan farq qiladi. Bugungi kunda toponimika fanining oldidagi muhim vazifalardan biri, qadimgi joy nomlarini to'plash va almashib ketganlarini yana qayta tiklashdir. Bu xalq tarixini va ma'naviyatini ham tiklash hisoblanadi.¹⁰⁰ Bundan tashqari, toponimlar qanday va qaysi turdagi obyektning nomi ekanligini anglatishi jihatidan ham bir necha turga bo'linadi:

1) oykonimlar tarkibiga shahar, qishloq, ovul, guzar nomlari kiradi. Toponimikaning ma'lum hudud oykonimlari tizimini o'rganadigan bo'limi oykonimika deb yuritilar ekan, uning tarkibidagi qishloq nomlari, shaharlar nomi, shahardagi obyektlar nomi; viloyat, o'lka, tuman kabi bo'linishlar nomlari oykonimikaning tadqiqot obyektiga kiradi.

Tadqiq etilayotgan "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida ham bunday oykonim turlarining nomlari ko'plab uchraydi. Xususan, a) shahar nomlari: *Chamankent, Eskishahr, Kadis shahri, Kumushkent, Madina, Makka, Oqshahar, Qarshi,*

¹⁰⁰Туробов А.М. Самарканд этноним ва этноойконимлари. Монография. – Самарканд: СамДЧТИ, 2002, 5-6-бетлар.

Samarqandi Firdavsmonand, Shahrisabz, Sheroz, Shibirg'on, Shoxruxiya shahri, Tanja shahri, Tarozi, Tayobod, Termiz, Tirnova shahri, Toshkand, Xodar shahri, Xoms shahri, Yangishahr, Yassi shahri, Yorkent va boshqalar; b) ovul, guzar, mahalla nomlari: *Ark mahallasi, Kichik Burlag' mavzeyi, Musallo mavzeyi, Musarrax mavzeyi, Pattakesar guzari, Qorabog' mavzeyi* va boshqalar.

2) toponimlarning ikkinchi yirik toponimik guruhi oronimlar hisoblanadi. Oronimlar - yer yuzasining relyef shakllari - tepaliklar, qirlar, qoyalar, cho'qqilar, tog'lar va shunga o'xshash obyektlarga atab qo'yilgan nomlardir. Bu guruhga kiruvchi nomlar ham "Shohrux Mirzo" tarixiy romani matnida ko'plab uchraydi hamda asardagi voqealar kechayotgan makon va tabiat tasvirini gavdalantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda quyidagicha oronimlar uchraydi: *Feruzko'h, Oqtosh, Qoratepa, Taxi Qoracha dovoni, Zarafshon tizmasi, Ulug' Yulduz vodiysi, Ulutov, Urgut tog'lari, Ko'hak tepaligi, Gurjiston tog'i, Hindikush tog'lari* va shu kabilar;

3) onomastik birliklarning uchinchi toponimik guruhi gidronimlar bo'lib, ular suv va suv bilan aloqador jug'rofiy obyektlarning atoqli otlari hisoblanadi. Bunday guruhga kiruvchi quyidagi toponimik nomlar "Shohrux Mirzo" tarixiy romani matnida ham uchraydi: *Sayxun, Jayxun, Dunay, Qulzum dengizi, Malik daryosi, "Qutlug' Xotun" arig'i, Sho'rbuloq, Tarak daryosi, Qunduzcha daryosi, Ko'hak, Qipchoq daryosi* va boshqalar.¹⁰¹

Topnimlarni asardan olingan quyidagi parchalar orqali ko'rib, ularning ayrimlarini tahlil qilamiz:

Hulokuiylar poytaxti Sultoniya tabiati ajoyib emish. Bir qiziq voqeadan xabar beribdurlar. Sultoniyaning o'ng tarafida tog'larda baland cho'qqilar bor, eng balandini «Qiz siynasi» deb ataydurlar. Shahar bino bo'libdiki, hali hech kim bu cho'qqini qorsiz ko'rmag'on, hamisha xuddi jannatdan yog'ilg'onday oppoq qorlarga burkanib yotadur (74-bet). Asarda keltirilgan bu joy nomi relyefning joylashuvi va tashqi ko'rinishi, uning xususiyatlaridan kelib chiqib, obrazli tarzda berilgan toponimik

¹⁰¹Туробов А.М. Самарканд этноним ва этноойконимлари. Монография. – Самарканд: СамДЧТИ, 2002, 5-6-бетлар.

obyekt hisoblanadi. Bu toponimlarning oronimlar guruhiga kiruvchi, ya'ni tog'lar va cho'qqilarning nomini bildiruvchi joy nomlari guruhiga kiradi.

Oronimlar bilan bog'liq misollardan ma'lumki, ular o'zi ifodalagan joy nomiga odatda, qo'shimcha tarzda so'z oxirida qo'llaniladi.

-Xuroson, Seiston, Mozandaron va Ray, to Feruzko'hgacha barcha muzofotlarni nekbaxt amirzoda Shohrux Mirzoga baxshida etduk! - dedi Sohibqiron (53-bet).

Ular ulkan qo'shinni ko'rikdan o'tkazgani barcha sarkardalar, beklar, o'nboshi, yuzboshilar yig'ilgan, lashkargoh qilib belgilangan, sipohning beadadligidan qaynab-toshgan Konigilga borisharkan, ro'baro'da o'lanzor yaqqol ko'rinadigan Ko'hak tepaligida to'xtadilar. Amir Temur shu yerdan turib bepoyon Konigilga boqib zavqlanishni yoqtirardi (136-bet). Bunda har ikki oronim tarkibida ham shu guruhga mansublikni ifodalovchi "ko'h" so'zi qo'llanilmoqda. "Ko'hak" oronimi hududidagi daryo nomi ham shu nom bilan atalganini quyidagi misol orqali ko'rish mumkin:

Ko'hak daryosi hozir o'sha Dajlaga o'xshab ketdi. Mavjlangan Ko'hak suvlari ham o'yiqlar paydo qilar, keyin nariroq borib yo'qolib ketar yana girdoblar yasardi...(166-bet). Ko'rinadiki, tog' nomi bevosita o'sha hududga tegishli bo'lgan daryo nomini ifodalash uchun ham xizmat qilmoqda. Bunda toponim daryoning o'ziga xos nomini emas, balki, qaysidir hududga tegishli daryo ekanini bildirishga xizmat qiladi.

Ko'z oldida hamon o'sha nozanin... Amirzoda nazarida, u bu zaminda tug'ilmagan, balki parilar makoni Ko'hi Qofda dunyoga kelgan. Ichida bir o't yondiyu, o'chmay qola qoldi (296-bet). Yozuvchi asarda afsonaviy oronimlardan ham unumli foydalanib, uning badiiyatini boyitishga harakat qilgan. Bu nomning ham tarkibida "ko'h" so'zining qo'llanilishi orqali geografik obyektning tuzilishi va u bilan bog'liq tasavvurlar berib o'tilmoqda.

Asarda ulkan shaharlarning nomlari, ular bilan bog'liq afsonalar, ularning tarixi haqida personajlar nutqi orqali aytib o'tiladi. Xuddi shunday shaharlardan biri bu azim Hirot shahri hisoblanadi. Xuroson viloyatining voliyi Shohrux Mirzo

bu shaharni yaxshi ko'rgani bois, u haqida doimo ma'lumotlar to'plashni yoqtirar edi. Asarda uning tilidan Hirot shahri haqida shunday ma'lumotlar berib o'tiladi: *"Hirot ham dunyoning ko'hna shaharlaridan ekan. Rivoyatga ko'ra, shaharni Peshdodiylar sulolasi vakillaridan biri quribdi, keyin Gishtasp, Baxman singari podshohlar davom etdiribdi. "Ajoyib albuldon" kitobida yozilishicha, Iskandar Zulqarnayn uni vayronaga aylantiribdi, so'ng yangidan tiklabdi, qal'a devorining uzunligi to'qqiz ming qadamga borarkan. Jahongir, odatda, shamol tinimsiz esadigan yerlarda shaharlar bunyod etishni xush ko'rarkan... Hirotda chindan ham shimol yoqdan muntazam shabada esib turadi. Ayniqsa, jazirama yoz oylarida bunday shabada jonning rohatiga aylanadi.*

Qizg'in musohabalardan birida hamisha qisq ko'zlari kulib turadigan Mavlono Ubaydning chertib-chertib aytgan shunday so'zlari Shohrux Mirzoning hech esidan chiqmaydi:

Solnomalardan ma'lumdurkim Amirzodam, garchi Hirotni ne-ne dasti uzun podshohlar, sohibi qudratlar, jahongirlar qurishgan, obod etishgan esada, biroq hali hech kimga uni poytaxt darajasiga ko'tarish nasib etmagan. Hirot hali hanuz poytaxt rutbasini ololganicha yo'q... Vallohi a'lam bissavob" (125-bet). Matndan ma'lumki, Hirot shahri ham bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan dunyoning ko'hna va go'zal shaharlaridan biri bo'lib, u asrlar davomida barcha podshohlarni o'ziga "maftun" etib kelgan. Shohrux Mirzo ham kelajakda bu shaharni o'zining davlati poytaxti darajasiga chiqarmoqchi bo'lgani ham buni tasdiqlaydi.

Asarda kishi nomlariga qo'yilgan toponimlar soni ham ancha bo'lib, ular asosan shu joylik mashhur kishilarning nomlari bilan bog'lanadi. Ularni quyidagi parchalar orqali ko'rib o'tamiz:

Bir necha kundirki, Turon saltanati poytaxti Samarqandi firdavsmonandning shimolidagi Ohanin darvozasi tomonda Bibixonim madrasasi bilan Tuman oqa xonaqosi ro'parasida, ko'chaning narigi betida g'ala-g'ovur, shovqin-suron tinmaydi (12-bet).

...Bu palla ikki yuz qadamlar olisda Muhammad Sulton madrasasidan chiqqan shahzodaning mulozimlar o'rtasida oq tulporga minayotgani elas-elas ko'zga tashlandi...(32-bet).

O'sha Sadr Sulaymon madrasasining tolibi ilmi Kaltatoyman! (58-bet).

...Alloma bo'lg'aylar, inshoolloh! Marog'adagi munajjim Nosiriddin Tusiy rasadxonasiga olib boringiz, deya hol-jonimizga qo'ymaganlariga-ku o'zingiz guvohsiz!(238-bet). Bu misollarda Amir Temurning harami Bibixonim va Tuman oqa, nabirasi Muhammad Sulton nomlariga qo'yilgan joy nomlari, keyingilarida esa Sadr Sulaymon va munajjim Nosiriddin Tusiy nomlari bilan ataladigan toponimik joy nomlari keltirilmoqda. Bunday turdagi toponimik nomlarni asarda yana ko'plab uchratish mumkin.

Matn tarkibida qo'llanuvchi onomastik birliklar ham pretsedent birliklar sifatida qo'llanilib, ular til tizimini talqin qilishning yetakchi yo'nalishlaridan biri sanaladi. Pretsedent birliklarga matn tarkibida qo'llanuvchi til egalariga yaxshi tanish bo'lgan, o'sha xalqning milliy ongida yaxlit tizim sifatida saqlangan, ularning nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari va jummalarni kiritish mumkin. Masalan, o'zbek tilida Layli, Majnun, Afandi, Sotti, Shum bola, Xizr, Alpomish kabi kishi nomlari pretsedent birliklar sanalib, ular o'z navbatida boshqa bir matnga ishora qilishi bilan xarakterlidir.¹⁰²

Onomastik birliklarning bir turi bo'lgan toponimlar pretsedent birliklar sifatida badiiy asarlar tarkibida ham ko'plab uchraydi. Jumladan, yozuvchi Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romani matnida ham onomastik birliklardan toponimlarning pretsedent nomlar sifatida qo'llanilganini ko'rish mumkin. Masalan, asardan olingan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik: *"Firdavsmonand Samarqandda muhtasham masjidi jome' solg'aymen! Toki u saddi Iskandarday ustivor, Qubbai Haramondek ulug'vor bo'lsun, Xisravi No'shirvon toqidan ham baland qurilsun!" - degan qutlug' niyat tug'ildi"* (15-bet).

¹⁰² Худойберганава Д. Прецедент номларнинг антропосентрик талқини. // "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 2015 йил, 2 сон. 40-45-бетлар.

Ushbu matnda qurilajak masjidning ustivorligi xuddi sarkarda Iskandar Zulqarnayn ya'juj-majujlarga qarshi kurash jarayonida qurdirgan ulug' bir devor keyinchalik "Saddi Iskandar" nomi bilan atala boshlangan devor va u bilan bog'liq voqealarni o'zida birlashtirgan toponim matnda pretsedent birlik sifatida ishlatilmoqda. "Qubbai Haramon" deb esa Makkada qurilgan ulug'vor masjid gumbazlarini, "Xisravi No'shirvon toqi"dan ham baland bo'lsin deganda esa, Xisrav No'shirvon qurdirgan binoning gumbazlaridan ham baland bo'lishini nazarda tutgan. Bu uch toponimni matndagi pretsedent birlik sifatida qayd etishimiz mumkin. Matnda qo'llangan yana bir xuddi shunday toponimga e'tibor qarataylik:

"...o'sha Sultoniyaning Bog'i Eramidagi ziyofatda kalta soqolli munshiy horg'in ovozda o'qib bergan, hammani lol etib qo'ygan naychasimon maktubni yirtib-yirtib tashlagan ekan..."(66-bet). Bog'i Eram manbalarda jannat bog'i deya qayd etiladi. Qadimda eng ko'rkam va chiroyli bo'lgan bog'larga nisbatan shu nomni qo'llaganlar. Bunday bog'larning madhi tillarda doston bo'lgan. Shu sababli ham Amir Temur o'z mamlakati va unga qarashli bo'lgan hududlarda bog'lar barpo etib, ulardan biri Sultoniya shahrida barpo etilgan bog'ning nomini "Bog'i Eram" deya ataydi. Bu toponim orqali ham boshqa bir toponim haqidagi bilim va tasavvurga ega bo'lganimiz uchun unga ham pretsedent birlik sifatida qaraymiz.

Bundan tashqari asar matnida afsonaviy, mifologik toponimlar ham pretsedent birlik vazifasida keladi: *"Amirzoda nazarida, u (Shodimulk – Ch.X.) bu zaminda tug'ilmagan, balki parilar makoni Ko'hi Qofda dunyoga kelgan"* (296-bet). Ushbu toponim bilan bog'liq ikkinchi misol:

*"Siyming bog'da yotgan pari,
Ko'hi Qofdan ketgan pari, hay!"(173-bet).*

Afsonalarga ko'ra bu tog' yer atrofini o'rab olgan buyuk tog'lar hisoblanadi. Ko'hi Qof – o'zbek xalq ertaklari, doston va og'zaki ijod namunalarida afsonaviy tog' nomi. Rivoyatlarga ko'ra, Ko'hi Qof dunyoning bir chetida bo'lib, unga eng jasoratli pahlavongina yetib bora oladi. Parilar yashaydigan Eram bog'i ham shu yerda. Qolaversa, u yerda afsonaviy qushlar: Semurg' va Anqo, devlar, farishtalar

ham yashaydi. Go‘ro‘g‘li, Avaz singari o‘zbek xalq dostoni qahramonlari juda ko‘p to‘siqlarni yengib o‘tib Ko‘hi Qofga yetib borganlar. Ushbu tog‘ bilan bog‘liq o‘zbek xalq maqoli ham mavjud: “Gap desang qop-qop, Ish desang Ko‘ hi Qofdan top”. Bu maqol orqali Ko‘hi Qofning haddan ziyod olisda ekanligiga ishora qilingan.¹⁰³ Shu tufayli ham *Ko‘hi Qof* toponimini eshitish bilanoq, xayolimizda u va u bilan bog‘liq afsona, rivoyat va xalq dostonlari yodimizga tushadi. Shunga ko‘ra bu toponimni ham matndagi pretsedent birlik deb olamiz.

Asarda nafaqat toponimlar balki, antroponimlar ham uslubiy vosita sifatida keng qo‘llanilgan bo‘lib, quyida ularning tahlili bilan tanishamiz.

3.2. “Shohrux Mirzo” romanida antroponimlar uslubiy vosita sifatida

Ilmiy adabiyotlarda antroponimlar, xususan, o‘zbek antroponimikasi haqida prof. B. Yo‘ldoshev o‘zining “O‘zbek onomastikasi masalalari” nomli kitobida shunday deydi: “Ma’lumki, o‘zbek antroponimika(atoqli otlar)si bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bir necha yillar oldin boshlangan bo‘lib, XX asrning 90-yillariga kelib esa o‘zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o‘rganila boshlandi.

Bu davrda badiiy asarlarda qo‘llangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari, ularning tarjimai bilan bog‘liq masalalar ham o‘rganila boshlandi.

O‘zbek antroponimikasining yana bir muammosi poetik yoki badiiy antroponimika masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular badiiy asarlarda qo‘llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqat nominativ funktsiya emas, balki bir qancha funksional-uslubiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilishidir.”¹⁰⁴

Demak, yuqorida ta’kidlanganidek, antroponimlar badiiy asarlarda, shuningdek tarixiy badiiy asarlarda ham uslubiy vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Jumladan, yozuvchi Muhammad Alining “Shohrux Mirzo” tarixiy romani matnida ham buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy romanda antroponimlar personajlarning xatti-harakati, jamiyatdagi mavqeyini ifodalovchi vosita sifatida

¹⁰³Internet sayti. Google.com. Vikipediya ochiq onlayn ensiklopediya: Ko‘hi Qof.

¹⁰⁴Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, СамДУ, 2012. 39-42 б.

ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, asardagi bosh qahramon Amir Temur obrazi orqali avvalo, ona yurtga fidokorlik, uning sarhadlari dahlsizligini ta’minlashdagi chekkan zahmatlari, vatanparvarlik, adolat, rostgo‘ylik, mehribonlik, muruvvatlilik, saxiylik, bag‘rikenglik kabi xislatlarni ochib beradi.¹⁰⁵ Shuningdek, Sohibqironning suyukli nabirasi bo‘lgan valiahd shahzoda Muhammad Sulton ismini eshitganda ham kitobxon ko‘z o‘ngida uning shahzodalarga xos ulug‘vorligi va samimiyligi, shijoatliligi, jasurligi va mardligi, yaqinlariga va suyukli yoriga sadoqatliligi gavdalanadi. Shahzodaning bunday xususiyatlarga ega ekanini uning nomiga bobosi tomonidan Rum saltanati fathi uchun bitilgan “Fathnoma”da keltirilgan so‘zlar fikrimizni dalillaydi:

Alhosil, aziz farzandlardan biri - Olloh uning umrini uzun qilsun, - suyukli, hurmatli, shon-shuhratli, saodatli, arziguli, xushfe‘l, ulug‘ Tangri iltifotiga loyiq farzand, hayotimiz farog‘ati, ko‘zimiz nuri bo‘lmish valiahd shahzoda Muhammad Sulton ibn Jahongirga mehribonlik va inoyat yuzasidan hamda ko‘pdan-ko‘p siylovu marhamatlar oqibatidin, qo‘l ostimizdagi mamlakatning bir tarafini ... saltanat tutish, el so‘rash, egalik qilish va boshqarish uchun tayin etduk. Mazkur muzofotlardagi barcha yumushlarni hal qilmak va man‘ etmak jilovini uning boshqarish kaftiga va bahodirlik changaliga tutqazduk (255-bet).

Antoroponimlarni kishi xususiyatini ochib beruvchi vosita sifatida aytganda, shubhasiz romandagi yana bir qahramon, garchi yosh bo‘lishiga qaramasdan xuddi ulug‘ kishilardek fikrlovchi, yoshiga nomunosib ravishda bosiq va mulohazakor Ulug‘bek Mirzo haqida to‘xtalib o‘tish joiz. Ulug‘bek Mirzo haqida asar matnida bobosi tilidan shunday ta’rif keltiriladi:

“Momojon, nega quyosh har kuni chiqib har kuni botadi? - so‘rab qoldi amirzoda kunlardan bir kun. Nima deyishga hayron Saroymulixonim uning javob kutib turgan tiyrak qora ko‘zlariga qarab:

-Xudo biladi, amirzodam... - dedi, ichida: “Ulug‘bekmas, savolbek! Savolbek Mirzo! Oxirzamonning bolalarida!..” - deb, bosh tebratib qo‘ydi.

¹⁰⁵ Дадабоев Х. Соҳибқиронга ато қилинган ҳислатлар. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2007 йил, 6 апрел. 3-бет.

Qorabog'ga borganlarida nabirasining favqulodda tiniq aqlu-idrokidan zehning o'tkirligidan maqtanib gapirgani esida. -Mening nabiram-da! - degandi o'shanda Amir Temur o'zicha g'urur tuyub. - Ismi bekorga Ulug'bek emas! Ism tortadur. Umri uzoq bo'lsun, ilohi!" (239-bet). Bundan ko'rinib turibdiki, o'sha davrlarda ham kishi ismiga nihoyatda katta e'tibor bilan qarashgan. Ulug'bek Mirzoning esa ismi jismiga yoshligidanoq mosligi matn mazmunidan anglashilib turibdi. Haqiqatdanda, "Ulug'" olimning ilmga chanqoqligi, osmon jismlariga, ularning sirli harakatiga qiziqish uning yoshligidayoq boshlangani ma'lum bo'ladi. Mana shu qiziqishlar samarasi o'laroq, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali tuzilgan bo'lsa ajab emas. Ulug'bek Mirzo haqida Muhammad Sulton o'zining kundaligida kishilarga tavsif berish chog'ida shunday yozadi:

Ulug'bek Mirzo. Besh yoshda, lekin kattalarday sipo, bosiq. Anjumanlarda gaplarga sinchkovlik bilan quloq solib o'tiradur. Huda behuda oraga so'z qo'shmaydur (77-bet). Bu tavsifdan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqimizda "bo'lar bola boshidan ma'lum" degan gap bejizga aytilmagan. Asarni o'qir ekanmiz, bu so'zlar ayni Ulug'bek Mirzo uchun aytilgandek tuyuladi.

Afsuski, besh barmoq bir bo'lmaganidek, asardagi barcha ismlar ham birdek ijobiy ma'noga ega emas. Masalan, asardagi yana bir qahramon Mironshoh Mirzo obrazini olaylik. Uning ismini eshitganda kitobxonda mutlaqo teskari tasavvurlar paydo bo'ladi. Ya'ni uning badfe'l va xudbinligi, saltanat kelajagini emas, balki, faqat o'zining bugungi kunini o'ylaydigan kaltafahm, dushmanlarning ayyorona aldoqlariga uchib, o'z yaqinlari va yurt taqdiriga loqayd qaragan kishi ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Asarda antroponimlar asosida matndagi pragmatik xususiyatlarning namoyon bo'lishini ham ko'rish mumkin. Xususan, Amir Temurning suyukli rafiqasi Saroymulkxonimning ismi aynan shunday pragmatik jarayonlar hosilasi deyish mumkin. Chunki unga "Katta xonim", "Bibixonim", "Xonimoyim" unvonlarining noil qilinishi bejiz emas edi. Buning sababi Saroymulkxonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-

latofat bobida ham benaziri bo‘lib, u haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i edi.¹⁰⁶

Bundan tashqari, Sohibqironning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lgan Jahongir Mirzoning xotini Xorazm malikasi Sevinbekaga ham kelib chiqishi, nasl-nasabiga qarab, xon avlodidan bo‘lganligi uchun unga “Xonzoda xonim” unvoni beriladi. Keyinchalik Sevinbekani hamma mana shu nom bilan atay boshlaydi. Bu esa saroyda unga bo‘lgan hurmat, e‘tibor, e‘zoz juda baland ekanidan dalolat beradi. Bu hurmat va e‘zozni avvalo, Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir Mirzo vafotidan so‘ng keliniga qarata aytgan quyidagi so‘zlaridan ham bilib olish mumkin: *“Anchadan beri Sohibqiron qizim emas o‘g‘limsiz, deb qadrlaydigan kelinini ko‘rgani yo‘q, sog‘inib ham qolgan. Xonzoda xonim ham bu yerda malikalar bilan diydorlashib ko‘nglini yozib qaytadi (100-bet).”* Bundan ko‘rinadiki, Sohibqiron Xorazmlik kelinini o‘g‘lidan so‘ng xuddi o‘g‘lidek yaxshi ko‘rib, hurmat qiladi. Bu esa uning ayollarga bo‘lgan munosabatini, naqadar oliyjanob kishi ekanini ko‘rsatib beradi. Lekin taqdirning ishini qarangki, Amir Temurning suyukli nabirasi, Xonzoda xonimning to‘ng‘ich o‘g‘li valiahd shahzoda Muhammad Sulton ham xuddi otasi Jahongir Mirzo kabi dunyodan bevaqt ko‘z yumib, uning zavjasi Sog‘inch xonim beva qoladi. Sohibqiron bu kelinini ham o‘g‘li o‘rnida ko‘rib, e‘zozlaydi, buni asardan olingan quyidagi parcha orqali ko‘rib o‘tamiz:

-Qanday dono qizim bora mening! Endi Sog‘inch xonim emas, Sog‘inchbek deb atag‘aybiz! “Sog‘inchbek!”, “Sog‘inchbek!” degan ovozlari yangradi.

Malikalar Sog‘inch xonimni olqishlab, ko‘nglini ko‘tardilar.

Amir Temur faqat Xonzoda xonimni emas, balki barcha kelinlarni xuddi shunday ardoqlaydi, xususan, uni quyidagi parcha orqali ko‘rib o‘tamiz:

Podsho kelinini deb e‘zozdanadigan aql-idrokli, tuyg‘ungina Gavharshod begim ham husnu malohatda tengsiz, ko‘rku chiroyda benazir... Orqasini egallagan tim qora sochlari naq ofatning o‘zi, shahlo ko‘zlarida ajabtovur shijoat, g‘ayrat uchqunlari chaqnaydi (45-bet). Misoldan ko‘rinib turibdiki,

¹⁰⁶Файзиёв Т. Темурий маликалар. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. 3-бет.

Sohibqironning bu kelini ham saroyda yuksak hurmat- e'tiborga ega bo'lgan, unga berilgan "Podsho kelini" nisbati ham Amir Temur uni qanchalik ardoqlashini ko'rsatib turibdi.

Asarda toponimlar asosida shakllangan antroponimlar ham o'zida funksional-semantik xususiyatlarni mujassam etgan. Jumladan, asarda Rum toponimi bilan bog'liq ravishda shakllangan "Rum qaysari" antroponimiga duch kelamiz:

"Rum qaysari qirq yoshlarda, past bo'yli, moviy ko'zli, yirik qirg'iy burunli, soqoliga bitta-yarim oq oralagan to'ladan kelgan odam edi. Takabburligi-yu jasurligi, shijoati oshkor, hayotsevar, qiziqqon, irodasi metindek mustahkam, kuchli bu inson mardligi bilan askarlarni jo'shtirib yuborardi. Ammo shoshqaloq, unda zarracha ham sabr-toqat yo'q edi. Gapirganda taxtdan tushar jo'shganidan ayvonning chetiga borib qolardi..." (234-bet). Bu ta'rif Rum mamlakati podshosi Yildirim Boyazidga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, bu ta'rif uning xarakteri va ijtimoiy mavqeyini to'la o'zida mujassam etadi deyish mumkin. Toponimlar asosida shakllangan antroponimlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, u kishining qayerda tug'ilib, o'sgani haqidagi ma'lumotni berishi bilan ham ahamiyatlidir. Ular, odatda, kishi ismiga qo'shilib aytiladi. Joy nomiga "-iy" qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan, asardagi Muhammad al-Keshiy ismli kishining Kesh shahridan ekanligini darrov payqash mumkin bo'ladi:

-Ha. Esingizdami, Amir Sohobqiron Samarqand madrasasi tolibi ilmlaridan, Toshkand, Shahrisabz, Buxorodan bir ko'p mullavachchalarni Misr, Toif, Madina, Damashq, Bag'dod, hatto Iskandariyaga tahsil olishga yubordilar. Muhammad al-Keshiy ana o'shalardan biri (364-bet). Xuddi shu kabi joy nomlari asosida shakllangan antroponimlar asarda ko'plab uchraydi. Ushbu antroponimlarni ham misollar orqali ko'rib o'tamiz:

"-O'zim shohidman, Tayobodda pirlarini ziyorat etdilar, Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy chindan zoti bobarakot ekanlar. Amir Temur Ko'ragonday podsho aziz tutadigan shayxni ulug'lar ulug'i desa arziydida! Xudo mening ko'nglinga ham mehrini soldi" (60-bet).

